

NE'MAT ABDULLAYEV

# SHARQ XALQLARI SAN'ATI TARIXI

N. ABDULLAYEV


5.

# SHARQ XALQLARI SAN'ATI TARIXI

San'at sohasida ish yurituvchi kasb-hunar kollejlarining o'quvchilari  
uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanma



O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti  
Toshkent  
2007



Sharq xalqlari san'ati tarixi o'quv qo'llanmasi Oliy va o'rta ta'limgaz vazirligi tasarrufidagi kasb-hunar kollejlarining o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Qo'llanmada sharq xalqlari tasviriy va me'moriy san'at tur va janrlariga oid ma'lumotlar, ularning qadimiy davrdan bizning kunimizgacha mavjud bo'lgan tarixi va texnologik jarayonlari, rivojlanish bosqichlari, asosiy yo'nalishlari, ularning yetuk vakillari haqida so'z yuritiladi. Mazkur darslikning ibtidoiy jamaoa davridan to bizning kunimizga qadar bo'lgan san'at tarixi yoritilgan hamda asosiy e'tibor tasviriy va me'moriy san'at rivojining eng muhim bosqichlariga qaratilib, davr bilan bog'liq g'oyaviy – plastik o'zgarishlarni aniq misollarda tahlili bilan yoritishga harakat qilingan. Darslikni tayyorlash jarayonida san'atshunoslikning so'nggi ma'lumotlari, internet xabarlari, kompyuter texnologiyasiga mo'ljallangan SD va DVD materiallaridan ijodiy foydalanylган.

#### **85.1(5)** **A 15**

Abdullayev, Ne'mat.

**Sharq xalqlari san'ati tarixi: o'quv qo'llanma/N. Abdullayev;**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'limgaz vazirligi. - T.:  
O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2007. 120 bet.

**BBK 85.1(5)**

## KIRISH

Sharq iborasi shartli bo'lib, odatda, qadimgi Grek-Rim davlatlari dan Sharqda va Janubda joylashgan jug'rofiy hudud nazarda tutilgan. Old Osiyodagi Shumer, Akkad, Bobil (Vaviloniya), Ossuriya, Urartu, Xett davlatlari, Misr podsholigi, Eron imperiyasi kabi Grek-Rim davlatlariga qo'shni mamlakatlar shu hududga kiritilgan. Keyinroq Shimoli-Sharqiy Afrikada Tunisdan (bu yerda Qadimgi Karfagen davlati mavjud bo'lgan) to Yaponiyagacha cho'zilgan, Habashistondan (Efiopiya) Kavkaz tog'lari, Hindiston, Xitoy, Indoneziya, Koreya yerlarigacha o'z ichiga qamrab olgan katta maydon shu tushuncha ichiga kirgan. Bugungi kun-da bu ibora bilan ko'proq Osiyo xalqlari yashaydigan hudud nazarda tutiladi. Qadimgi Sharq xalqlari san'ati va madaniyati tarixi katta davrni o'z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi 5000—4000-yillarda bu yerlarda shakllana boshlagan quldarlik jamiyati yangi eraning IV—V asrigacha davom etdi. Qadimgi Sharq xalqlari san'ati tarixi yer yuzida shu quldarlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davridagi san'atni o'rghanadi va tahlil qiladi. Qadimgi davlatlar dastlab Nil, Yefrat, Tigr, Gang, Xuanxe, Yanszi, Qizil irmoq daryolari yogalarida shakllangan. Quldarlik davlatlarining maydonga kelishi tarixiy zaruriyat bo'lib, u ishlab chiqarish kuch va madaniyatining keyingi taraqqiyotini belgiladi. Bu davrga kelib aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajraldi. Dehqonchilik, chorvachilik, savdo-sotiq, hunarmandchilik, san'at rivojlandi. Bu esa, o'z navbatida, inson ma'naviy dunyosining rivojlanishiga, jumladan, san'atning ravnaqiga zamin yaratdi. Agar ibtidoiy jamoa davrida san'at insonning kundalik hayoti, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, endilikda u ijtimoiy ongning ajralmas qismiga aylandi va ijtimoiy hayotda muhim o'r'in tuta boshladi. Bu davrda san'at taraqqiyoti bevosita din, mifologik tushunchalar zamirida rivojlanishini davom ettirgan bo'lsa ham, lekin birmuncha tantanali ruh ola boshladi. Ko'mish marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar muhim tantanalarga aylandi. Yirik maqbara, saroylar qurish, ularni bezashga katta ahamiyat berila boshlandi. Devoriy suratlar, monumental relyef va haykallarda hukmdorlar, afsonaviy qahramonlar faoliyati ulug'landi. Qadimgi dunyo san'atkori o'ziga xos formalarda kundalik turmush voqealarini aks ettira boshladi. Bu davrga kelib, odamlarning diniy tushunchalari ham o'zgara bordi. Odamlar tabiat kuchlariga sig'inishdan asta-sekin ilohiy kuchlar-ga — xudolarga sajda qila boshladilar. Bu xudolar timsolida odamlar aqliy barkamol, mo'tabar, har narsaga qodir bo'lgan, o'z xarakteri va ko'rinishi jihatdan odamlarga o'xshaydigan obrazlarni tasavvur eta boshladilar. Ularga atab hashamatli ibodatxonalar, monumental haykallar yaratdilar. Shu bilan birga, inson obrazi san'atning bosh qahramoniga aylana boshladi. Uning jasorati va oliyjanobligi, iroda va aql-zakovati-

ning qudrati san'atkorlar tomonidan kuylandi. San'atda vogelikni obrazli bilish tomonlari kuchaydi. Uning tur va janrlari kengaydi. Bu davrda san'atda sintez masalasining hal etilishi esa insoniyatning qo'lga kiritgan buyuk yutuqlaridan bo'ldi. Qadimgi dunyo san'atining yana bir muhim tomoni shu bo'ldiki, unda milliy o'ziga xos tomonlar yaqqol ko'zga tashlana bordi. Katta-katta madaniyat markazlari vujudga keldi. Ular-ning san'atlari bir-biridan ko'rinishi, xarakteri, vogelikni obrazli ifoda etishi bilan ajralib turadi.

# BIRINCHI BO'LIM.

## Qadimgi Sharq san'ati.

### Qadimgi Misr podsholigi

Afrikaning shimoli-sharqida, Nil daryosining quyi vohasida bugungi Misr Arab Respublikasi yerlarida juda qadim paytlarda (er. av. VI ming yillik) bir qancha qabilalar yashagan. Eramizdan avvalgi 4000 yillikda shu yerda yer yuzida birinchi sinfiy jamiyat kurtaklari nish urdi, quldarlik davlatlari yuzaga keldi, rivojlandi. Eramizdan avvalgi 4000 yillik oxiri – 3000 yillik boshlariga kelib esa ular yagona yirik despotik davlatga aylandi. Qadimgi Misr san'ati tarixi ana shu davlatlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va inqirozidan tortib, to makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makedonskiy)ning yurishi bilan uning ellistik dunyoga qo'shilib ketishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, o'rganadi, tahlil etadi.

Qadimgi Misr uzoq yo'lni bosib o'tdi. Deyarli 4000 yildan ortiq vaqtini o'z ichiga olgan bu davr mobaynida tasviriy va amaliy san'at, me'morlikning nodir durdonalari yuzaga keldiki, ular bugungi kunda ham o'zining ulug'vorligi, mahobati va yuksak badiyiliqi bilan kishilarni hayajonlantiradi. Bu yerda birinchi marta inson va uning mehnati san'atkori asarida o'z ifodasini topdi. Inson quadrati, nafosati va aql-zakovatining imkoniyati kuylandi. Lekin bu san'at va madaniyat birinchi bor sinfiy tengsizlik sharoitida, hali tugamagan ibtidoi yuzum va sharq mustabidligi davrida mavjud bo'ldi. Bu davr sir'avnlarning cheksiz hukmronligi va faqat qullarninggina emas, balki erkin dehqonlarning ham to'la huquqsizligi bilan xarakterlanadi. Qadimgi Misr



san'atining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u din bilan aloqada va unga tobe bo'lgan. Fir'avn va zodagonlar bilan bir qatorda, kohin va din vakillari ham juda ko'plab ibodatxonalar qurilishi va xudolar obrazining ishlanishiga sabab bo'ldilar. Gap shundaki, qadimgi misrliklarning diniy tushunchasi o'zining spesifik xususiyatiga egadir. San'at uchun Qadimgi Misr dinidagi o'lganlarga sig'inish alohida ahamiyatga ega edi. Qadimgi misrliklar agar odamning jasadi yaxshi saqlansa, narigi dunyoda uning ruhi abadiy yashaydi, deb tushunganlar. Shu boisdan o'lganlarni mumi-yolash, agar jasad buzilsa yoki chirib ketsa, yo'qolsa, shu odamning narigi dunyoda tinch yashashi uchun uning jasadi o'miga haykal qo'yishni odat qilganlar. Qabrga, jasad yoniga esa uning tirikligida foydalangan uy anjomlari, quroq-aslahalar, suv, oziq-ovqat qo'yish yoki shularning tas-virini ishslash kabi odatlar mavjud bo'lgan. Bu, albatta, ko'mish bilan bog'liq bo'lgan me'morlik san'ati, qabrlarga qo'yish uchun ishlangan haykal, rangtasvir san'atining rivojlanganligiga sabab bo'lgan. Albatta, bunday boy, tantanali ko'mish marosimi, monumental maqbaraning ichini san'atning hamma turlari bilan bezatishni faqat fir'avn va Misr boyлari amalga oshirishi mumkin edi.

Sharq despotizmi ta'sirida Qadimgi Misr jamiyati sekinlik bilan rivojlandi va ayniqsa, kohinlar tomonidan qattiq muhofaza qilingan diniy kanunlar Misr san'atiga, uning sekin rivojiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham juda qadim paytlarda Misr san'atida paydo bo'lgan badiiy uslublar uzoq vaqt Misr san'atida yetakchi o'rinni egallab, uning xarakterli tomonini belgilab kelgan. Qadimgi Misr san'atkorlari ana shu kanunlardan chiqmaganlari holda, inson jismoniy va estetik dunyosining murakkab, serqirra va nozik tomonlarini aks ettirishga tuyassar bo'ldilar va jahon san'ati tarixida qaytarilmas, o'ziga xos, nafis, jozibador, ulug'vor va sirli san'at durdonalarini meros qilib qoldirdilar.

## MUSTAQIL O'QISH UCHUN

*Qadimgi Misr tarixi bir qator bosqichlarga ajratiladi:*

1. *Dinastiyagacha (sulolalar paydo bo'lishiga qadar) bo'lgan davr. Bu davr ibridoj jamoa tuzumining inqirozi va dastlabki ilk podsholiklar (I-II dinastiya)ning yuzaga kelishi davriga to'g'ri keladi va mil. av. 4000-yillar ni o'z ichiga oladi.*
2. *Qadimgi podsholik – III–VI dinastiya (mil. av. 3000–2300-yillar).*
3. *O'rta podsholik – XI–XII dinastiya (mil. av. 2100–1800-yillar).*
4. *Yangi podsholik – XVIII–XX dinastiya (mil. av. 1600–1100-yillar).*
5. *So'nggi podsholik – XXI–XXXII dinastiya (mil. av. 1100–332-yillar). Bu bosqichlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lsa ham, lekin ularning har biri o'ziga xos xususiyatga egadir. Bu xususiyat bevosita ijtimoiy*

*tuzumning xarakteri, moddiy va madaniy taraqqiyoti bilan aloqadordir. VII-X, XIII-XVII dinastiylar hukmronlik qilgan yillar Misr davlati in-qirozga yuz tutgan, chet el bosqinchilari (geksoslar) tomonidan bosib olin-gan va unga qarshi kurash yillari bo'ldi, san'at tarixida muhim va xarak-terli yodgorliklar yaratilmadi.*



**Me'morchilik.** Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va ilk podsho-liklarning shakllanish davrida san'atning hamma turlari va janrlari yuza-ga keldi, insoniyat yozuvning dastlabki formalaridan hisoblangan rasmiy yozuv – piktografik yozuvlar paydo bo'ldi. Qadimgi Misr san'ati o'zining butun taraqqiyoti mobaynida din va uning turli marosimlari bilan uzviy bog'liq holda rivoj topdi. Me'morlik esa san'atlar ichida yetakchi o'rinni egallab, ularning xarakter va uslubiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Dinastiya-gacha bo'lган davrda, ayniqsa, uning so'nggi bosqichida qadimgi misr-liklarning «narigi dunyo» haqidagi tushunchalari maqbaralar – marhum-larning yer osti uylari va ularning ustiga tortilgan tuproq uyumi va qurilmalarda namoyon bo'ldi. Qazilgan qabrlar to'rburchak shaklida bo'lib, chuqur devorlari shu paytda ixtiro qilingan xom g'ishtlar bilan mustahkamlanib terib chiqilgan, tepe qismi esa xom g'isht yordamida egri ravoq tarzida yopilgan. Ayniqsa, oqsoqollar qabriga alohida e'tibor berilgan, ko'p mehnat sarf qilib, uning hashamatli bo'lishiga erishilgan, devorlariga pardoz berilgan, sujetli suratlар ishlangan, ichida marhum va xudolar haykalini qo'yish uchun xonalar ishlangan. Qabr tepasiga ham alohida e'tibor berilgan. Bu qabr tepasiga ishlangan qurilmalar yuqoriga tomon kichrayib boruvchi to'rburchaklar shaklida bo'lib, uning devo-rida esa marhumning «narigi dunyo»dagi «uyi»ga o'tgan yolg'onidakam eshigi bo'lган. Mastaba deb nom olgan bu qurilmalar Sakkara, Abidos, Nigada qabristonlarida ko'plab saqlanib qolgan. Bu mastabalar hajmi va bezagi, qabr ichiga qo'yilgan buyumlar xarakteri marhumning jamoada tutgan o'miga qarab belgilangan. Ko'milgan odamning jamoadagi o'rni qanchalik yuqori bo'lsa, maqbara ham shunchalik mahobatli va ser-h sham bo'lган. Asta-sekin shu maqbaralar yonida marhumga bag'ishlab o'tkaziladigan marosimlar uchun ibodatxonalar qurila boshlandi. Mastabalar keyingi Misr klassik piramidalaringin yaratilishiga asos bo'lган.

*Fir'avn Joser maqbarasi.*



Qadimgi podsholik davrida qurilgan III dinastiya fir'avn Joser maqbarasi (taxminan, eramizdan avvalgi 2800-yillar, me'mor Imxotep) birinchi klassik piramidalardandir. Tepaga ko'tarilib va kichrayib boruvchi supachalardan tashkil topgan bu piramidaning balandligi 60 metrdan ortiq. Uning atrofida turli marosimlar uchun mo'ljallangan qurilmalar mavjud, ular piramida bilan uzviy bog'liq holda yagona majmuani tashkil etadi. 1500 kv. m. maydonni egallagan bu majmua pardozlangan devor bilan o'rab chiqilgan. Undagi xona, yo'lak, dahlizlar bezagiga ham alohida e'tibor berilgan. Bu yerda birinchi bor, devorlarga yopishtirib ishlangan kapitelli yarim ustunlar uchraydi. Ularning ko'rinishi tabiat shakllari (masalan, papirus)ga o'xshatib ishlangan, ko'proq dekorativ vazifani bajaradi.

Joser piramidasini ansamblida birinchi bor san'atning sinfiy xarakteri yaqqol namoyon bo'la boshladi. Davr maskurasini targ'ib etish, fir'avnlarni ulug'lash va ilohiylashtirishga, fuqarolarda podsho hokimiyatining mustahkam ekanligiga ishonch tug'dirish, shu bilan birga, ularni doim qo'rquvda saqlash va itoatkor bo'lishini ifodalashga qaratilgan. Bu piramida davrning siyosiy xarakterini tushunishga yordam beradi, despotik tuzum xudolar darajasiga ko'tarilgan podsholarning hukmdorligi naqadar kuchli ekanligini namoyon etadi. Bu majmua markazi – Joser piramidasidagi bu g'oya keyingi fir'avnlar davrida yanada rivojlantirildi. Eramizdan avvalgi XXVII asrlarda Misr tarixida eng gigant piramidalar qurildi. IV dinastiya fir'avnlari Xufu, Xafra va Minkaura (greklar ularni Xeops, Xefren, Mikerin deb atashgan, tarixda ham shu nomlar ko'proq ishlataladi) piramidalari bizgacha yaxshi saqlangan. Giza yaqinida joylashgan bu piramidalar majmuasining ajralmas qismi bo'lgan sfinks haykali (odam boshli, sher tanali haykal), Xefren piramidasiga boradigan yo'l boshiga qo'yilgan 60 metr uzunlikka ega bo'lgan katta sfinks haykali boshi Xefrenning fir'avnligli bosh kiyimidagi ko'rinishini aks ettiradi. Shu sfinkslar kichraytilgan nusxalari esa Xefren ibodatxonasiga kiraverishda ikki tomonga o'rnatilgan. Piramidalar ansambli ichida eng kattasi Xeops piramidasidir. Balandligi 146,6 m., asosi esa 233 m. Tarixchi Gerodotning ta'rifiga ko'ra, Xeops piramidi 20 yil mobaynida qurilgan. Piramidaga toshlar olib kelish uchun kerak bo'lgan yo'lni qurish uchun esa 10 yil kerak bo'lgan. Odamlar (qullar, erkin dehqon va hunarmandlar) shu piramidanı qurish uchun haydab kelingan. Bu esa davlat iqtisodiga ta'sir etmay qolmadi, xalq g'alayonlariga sabab bo'ldi. Shuning uchun V dinastiya fir'avnlari hajmi katta bo'limgan piramidalar qurdira boshladilar. Lekin piramida majmuyida ibodatxonaga alohida e'tibor berdilar, uning hajmi kengaydi, badiiy bezagida monumental relyef va rassomlik keng qo'llanila boshlandi.



Karnak (mil. av. XVI asr. me'mor Ineni) ibodatxonasi. Tarh va qirqim. I. Karnak ibodatxonasi. Mil. av. XVI asr, me'mor Ineni. Umumiy ko'rinishi. Rekonstruksiya.

Bu tasvirlar marhumni ulug'lash va ilohiyashtirishga qaratilgandir. Qurilishda ustunlarning konstruktiv funksiyalari ortdi. Ko'rinishi palma daraxti, bog'langan nilufarlarni eslatuvchi ustunlar qo'llanila boshlandi. Bu xususiyat keyingi Misr me'morligining xarakterli tomonini belgiladi. Shu jihatdan Abusirdagi fir'avn Saxura maqbarasi majmuyi e'tiborli. Liviya yassi tog'lari etaklaridagi fir'avn Mentuxotep I maqbarasi ansamblı Misr me'morligining yangi qirralarini namoyon etadi. O'rta podsholik davrida qurilgan bu majmuada to'rtburchakli ustunlar qo'llanilgan, yuzasiga esa Mentuxotep I nomi o'yib yozilgan. Me'morlik kompleksi qoya ichi-



Abu Simbedagi Ramses II ibodatxonasining old ko'rinishi.

ga o'yib ishlangan xonalar bilan uzviy bog'liq. O'rta podsholikda ibodatxonalar oldiga pilonlar orasidan o'tish uchun tor yo'lak qoldirilib qurilgan ikki katta minora ishlash, ayvon va hovli atrofini ustunlar qatori bilan o'rab chiqish keng o'nin egalladi va keyingi Misr ibodatxonalarining qurilishi zaruriy va xarakterli element bo'lib qoldi. O'rta podsholik keyingi davr uchun katta ibodatxonalar kompleksini qurish san'atini boshlab berdi. Yangi podsholik davrida aniq to'rtburchak shaklida qurilgan ibodatxonalar tipi keng tarqaldi. Bu ibodatxonalar uch qismdan, ustunlar bilan o'ralgan ochiq hovli, ustunli zal va sig'inadigan xonadan tashkil topgan. Ibodatxona oldida sfinkslar (yoki ovinlar) alleyasi bo'lib, u tosh-pardalarga o'xhash trapetsiyasimon pilonlar tomon yo'llaydi. Pilonlar oldiga esa obelisk va fir'avnlarning nihoyatda katta haykallari o'matilgan. Bu haykallar orasidan ichkariga kirish uchun tor eshiklar qoldirilgan. Ichkari esa asta qorong'ilashib boruvchi gigant ustunli ochiq hovli, zallar va nihoyat, qorong'ilashgan g'orsimon xona — muqaddas xona bilan tugallanadi. Bu me'morlik majmuasi yagona g'oyaga — ilohiyotga bora-digan yo'lning to'g'ri va mashaqqatli ekanligini his etishga qaratilgan. Ilohiyatga yaqinlashgan sayin inson o'zida tushkunlik hislarini sezishi va ilohiy kuch — Xudo oldida, diniy sirlar oldida o'zining bir zarracha ekanini his etishi kerak edi. Bu hissiyotning paydo bo'lishida ibodatxona asta-sekin yorug'likning yo'qolishi va eng so'ngida butunlay yo'q bo'lishi hisobiga erishiladi.

Fivadagi Karnak va Luksor ibodatxonalar gigant me'morlik komplekslaridandir. Karnak (mil. av. XVI asr, me'mor Ineni) va Luksor ibodatxonalar (er. av. XV asr, me'mor kichik Amenhotep)da me'morlar birinchi bor ochiq hovli atrofini kolonadali yechib, yangi podsholik me'morligining o'ziga xos tomonlarining shakllanishiga asos soldilar. Bu komplekslarda qadimgi Misr me'morlik an'analarining muhim tomonlari o'z ifodasini topdi, shu bilan birga, tantanali va hashamatli bo'lib borayotgan marosimlar bilan aloqador me'morlikning yangi ko'rinishlarini namoyon etdi. Ibodatxonalar uchun ishlatilgan ustun yuzalari, devorlar rangli relyeflar bilan bezab chiqilgan. Ibodatxonalar uchun ishlatilgan ustun kapitellari ham xarakterli.

Ular papirus va nilufar gul g'unchalarini eslatib, binoga afsonaviy ko'rinish baxsh etadi. Me'morlikning yangi qirralari podsho ayol Xatshepsutning maqbara va ibodatxonasida ham seziladi. Yangi podsholikning ilk bosqichida barpo etilgan bu me'morlik kompleksi (me'mor Senmut) o'z hajmi va dekorativ bezaklari bilan ajralib turadi. Mentuhotep I ibodatxonasi yonida qurilgan bu majmua tabiat ko'rinishi bilan nihoyatda uyg'unlashib ketgan. Ibodatxonaga boradigan yo'lning ikki tomoni bo'ylab sfinkslar bu manzaraga o'ziga xos tantanavorlik baxsh etgan. Me'morlik ansamblining ayvon va supachalarida ham yaxshi par-



*Narmer plitasi. Shifer. I dinastiya. Er. av. 3000-yillar Qohira muzeysi.*

dozlanib ishlangan podsho haykallaridan tashqari, xudolar haykali qo'yilgan, hovuzlar, ekilgan maysa va daraxtlar majmua jozibasini yana-da oshingan. Ibodatxona devor va pollariga ham alohida e'tibor berilgan. Devoriy surat va relyeflarda esa Xatshepsutning faoliyatiga bag'ishlangan tasvirlar bo'lган. Yangi podsholikning ikkinchi yarmida (er. av. XIV–XI asrlar) qurilish ishlari faqat Misrdagina emas, balki uning tashqarisida, Misrga tobe bo'lган Nubiyada ham avj oldirilib yuborildi. Abu Simbeldagi qoyaga o'yib ishlangan Ramses II ibodatxonasi yangi podsholikning ikkinchi yarmidagi yirik qurilishlardandir.

Uning kiraverish tomoniga qoyadan katta trapetsiyasimon pilon ko'rinishi yo'nib tushirilgan. Pilon oldidagi o'tirgan holda tasvirlangan to'rtta 20 metrli Ramses II haykallari ham qoya toshni yo'nish hisobiga yaratilgan. Ibodatxonaning ichki qismi yangi podsholik davri me'morligi tamoyillari asosida bajarilgan. Ichki qismi ustunli xona bilan boshlanib, u yerga podsho haykallari o'rnatilgan, so'ng uch-nesfli ustunli zal va nihoyat, ibodatxonaga o'tiladi. Bu so'nggi xonada ham xudolar haykali bilan bir qatorda, Ramses II haykali qo'yilgan.

**Tasviriy san'at.** Qadimgi Misr tasviriy san'ati me'morlik bilan bog'liq holda rivoj topdi. Ijtimoiy hayotning murakkablashib borishi va sinsfiy jamiyatning yuzaga kelishi bilan u boshqaruvchi sinsfning kuchli maf-kuraviy quroliga aylandi. Dinastiyagacha bo'lган davrdan bizgacha ko'pgina haykaltaroshlik, rassomlik va amaliy san'at namunalari yetib



*Katta Sfinks haykali.*

kelgan. Shular ichida turli diniy-magik marosimlar o'tkazishda bo'yoqlar qorishtirish uchun foydalanilgan yassi, yupqa, kulrang, yashil, qora tosh — shifer plitalar alohida o'rinni egallaydi. Ularning dastlabkilari oval, romb, to'rtburchak, ba'zida jonivorlar shaklida (masalan, toshbaqa, baliq va boshqalar) bo'lgan. Asta-sekin shu plitalar yuzasiga relyeflar ishlana boshlangan, ularda tarixiy voqealar ham o'z ifodasini topa borgan. Fir'avn Narmer plitasi (taxminan er. av. 3000-yillar) shunday yodgorliklardan biridir. Bu plitada tarixiy voqealari yuqori (janubiy) Misr fir'avni Narmer tomonidan quyi (shimoliy) Misr yerlarining bosib olinishi va yagona davlat tashkil etilishi hikoya qilinadi. Plitaning bir tomonida fir'avn Narmerning dushman podshosi sochidan ushlab, o'z cho'qmori bilan urayotgan payti tasvirlangan. Yuqorida fir'avn horiysi lochin qiyofasidagi xudo Gor quyi Misr ramzi bo'lgan nilufar o'simligi ustida dushman podshosini arqon bilan tortib turibdi. Olti nilufar o'simligi mag'lubiyatga uchragan olti ming dushman ramzini bildiradi. Past tomonda qochib borayotgan dushman jangchilari ko'rsatilgan. Plitaning orqa tomonida Narmerning Misr tojiga bog'langan va boshi tanasidan judo qilingan dushman jangchilari tomon g'olibona borayotgani tasvirlanadi. Plitaning pastki tomonida esa kuchli, shoxdor buqa to'sinlarni buzib, dushmanni yanchib borayotgani tasvirlangan. Bu yerda buqa qudrat ramzi bo'lib, u fir'avnning allegorik obrazni hisoblanadi. Plitaning markazida ikki fantastik hayvonlar gepardlarning uzun bo'yinlari bir-biri bilan chatishib ketishi natijasida o'ttada dumaloq chuqurcha hosil bo'lgan. Bu

chuqurcha, bir tomondan, marosimlar uchun bo'yq qorishtirishda ishlatsila, ikkinchi tomondan, bu doira kompozitsiya g'oyasini Misr yerlaring yagona davlat bo'lib birlashganini bildiruvchi muhim detaldir. Narmer plitasi hajm jihatdan katta emas, balandligi 64 sm, lekin ko'rinishi jihatdan monumentaldir. Narmer plitasi ijtimoiy hayotda tengsizlik rivojlanayotgan bir paytda yaratildi. Bu xususiyat uning yaqinlari va oddiy xalq tasviri o'lchamlarining xarakterida ham ko'rindi. Fir'avn boshqalarga nisbatan katta tasvirlanadi. Plitaning muhim tomoni, yuzada hajmli tasvirlarni ko'rsatish va joylashtirish uslubining ishlab chiqilganligidir. Tasvirda odam boshi yon tomondan ko'rsatilgan holda, ko'z old tomondan tasvirlanadi, yelkalar to'liq old tomondan ko'rsatilgan holda tananing pastki qismi yon tomondan, biroz burilgan holda ishlanadi. Voqealar esa yuzada ustma-ust joylashtiriladi. Bu kompozitsiyaga hikoyanavislik baxsh etadi. Dinastiyagacha bo'lgan davrdayoq maqbara devorlariga surat ishlash va haykallar qo'yish odat bo'lgan. Bu odat qadimgi podsholikda ham rivojlanib, maqbara va ibodatxonalarining ajralmas qismiga aylandi. Bu haykal va suratlar qat'iy kanonlarda ishlangan. Haykallarda o'tirgan yoki tik turgan tasvirlar uchun qat'iy qonun mavjud bo'lib, u deyarli hamma haykalda qaytariladi. Kompozitsiya frontal yechiladi, haykalning hamma qismlari simmetrik joylashadi va ba'zi hollarda qotib qolgan, harakatsiz holda tasvirlanadi, hatto haykaltarosh odamni harakatda tasvirlashga intilgan paytda ham shu hol seziladi. Lekin shu bilan birga, har bir ijodkor ishlangan haykal konkret ko'rinishga ega bo'lgan individual shaxsning o'ziga o'xshashiga intiladi. Bular, albatta, ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan haykallarning xarakteridan kelib chiqqandir. Bu haykallarga konkret shaxsning ruhi joylanishi lozim, shuning uchun u o'ziga o'xshagan bo'lishi shart. Shu bilan birga, o'lgan kishining ruhi yerdagi hayot mashmashalariga emas, balki abadiy sukunatga boqishi, yerdagi hamma mashmashalardan xoli bo'lishi, demak, u xotirjam, tinch, harakatsiz va yerdan butunlay ajralgan holda tasvirlanishi lozim. Fir'avn va zodagonlar haykalida jismoniy kuch bo'rttirilib ko'rsatiladi. Haykaltarosh iloji boricha mayda detallarni umumlashtirishga harakat qiladi. Haykallarning bo'yalishi ham xarakterli. Odatda, erkaklar haykali qizg'ish-jigarrang bilan, ayollar haykali esa och sarg'ish oxra bilan, kiyimlar oq, soch qora qilib bo'yab chiqiladi. Haykal ko'zlarining oq va qora toshlardan inkrustatsiya qilinishi ham haykallarning ta'sirli bo'lishini ta'minlaydi. Lekin qadimgi podsholik davrida haykaltaroshlik qanchalik kunnalarga bo'ysunmagan bo'lsin, ular o'zining o'tkir realizmi va to'laqonliligi bilan ajralib turadi. Chordana qurib o'tirgan Mirzo Kai haykalida (er. av. 3000-yil o'talari) farmon kutib, yozishga shay turgan kotib obraqi uning katta ochilgan ko'zi, biroz old tomonga engashgan gavda va qo'llar tasvirida ochiladi. «Qishloq oqsoqoli» deb nom olgan



Nofreter sag'anasidagi tasvir.  
Fiva. Ramses II davri, XIX su-  
lola.

zodagon Kaaper haykali yog'ochdan ishlangan, ko'zları qop-qora toshlardan inskrustatsiya qilingan. Og'ir jussali, vazmin bu zodagonning hassaga tayanib, oldinga borishi ham ni-hoyatda jonli chiqqan.

Maqbaralarda oilaviy haykallar ham keng uchraydi. Raxotep va uning qaylig'i Nofret haykali shunday yodgorliklardandir. Misr haykaltaroshligi prinsiplarida ishlangan bu kompozitsiya ham tulaqonliligi va

hayotiyligi bilan tomoshabinni hayajonlantiradi. Fir'avn va zodagonlar qabrlariga xizmatkorlar haykallari ham ko'plab qo'yilgan. Bu haykallar hajm jihatdan katta emas, ishlanish jihatdan esa erkin. Ular mehnat paytida tasvirlangan. Bunday haykallar o'zining hayotiyligi bilan rasmiy haykallardan ajralib turadi. Misr san'atida turli hayvonlarning haykali ham jonli ishlangan. Ayniqsa muqaddas hisoblangan mushuk, lochin, buqa haykallari jonli chiqqan. Qadimgi podsholikda maqbara va ibodatxonalarining ajralmas qismi bo'lgan relyef va devoriy suratlar ko'p hollarda yozuv singari yuzaga lentasimon frizi sifatida joylashtiriladi va iyeroglis yozuvlarga o'xshab ketadi. Ularda bir xil shakllar ko'p holda qaytarilib, uning ritmiklik xususiyatini orttiradi. Relyef va devoriy suratlarining yana bir xususiyati, bu fir'avn va oddiy kishilarni tasvirlashda turli mashtabning olinishidir. Odatda, fir'avnlar boshqalarga nisbatan katta, uning yaqin odamlari kichikroq, qolganlar yana ham kichikroq qilib tasvirlanadi. Odam tasvirini ishlashda bosh yon tomonidan, ko'z esa oldinga qaragan, gavda, yelka old tomonidan, oyoqlar esa yon tomonidan tasvirlanadi.

Ilk podsholik davrida rivojlanib, Narmer plitasida o'z ifodasini topgan bu xususiyat keyingi davr san'ati uslubining xarakterli tomonini belgiladi. Relyef va devoriy rassomlik uchun tabiiy mineral bo'yoqlar ishlatilgan. Bu yaratilgan asarlarning dekorativ tomonini belgilashda muhim

o'rinni egallagan. Odamlarning qizg'ish-jigarrang va och-sarg'ish oxdagagi gavdalari, qora soch, oq kiyimlari ko'pincha moviy osmon rangidagi fonda alohida ko'rinish kashf etgan. O'rta podsholik davrida sir'avn haykallarini ibodatxonalarga xudolar haykallari bilan birga qo'yish odat tusiga kira boshladi. Ishlangan haykallarda odamning yoshi, ichki ruhiy dunyosini ochishga intilish paydo bo'ldi. Shu o'rinda sir'avn Senusert III ning boshi haykali xarakterli. Yoshi o'ta boshlagan, hayot mashaqqatlaridan charchagan, lekin qattiqqo'l fir'avn xarakteri yaqqol ko'rsatilgan. O'rta podsholik davrida relyef va devoriy suratlar mavzusi kengaydi, xalq hayotiga bag'ishlangan sujetlar keng o'rin egallay boshladi. Ishlash texnikasida ham birmuncha erkinlik ortdi. San'at realizmi kuchaydi. Devoriy suratlar maqbara va ibodatxonalar devorida relyef bilan bir qatorda, muhim o'rinni egalladi. Unda ifoda vositalarining emotsiyal kuchi ortdi. Shu o'rinda Fivadagi Antefokar maqbarasiga ishlangan «Musiqachilar», «Yer haydash» deb nomlangan devoriy suratlar diqqatga sazovordir.


Beni-Xasandagi Xnumxotep II maqbarasiga ishlangan ov manzarasini aks ettiruvchi devoriy surat o'zining yuksak mahorat bilan ishlanishi, nozik rang tovlanishi, ifodali kompozitsiyasi bilan o'rta podsholik rassomligining eng yaxshi asarlaridan biridir. Kompozitsiyadagi sakrashga tayyor turgan yovvoyi mushuk, daraxtdagi turli sayroqi qushlar tasviri juda jonli chiqqan. Beni-Xasandagi bu maqbara devoriy suratlarida rassomning voqelikni tasvirlashda buyumlarning hajmiga, fakturasini ko'rsatishga harakat qilish hollari seziladi. To'qdan och rangga o'tib borayotgan tuslanishlar ko'rsatiladi. Bu xususiyat keyingi podsholiklar davrida yanada rivojlandi. Rassomlikda yangi mavzular ham keng o'rinni egallay boshladi. Rassomlar har bir obraz xatti-harakatining tabiiy va go'zal bo'lishiga e'tibor bera boshladilar. Mayda plastikada janqli kompozitsiyalar yaratish, odamlarni harakatda ko'rsatish hollari, oddiy kishilar mehnatini tasvirlash bu davrda keng rivojlandi. Qadimgi Misr realistik san'atining eng gullagan davri yangi podsholikka to'g'ri keladi. Rassom va haykaltaroshlar zodagonlar hayotiga bag'ishlangan serjilo devoriy suratlar, nafis relyef va haykaltaroshlik asarlari yaratdilar. Ular asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan kanonlardan chetga chiqib, hayotiy kompozitsiyalar yaratdilar, asarlarning plastik, emotsiyal tomonlariga e'tiborni qaratdilar, rang palitralarini kengaytirdilar. Yangi podsholik davri san'atidagi bu xislatlar islohotchi sir'avn Exnaton davrida o'zining eng rivojlangan davrini boshidan kechirdi. Amarna san'ati deb nom olgan Exnaton asri (er. av. XV—XIV asrlar) Misr madaniyati tarixida qisqa bo'lsa ham, lekin u avvalgi san'atning yaxshi tomonlarini o'ziga singdirib, o'z navbatida, uni yangi pog'onaga ko'tardi. Misr san'atining keyingi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatdi. Shu davrda yaratilgan sir'avn Exnaton va uning oilasiga bag'ishlangan haykal va relyeflar ayniqsa jonli chiqqan. Misr san'atida realistik




1. *Nefertiti*. 2. *Malika Meritaton boshi haykali*. XVIII sulola. Mil. av. XIV asr I yarmi. Berlin. Davlat muzeyi.

asarlar yaratishga intilgan haykaltarosh Tutmesning Nefertiti, Exnaton va uning qizlari Meritaton va boshqa haykallarining yuksak mahorat bilan ishlanishi hamon kishilarda estetik zavq baxsh etmoqda.

Amaliy-dekorativ san'ati borasida ham misriklar ajoyib namunalar yaratib qoldirdilar. Alebastr va toshlardan yasalgan ajoyib ko'zalar, inkrustatsiya uslubida oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan bezak buyumlar, nodir daraxt yog'ochlaridan yasalib, oltin va fil suyagi bilan bezatilgan mebellar qadimgi podsholik davridayoq yuksaklikka erishdi. O'rta va yangi podsholik davrida esa u yanada nafislanib bordi. Pardoz buyumlari, turli qutichalar nozik did bilan bajarilgan.



1. *Taqinchoq*. 2. *Ko'krak bezagi*. Shoqol boshli xudo Anubisning o'lgan kishi jonini tarozida o'chayotgani tasvirlangan. Misrning «O'lifiklar kitobi»dan, papirus.



1. Tutanxamon tobut niqobi. 2. Tutanxamon tobuti.

Tutanxamon maqbarasidan topilgan zirak, marjon, quticha va mebellar nozik did bilan inkrustatsiya qilingan. Ular fil suyagi, qimmatba ho yog'och bo'laklaridan qadab inkrustatsiya ishlangan (masalan, quticha ni ishlash uchun 20 mingdan ortiq shunday fil suyagi va qimmatbahoyog'och bo'lagi ishlataligan).



Yig'ichilar. Memfisdagi bo'rimta tasvir. O'likning mumiyosiga yig'layotgan beva.  
Nebamon va ilpuklar maqbarasidaqiz tasvir.

Milly Razkomlik  
va Dizayn Institutti

AXBOROT RESURS

26684

AXBOROT RESURS  
RESPUBLIQASI  
REPUBLIC OF AZERBAIJAN

AXBOROT RESURS

MABRIZI

173/3756

Tutanxamon taxi relyefi ham o'z jozibasi bilan xotirada qoladi. Eramizning I minginchi yillardan boshlab, Misr yerlarining parchalanishi san'at taraqqiyotini birmuncha susaytirdi. Misr ijtimoiy hayotidagi jonlanish eramizdan avvalgi VII asrlarda boshlandi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. Eramizdan avvalgi VI asrlarda eronliklar, so'ngra eramizdan avvalgi IV asrda Aleksandr Makedonskiy tomonidan Misr yerlarining bosib olinishi uning o'ziga xos san'atida asta-sekin so'nish va Ellin dunyosi san'ati bilan qo'shilib ketishga sabab bo'ldi.

Misr san'ati umumjahon san'ati taraqqiyoti fonida alohida o'ziga xos qaytarilmas o'rinni egallaydi. Qadimgi Misrning yuksak did va aql-zakovat bilan bajarilgan nodir san'at namunalari esa insoniyat badiiy maktabining ajoyib durdonasi hisoblanadi. Bu namunalar o'zidan keyingi jahon san'ati taraqqiyoti uchun taqlid maktabini o'tadi. Finikiya, Gretsya, Rim xalqlari bu san'atdan bahramand bo'lib, uni har tomonlama o'rgandilar, davrga mos asarlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

## Old Osiyo san'ati

Dajla va Frot (Tigr va Yefrat) daryolari vohasida, O'rta Yer dengizi havzasining sharqiy qismi sohillari hamda Kichik Osyonning markaziy tog'li rayonlari hududida eramizdan avvalgi 5000–4000-yillardan mil. av. 539-yilgacha Shumer, Akkad, Ossuriya, Urartu, Babil kabi qator davlatlar mavjud bo'lib, ular jahon san'ati tarixiga o'z hissalarini qo'shishgan. Bu davlatlarning so'nggisi Bobil (Vaviloniya) eramizdan avvalgi 539-yili Eron tomonidan tobe qilib olinadi va shu bilan Old Osyonning qadimiy tarixi tugallanadi. Old Osyonning badiiy-tarixiy yodgorliklari Misr san'ati singari keng va rang-barang. Bu yerda ham hashamatli saroy va ibodatxonalar qurildi. Dumaloq haykaltaroshlik va relyefda ajoyib, o'ta dinamik, plastik go'zal asarlar yaratildi, devoriy suratlar, nozik amaliy-dekorativ buyumlar ishlandi. Lekin bu yodgorliklar bizgacha kam yetib kelgan. Bunga sabab Old Osyonning asosiy qismini tashkil etgan Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya)da bir-birini almashтирib turgan yangi-yangi davlatlar o'rтasida mamlakatga hukmronlik qilish uchun doimiy kurash borgan bo'lsa, ikkinchi tomonдан, me'morlik va tasviriy san'atning turlarini rivojlantirish uchun tosh, yog'och va metallarning yetarli bo'limganidan yoki kam ishlatilganligidan, deyish mumkin. Saqlanib qolgan yodgorliklar, ularning qoldiqlari Old Osyoda eramizdan avvalgi 3000-yillardayoq bu yerda o'ziga xos yuksak madaniyat bo'lganligi va rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu yerda piktografik yozuv paydo bo'ldi, me'morlik tiplari yuzaga keldi, hunarmandchilik rivoj topdi, zargarlik, toshtaroshlik borasida nodir asarlar yaratildi.

## **Qadimgi Mesopotamiya san'ati**

Tigr va Yevfrat daryolarining o'rta va quyi oqimida qadim paytlardan mavjud bo'lgan mamlakatni greklar ikki daryo oralig'idagi davlat, gerekcha Mesopotamiya deb nomlashgan. Hozirgi kunda bu yerlarda Iroq davlati joylashgan. Ikki daryo oralig'idagi yerlarning tabiiy sharoiti, yashash uchun qulayligi bu yerlarda odamlar jamoasining juda erta shakllanishini va ilk shahar madaniyatining paydo bo'lishini ta'minlagan. Mil av. VII-VI ming yilliklarda o'rta va quyi oqimda yashash manzillar bo'yicha dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandlik madaniyati rivoj topdi. Savdo-sotiq ishlari yo'lga qo'yildi. Mil. av. V-IV ming yilliklarda esa sug'orish dehqonchiligi kengayib yangi yerkarni o'zlashtirish quloch yoygan. Ayni shu davrda hunarmandchilik va dehqonchilik bir-biridan ajralit chiqqan. Kulolchilik, zargarlik, toshtaroshlik shu ajralishda alohida o'rinni egallagan. Mil. av. IV ming yilliklar o'talaridan odamlar yashaydigan manzillarda shahar madaniyati rivojlanib, shahar-davlatlar paydo bo'la boshlagan. Ular mudofaa qo'rg'onlari bilan o'ralib mustahkamlangan. Har bir shunday davlatning o'z boshqaruv apparati bo'lgan. Hukmdori va kohinlar jamoani boshqaruvchi asosiy kuch hisoblangan. Asta-sekin shu shahar-davlatlar birlashtirilib, dastlab Shumer podsholigi, keyinroq esa Akkad podsholigi tashkil topgan. Akkad podsholigi kuch-quvvatiga to'lgan paytlarda Suriya, Falastin yerlari ham davlat tarkibiga qo'shib olinib, qo'shnlari O'rta Yer dengizi qirg'oqlariga chiqdi.

Mesopotamiya san'atida ham monumental me'morlik yetakchi o'rinni egallagan, san'atning boshqa turlari u bilan bog'liq holda rivojlangan. Mesopotamiya me'morligining o'ziga xos xarakterli tomonlari mil. av. IV ming yilliklarda shumer madaniyati shakllangan paytlarda



*El Ubayd darvoza tepasiga ishlangan bo'rtma tasvir. (mil. av. 3000-yillar)*

yuzaga keldi. Shu madaniyatning muhim markazlaridan bo'lgan Lagash shahrida olib borilgan arxeologik ishlardan shumer san'atining ko'plab namunalari topilgan. Jumladan, shumeriyarning mixxatida yozilgan sopol buyumlari shu davr san'atini o'rganishda muhim o'rinni egallagan. Mesopotamiyaning janubiy tomonida qadim paytlarda odamlar yashaydigan yirik manzillar markazida baland sun'iy yoki tabiiy tepaliklar ustiga qurilgan mahobatli saroylar markaz vazifasini o'tay boshlagan. Ular, asosan, xom g'ishtidan ishlangan, devor yuzasi pishiq g'isht, parchin va qisman toshlar bilan qoplab pardozlangan. Binoning tashqi devoni tokchalar va yarim ustunsimon vertikal hajmlar bilan ajratilgan. Bu hajmlar bino devorlari mustahkamligini oshirish bilan birga unda yorug'-soya o'yinini kuchaytirib, uning tantanavor ko'rinishishini ta'minlagan. Bu xususda *El Ubayddagi saroy* (er. av. 3000-yillar) e'tiborli. Sun'iy tepalik ustiga qurilgan saroya zinalar bilan chiqilgan. Saroyni bezash ishlardida relyef (barelyef, gorelyef) keng qo'llanilgan. Ular yog'och va toshdan ishlangan, yuzasi esa yupqa mis plastinkalar bilan qoplangan, ko'zlar esa inkrustatsiya qilingan. Bezashda ishlatilgan bo'rtma tasvirlar mavzusi rang-barang. Ularda hayotiy va ramziy mazmundagi voqealar tasviri ishlangan. Ishlash uslubida reallik va shartlilik uyg'unlashib ketgan. Saroyning kirish darvozasiga alohida ishlov-bezak berilgan. Darvoza tepasida sher boshli burgut ikki tomonidagi kiyiklarni panjalari bilan bosib turgan holati gorelyefi ishlangan.

Darvozaning yonlarida esa ikki sher haykali o'matilgan bo'lgan. Saroyning ichki qismidagi devorlarda frizlar bo'lib unda turli voqealar bo'rtma tasvirda ko'rsatilgan. Masalan, sigir va buzoqlar podasi, sutdan yog' olish va h. k.

Devorining ichki va tashqi tomonidagi yarim ustunsimon hajmlar uning mustahkamligini oshirishga xizmat qilgan. Mesopotamiya me'morchiligining yana bir o'ziga xos xususiyati, ibodatxonalar oldiga qurilgan minora – zikkurat hisoblanadi. Bunday minora – zikkuratlar 3,5 yoki 7 qavatli bo'lib, ular tepaga kichrayib boruvchi supachalardan tashkil topgan. Bu supachalar zinalar bilan bog'langan. Zikkuratning eng yuqori qismida xona bo'lib, u yerda oltindan yasalgan stol bo'lgan. Afsonalarga ko'ra, xudo o'z kohinlari bilan shu stol atrofida gaplashgan.

Mesopotamiya haykaltaroshligi va mayda plastikasi birmuncha mo'l. Ular misrliklar haykaltaroshligiga nisbatan birmuncha sodda, primitiv bo'lsa ham, lekin o'zining ifodalisi ishlanganligi bilan esda qoladi. Haykallar ko'p hollarda yorqin bo'yoq bilan bo'yalgan bo'lib, inkrustatsiya uslubida ishlangan haykallarni eslatadi.

Monumental haykaltaroshlik asarlarida har bir tasvirlanuvchining individual xususiyatlarini ochib berishga, ichki dunyosini yaratishga intilish sezildi. Ur shahridan topilgan ma'buda (ayol) boshi haykali e'tiborga


loyiq. Haykal ale-bastrda ishlaniib, o'z vaqtida yuzasi plastinka bilan qoplanib, ko'zlarini inkrustatsiya qilingan bo'lgan.

Amaliy bezak san'atida kulolchilik idishlari e'tiborga loyiq. Ular nafaqat

o'lchamlarining nafis topilgani, balki uning yuzasiga ishlangan tasvirning uslublashtirilgan ko'rinishi bilan ham davr san'atining yuksaklikka erishganligini namoyish etadi.

Zargarlik san'atida Mesopotamiya ustalari yuksaklikka erishdilar, oltin, kumush va boshqa qimmatbaho madan va toshlardan inkrustatsiya uslubida turli buyumlar bajarganlar. Mil. av. 3000-yillikning boshlarida o'tgan podsho Maskalamdug va malika Shubad (Puabi)ning maqbaralaridan (Ur shahri yonida) topilgan oltin, kumush, lojuvard bilan bezatilgan

zargarlik buyumlari, zeb-u ziynatlar, idish tovoqlar, qurol-aslahalar davr madaniyati va san'atining yuksak bo'lganligidan dalolat bera-di. Jumladan, shu yerdan topilgan cholg'u asbobi bo'lgan arfa badiiy konstruktiv yechimi e'tiborga loyiq. Oltin, kumush, lojuvard bilan bezatilgan hamda oltindan yasalgan ho'kiz boshi o'rnatilgan cholg'u asbobi



Sargon qadimiy portreti.  
Neolit. Er. av. XXIII asr.  
Bag'dod. Iraq muzeyi.

*Ibodat qilayorgan  
hukmdor haykali*

ijodkorning boy fantaziysi va yuksak estetik qarashlaridan dalolat beradi

Maqbaralardan topilgan eshkakli qayiqchaning kumushdan ishlangan modeli, naqshlar bilan bezatilgan shashka taxtachasi, shuningdek, kumushdan yasalib turli bezaklar berilgan uy-anjom va qurollar, boshga kiyadigan shlem va b. ham shu davrning yuksak madaniyatni namunasidir.

Tasviriy san'atda tarixiy voqealar ni aks ettiruvchi murakkab kompozitsiyalar ishlanganligini isbotlovchi dalil Ur shahridan topilgan bayroq bo'lib, uning yuzasiga jang voqealarini aks ettiruvchi tasvirlar ko'rsatilgan.

Akkad podsholigi. Er. av. XXIV-XXII asrlarda Old Osiyo yerlari yagona davlatga birlashtirildi. Bu davlat asoschisi Sargon I edi. U Akkadni shu davlat poytaxti qilib belgiladi, davlatning nomi ham shu nom bilan tarixga kirdi. Sargon I 55 yil mobaynida shu davlatni boshqardi. Shu davrdan bu yerlarda katta qurilish ishlari olib borildi, tasviriy va amaliy san'at jonlandi, u shumerliklar davri san'ati an'analarini davom ettirib

yangi qirralar bilan boyitdi. Bu rivoj Sargon I davomchilari, ayniqsa podsho Naramsin davrida yanada rivojlanib o'zining gullagan davrini boshidan kechirdi. Mil. av. 2236–2200-yillarda yashab davlatni boshqargan bu hukmdor o'zini «dunyoning to'rt tomonining podshosi» deb e'lon qildi, o'zini esa xudo darajasida ko'rdi. Shu davrda me'morlikda hashamatli saroylar qurildi, tasviriy san'at rivojlanib unda realizm ortdi. Ayni shu davrda Shumer dostoni Gilgamish afsonasi shakllandi. Akkad davridan saqlanib qolgan hay-



*Kohin haykalchasi*

kal va relyeflar hayotiyligi bilan xarakterlanadi. Ularda proporsiyalar to'g'ri, xatti-harakatlar tabiiy, detallar aniq va dekorativ planda ishlangan. Shu o'rinda Sargon qadimiy haykali, Semit portreti diqqatga sazovordir.

Bu davrda stela o'matish keng o'rinni egallagan. Bular ichida Naramsin stelasi mashhur. Mil. av. 2300-yillarda yaratilgan bu yodgorlik bugungi kunda Parijdag'i Luvr muzeyida saqlanadi. Stela podsho Naramsining tog'li qabilalar ustidan erishgan g'alabasiga bag'ishlangan. Bir to'da jangchilarga bosh bo'lib ketayotgan Naramsin va jangchilar harakati tabiiy chiqqan, tog' manzarasi, tabiat ko'rinishi ham relief kompozitsiyasi hayotiyligini oshiradi.

Relyeflarda esa tarixiy voqealar, jang yurishlari ishlangan. Bu yerda dumaloq haykaltaroshlik va gliptika keng tarqalgan.

**Bobil (Vavilon).** Mesopotamiyaning yangi bosqichi Hammurapi davriga to'g'ri keladi. Mil. av. II ming yillikda Mesopotamiyada hukmronlik qilgan Hammurapi (1792–1750-yillar) davrida Bobil (Vavilon) shahri davlatning ham siyosiy, ham madaniy markaziga aylandi. Mesopotamiya o'zining rivojining yangi bosqichini boshidan kechirdi. Hammurapi ustalik va ayyorlik bilan Mesopotamiya yerlaridagi mayda davlatlarni bosib olib, yaxlit Bobil davlatini yaratishga tuyassar bo'ldi. Ayni shu davrda Mesopotamiyaning shimalida Tigr daryosining o'rta oqimida boshqa bir davlat Ossuriya rivojlana boshladidi. Kuch-qudratga to'lgan paytda esa u Misr, Falastin, Suriya, Finikiya, Urartu, Babil va Elam yerlarini o'ziga qaratib, qudratli quzdorlik davlatiga aylandi. Hammurapi qonunlarining matni o'yib ishlangan tosh taxta va uning yuqori qismidagi Hammurapining quyosh xudosi Shamash oldida turgan payti tasvirlangan stela ham davrning nodir yodgorliklardan hisoblanadi. Unda har ikki obrazning ham kiyimi, sochlari, xarakteri aniq ko'rsatilgan. Ham-



Hammurapining quyosh xudosi Shamash oldida turgan payti. Diorit.



*Ibodat qilayotgan kishi  
haykali. Er. av. XVIII asr.  
Parij. Luvr.*

murapi ozg'in, ko'zlarini ichiga tushib ketgan holda o'ziga juda o'xshatib ishlangan. Ibodat qilib turgan kishi portreti ham yaxlit formalarda ishlangan bo'lishiga qaramay, jonli chiqqan. «Ibodat qilayotgan hukmdor haykali» (So'za)

o'zining yaxlit badiiy yechimi, shakllarning ifodaligi hamda tasvirlanuvchining ibodat paytidagi yig'inchoq holati mohirona tasvirlangan.

**Ossuriya.** Dajla daryosining yuqori oqimida joylashgan Ossuriya eramizdan avvalgi I ming yillikda Old Osiyodagi yirik quidorlik davlatiga aylangan. Mil. avvalgi VII asrda u o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirgan. Shu davrda uning yerlarida hashamatli saroy, ibodatxonalar vujudga keldi, suronli janglar, ov manzaralarini ifodalovchi hayajonli bo'rtma tasvirlar yaratildi. Hozirgi Xorsobodda saqlanib qolgan Dur-Sharruken saroyi xarobalari shu davr monumental me'morchiliginining muhim yodgorligidir. Uning xarobalarda yetib kelgan qismi ham shu davr mahobatli qurilishidan dalolat beradi.

*Dur-Sharruken (hozirgi Xorsobod)dagi Sargon II saroyi.*

Saroy balandligi 14 m bo'lgan sun'iy tepalikka qurilgan, atrofi esa qalin devor bilan o'rалган. Saroy mehmonxona, yotoqxona va diniy marosimlarga mo'ljallangan xonalardan iborat bo'lib, ular alohida ochiq hovli atrofida joylashtirilgan. Saroyga kiraverish darvozalarining ikki yon tomoniga esa qanotli,



odam boshli qo'tos — shedu o'matilgan.

*Shedu. Er. av. 712–707-yillar. London. Britaniya muzeysi.*

Bu haykalga yon tomonidan qaralganida yurib borayotganga o'xhash, old tomonidan qaralganda to'xtab turgandek qilib ishlangan. Bu haykal tabiiy kuchlar ramzi bo'lib, podshoni yomon ko'zdan saqlashda xizmat qilgan. Saroyning tashqi devori va ichki xonalari devoriy surat va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Masalan, saroyning tashqi devorlarida taxmonsifat joylar qoldirilgan bo'lib, u yerga haykallar o'rnatilgan bo'lgan. Shunday haykallar ichida Gilgamishning sherni xuddi mushukni ushlab qo'lting'iga olib ko'tarib ketayotganga o'xhatib ishlangan haykali karakterli. Bu tasvirlarda podshoning harbiy yurishlari hamda afsonaviy qahramon Gilgamish qahramonliklari ifodalananadi.



*Dur-Sharrukin (hozirgi Xorso-bod)dagи Sargon II saroyi devoriga ishlangan bo'rtma tasvir parchasi (er. av. VIII asming ikkinchi yarmi).*

Ossuriya saroyi devorlariga ishlangan bo'rtma tasvirlar jahon san'atining nozik durdonalaridan hisoblanadi. Ularda harbiy yurishlar, podsholarning sher ovlashlari o'ta harakatli



qilib ishlangan. Kalxudagi Ashshurnasirpal II (er. av. 883–859-yillar), Nanevidagi Ashshurbanapal (er. av. 669–635-yy.) saroylari bo'rtma tasvirlari shu o'rinda mashhurdir. Ov manzarasini aks ettiruvchi bo'rtma tasvirlar juda yuksak mahorat bilan ishlangan. Relyef kompozitsiyasi o'ta dinamik bo'lib, chopayotgan va yaralangan sherlar haykallari (masalan, yaralangan sher bo'rtma tasviri) jonli tasvirlangandir. Bo'rtma tasvirlarda shartlilik kuchli, lekin bu hol ko'zga tashlanmaydi. Masalan, odam va hayvonlar tasviri yon tomondan ishlangan bo'lishiga qaramay, voqealar hayotiy ko'ninishga ega. Haykaltarosh hayvonlar tasvirinini, ayniqsa, mahorat bilan ko'rsata olgan. Masalan, yaralangan sher tasvirida unda qudratning so'nib borayotgani, lekin shunga qaramay na'ra tortib oldinga intilayotgani juda ta'sirli ishlangan.

*Sher ovi. Mil. av. 883–859-yillar. London. muzeysi. Britaniya. Ashshurbanapal saroyi devoriga ishlangan bo'rtma tasvir.*



Eramizdan avvalgi 612-yili Ossuriya Bobil va Midya podsholigi yurishlari tufayli o'z umrini tugatdi. Lekin uning sultanati qadimgi dunyo xalqlari san'ati rivojiga katta ta'sir qildi.

**Yangi Bobil.** Eramizdan avvalgi VII asr oxiriga kelib, Bobil rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildi. Navuxodonosor II (mil. av. 605–562-yillar) davrida Bobil

(Vavilon) o'zining so'nggi rivojlanish bosqichini boshidan kechirdi. Bobil qaytadan kuch-qudratga to'lib, uning shaharlari va poytaxti Bobil gullariga o'raldi. Obodonchilik va qurilish ishlari amalga oshirildi. Afsnaviy bog'lar-u osmono'par minoralar yuzaga keldi. Ular haqidagi afsonalar esa hamon dillarda doston. Navuxodonosor II podsholik qilgan yillar Bobilda shahar qurilish ishlari avj oldirib yuborildi, shahar qurilishi aniq loyiha asosida tiklanib, yangi binolar qurildi, atrofi qalin devor bilan o'rab chiqildi. Shaharning sakkiz darvozasi bo'lib, ular ichi-



*Sher bilan olishayotgan podsho.  
Ahshurbanapal saroyi devoriga ishlangan  
bo'rtma tasvir (er. av. 669–635 yy.).*



*Bo'rtma tasvir.*

da Ashshurdagi Ishtar darvozasi o'zining ko'rkam va serhashamligi bilan ajralib turar edi. Darvoza devorlari koshinlar bilan pardozlangan. Ko'k zamida (fonda) oq va sariq rangli afsnaviy hayvonlarning yurib borayotganining bo'rtma tasviri ishlangan. Shu darvozadan shaharning bosh ibodatxonasiga boradigan yo'l boshlanar edi. Darvozadan tashqarida

ma'bud Marduk haykali o'rnatilgan bo'lgan. Bosh ibodatxona yoni-da esa katta Bobil mi-norasi qurilgan edi. Uning balandligi 90m., asosi ham 90x90m bo'lgan.

Navuxodonosor II saroyi ham serhasham, bezakka boy bo'lib, osma bog'lar qo'yinda ertaknamo ko'rinish kashf etgan edi.

*Ishtar darvozasi. Mil. av. VI asr. Berlin muzeyi.*



**Amaliy bezak san'ati.** Mesopotamiyada amaliy bezak san'ati ham yuksaklikka erishdi. Zargarlik, toshtaroshlik borasida nodir asarlar yarat-dilar. Turli nodir madanlar bilan qadama buyumlar yasash borasida san'atkorlar katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Bobil san'ati uzoqqa cho'zilmadi. Navuxodonosor II vafotidan keyin ichki nizolar mamlakat qudratini susaytira boshladi. Bobil davlatining sharqida rivojlanib ke-layotgan Eron davlati bu imkoniyatdan foydalaniib uni tor-mor etishga muyassar bo'ldi. Mil. av. 539-yili Eron podshohi Kir II Bobil shahriga tantanali kirib keldi. Shu bilan Mesopotamiya tarixi ham o'z nihoyasiga yetdi. U ahamoniyalar davlati tarkibiga qo'shilib ketdi. Shu bilan Meso-potamiya xalqlari qadimiy san'ati tarixi o'z umrini tugatdi.

## MUSTAQIL O'QISH UCHUN

### Gilgamish afsonasi

Bobil adabiyotining eng ko'zga ko'rning asarlaridan biri mashhur «Gilgamish haqidagi doston» bo'lib, unda qahramon Gilgamish sarguzashtlari, uning hayratomuz qahramonliklari, afsonaviy hayvonlar bilan olib borgan jangi, do'sti Enkidu bilan hayot haqida xayol surishlari tasvirlanadi. Shu doston voqealari o'z davrida ko'plab tasviriy san'at, ayniqsa bo'rtma tasvirda o'z ifodasini topgan. Masalan, uning yovvoyi ho'kiz bilan bo'lgan kurashi, sher bilan qilgan jangini aks ettiruvchi bo'rtma tasvirlar shular jumlasidandir.

... Ma'buda Ishtar Gilgamishga oshiq bo'lib qolib, sevgi izhor etgan. Ammo dono va ehtiyyotkor Gilgamish, ma'buda Ishtarning sevgisini rad qilib, ilgarigi oshiqlarini qanchadan qancha kulfat va azoblarga duchor qilganligini ma'budaning yodiga solgan.

Gilgamishning rad javobini o'ziga haqorat bilgan Ishtar uning ustidan o'z otasi bo'lgan osmon bosh xudosi Anuga arz qilib, undan osmoniy bir ho'kiz bunyod qilishi so'ragan, go'yo bu ho'kiz o'jar va qaysar qahramonni halok qilishi lozim bo'lgan. Anu qizining iltimosini darhol ado etmagan va ancha vaqtgacha ikkilanib turgan. Biroq qizi qattiq turib, hadeb iltimos qilaverganidan keyin, Urukka bir bahaybat ho'kiz yuborgan, bu yerda ho'kiz bir necha yuz odamni nobud qilgan. Ammo, qahramon bu mudhish maxluqni o'ldirgan, botirning bu yangi qahramonligi ma'buda Ishtarning g'azabiga gazab qo'shgan. Ishtar Uruk devorlari tepasiga chiqib olib, duolar o'qib Gilgamish boshiga la'natlар yog'dirgan. Lekin jasoratli qahramon bu la'natlarni pisand qilmagan. U o'z odamlarini huzuriga chorlab, ularga boyagi ho'kizni olib kelib, o'z xudo homiyilarini sharafiga qurbanlik qilishi buyurgan.

### Qadimgi eron san'ati

Eronda miloddan avvalgi VI-V minginchi yillarda odamlar orasida tabaqalanish boshlangan va mil. avvalgi III mingyillikning boshlarida uning janubiy tomonlarida dastlabki davlat birlashmalari paydo bo'lgan. Keyinchalik bu davlatlar goh Shumer, goh Akkad davlatlari tarkibida, keyinroq esa Bobil tasarrufida yashagan. Mil avvalgi 549-yili esa yangi tashkil etilgan ahamoniylar davlatiga qo'shib yuborilgan. Qadim paytlarda Eronning shimoliy g'arbida tashkil topgan Midiya podsholigi, poytaxti Ekbatani ham keyinchalik uning tarkibiga kirib, yagona Eron davlatning ajralmas qismiga aylangan. Bu podsholikning asoschisi ahamoniylar sulolasidan chiqqan Kir II (Kayxusrav II) bo'lgan. U dastlab Eronning janubi-g'arbidagi tog'lik hududlardan birining hukmdori bo'lgan.

Eramizdan avvalgi VI asr o'rtaidan boshlab, o'z yerlarini kengaytireshga kirishib, dastlab Midiya podsholigi, Bobil, O'rta Yer dengizi havzasidagi qator yerlarni bosib olib, davlat chegarasini kengaytirgan. Uning davomchilari bu davlat chegaralarini yanada kengaytirganlar. Doro I yurishlari natijasida bu davlat chegarasi Orol dengizidan Hind okeanigacha, Kichik Osiyo va Misr yerlaridan Xitoy chegaralarigacha borib yetgan. Ahamoniylar davlati o'zining qisqa, lekin eng gullagan va kuchquvvatga to'lgan davrini eramizdan avvalgi V asr boshlarida kechirgan. Shu davrda Eron san'ati va madaniyati ham misli ko'rilmagan darajada ravnaq topdi. Shu davrda hashamatli saroylar, mustahkam maqbaralar yuzaga keldi. Oltin va qimmatbaho tosh-u injulardan nafis uy, ov va jang buyumlari, qurol-aslahalar ishlandi. Serjilo sopol idishlar yasaldi, qimmatbaho kimxob materiallar to'qildi. Haykaltaroshlik (ko'proq bo'rtma tasvir tarzida), devoriy suratlarning nafis yodgorliklari yuzaga keldi. Bizgacha shu davr san'at yodgorliklaridan juda kam miqyosda namunalar yetib kelgan, ayrimlari esa tasodifiy parchalarda saqlangan. Lekin, shu yodgorliklar ham hamon o'zlarining jozibasi, ishlanishdagi yuksak mazhorati bilan kishilarda katta taassurot qoldiradi.

*Doro I saroyining markaziy darvozasi. Persepol. Mil. av. V asr).*

**Me'morlik.** Ahamoniylar davri san'atida ham qadimgi dunyoning boshqa davlatlarda bo'lgani singari (masalan, Misr, Old Osiyo va h. k.), me'morchilik yetakchi o'rinni egalladi. Ahamoniylar davrida katta saroy qurilishi rivojlandi. Miloddan avvalgi VI asming 50-yillarida Pasargada, mil. av. 518-yili Persepol va mil. av. 521-yildan Suza barpo etildi. Bu davr saroylarining o'ziga xos tomonlari me'moriy majmuadagi apadana (shoh qabulxonasi) bo'lib, ular



kedr daraxti yog'och-jaridan tayyorlangan to'sinlar bilan tekis yopilgan. Ustunlarning tanligi (bazasi) qo'ng'iroq ko'rinishida, tepe qismi esa buqa, sher, grifon protomasi (bir-biriga orqa tomoni bilan yopishtililib ishlangan yarim jussalar) tarzidagi kapitel bilan tugallangan.

Binoning me'moriy bezagi ham e'tiborli. Bezag ishlarida rangli suvoq, to'sinlarning bo'rttirilgan qismlariga ishlangan turli hayvonlarning shakli oltin qoplamlar bilan pardozlangan. Saroy devorlarida sirlangan rangli bo'rtma tasvirlar ishlangan. Bu serhasham va mahobatli saroylarida davr ulug'vorligini aks ettirishga, hukmdorlarning kuch-qudratini kuylashga harakat qilaganlar. Bunday saroy qoldiqlari ahamoniylar davlatinnng turli paytdagi poytaxtlari Pasargada, Persepol va Suzada saqlanib qolgan. Persepoldagi saroy majmuasi tepalik ustiga qurilgan. Unga keng va ko'r kam qilib qurilgan zinapoyalar orqali chiqilgan. Saroya 17 metri to'rtta ustundan ishlangan propiley (darvoza) orqali o'tilgan. Darvoza yon tomonlarida esa qanotli muqaddas ho'kizlar haykali ishlangan. Saroydan chiqish tomonida ham muqaddas ho'kizlar haykali bo'lib, ular odam boshli bo'lgan. Zinapoya yon tomon va devor yuzalari bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan bo'lib, unda shohlar hayotidan olingen voqealar o'z ifodasini topgan. Bu suratlarda shohlar karomati va ulug'ligini ko'rsatishga harakat qilingan. Persipol saroy me'moriy majmuasida apadana (shoh qabulxonasi), omborxona, yashash va ishlash uchun mo'ljallangan xonalar bo'lgan. Ayniqsa, apadana tantanali, ko'r kam va go'zal bo'lgan. Uning maydoni katta bo'lib (62,5X62,6 m), uch tomonidan ikki qavatli ayvonlar bilan o'ralgan. Ayvon uchun yengil va nafis ustunlar ishlatilgan. Ularning balandligi 13,6 m bo'lgan. Ustunlarning kapitellari buqa bosh haykal bo'lib, uning yuzasi esa oltin plastinkalar bilan qoplangan. Saroy xona devorlari, zina ning yon tomonidagi yuzalarga bo'rtma tasvir (relyef)lar qizil, yashil, ko'k, sariq ranglar bilan bo'yab chiqilgan. Bo'rtma tasvirlarda shoh hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan mavzu yetakchi o'rinni egallaydi. Sa-



*Ohin gadah*

royga boradigan zinaning yon tomonida ishlangan bo'rtma tasvirlarda turli millat elchilarining shohga sovg'a-salom bilan kelishlari aks etirilgan.



*Persepoldagi saroy zinalarining yon tomoniga ishlangan bo'rtma tasvir.*

Bu tasvirda 33 millat va elat vakilari ko'rsatilgan. Ularning kiyimlari xarakteri, etnik tuzilishni aniq detallar bilan ko'rsatilgan. Doro I davrida Suzada katta qurilish ishlari boshlab yuborildi. Bu yerdagi saroy qurilishi uchun jahoning 12 mamlakatidan qurilish va padozlash materiallari, jumladan O'rta Osiyo (Xorazm va So'g'diyona)dan ham bu yerga lazurit va qimmatbaho toshlar keltirildi. Yu-

non va Misr, Liviya, Bobil ustalari bu qurilishda qatnashgan. Er. av. VI-IV asrlarda barpo etilgan bu me'morlik me'moriy majmua Persepol saroyi qurilishi prinsiplari asosida bunyod etilgan, lekin uning apadanasi juda hashamatli bo'lgan. 10 400 kv. m maydonni egallagan shoh saroyi uchun 20 metrli ustunlar ishlatilgan, ularning diametri 1,6 m bo'lgan. Keramikadan ishlangan panno ham xarakterli. Iliq va jarangdor, hovorang, sariq, yashil, oq, qora bo'yoqlar gammasida ishlangan bu panno saroyning tantanavor bo'lib ko'rinishida muhim o'rinn tutgan. Saroyning darvozalari ham pishiq ishlangan va ular yuzasi ham bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Pasargada saroyi, Naqshi Rustamdag'i (Persepol yaqinida) Eron shohlari maqbaralari ham bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Bu davrda diniy me'moriy majmular barpo etilgan. Zardushtiylik dini bilan bog'liq Persepol yaqinidagi Kabai zardusht yodgorligi, Pasargadagi Kir maqbarasi shular jumlasidandir. Kir maqbarasi zinasimon pastament ustiga qurilgan. Shakli to'rtburchak bo'lib tepe qismi ikki nishabli.

**Tasviriy san'at.** Qadimgi Eron rassomlik san'ati haqida gapirish qiyin, lekin haykaltaroshlik, ayniqsa, uning bo'rtma tasvir turidan yodgorliklar saqlanib qolgan. Bular dumaloq haykallar va relyeflardir. Ularda tarixiy voqealar, shoh va shahzodalar, turli hayvon va afsonaviy jonivorlar tasvirlari ishlangan.

*Shoh Kserks bosh hay-kali V asr.*

Bu bo'rtma tasvirlar shakl va chiziqlar o'yiniga, nur-soya boyligi bilan katta taas-surot qoldiradi. Bu tasvirlarda reallik va shart-lilik aralashib o'ziga xos latofat kashf etadi. Shu o'rinda zinasi tomonlariga ishlangan hay-vonlar olishuvi (Sher va buqa), saroyga chiqish zinalarining yon tomonlariga bo'rtma tasvirlar, taxtda o'tirgan shoh Artakserks I bo'rtma tasviri e'tiborga loyiq.



Jumladan, shoh zinasi yon tomoniga ishlangan bo'rtma tasvirda turli millat va elat vakillari ko'rsatilgan. Ularning kiyimlari xarakteri, etnik tuzilishi aniq detallar bilan ko'rsatilgan.

**Amaliy bezak san'ati.** Buyumlar yuzasiga bo'rtma tasvirlar ishslash, metallardan turli idishlar yasash borasida eronliklar mashhur bo'ldilar. Oltin va boshqa qimmatbaho metallardan yaratilgan uy-anjom buyumlari, qurol-aslahalar, ov qurollari nihoyatda nafis va jimjimador, tasvirlanga boy qilib ishlangan. Ahamoniylar davri yodgorliklari ichida silindrik muhrlar ham keng o'rinni egallagan. Muhr yuzasiga hayotiy voqealarni aks ettiruvchi tasvirlar tushirilgan.

Kulolchilik buyumlari shakl jihatdan rang-barang, geometrik naqshlar, hayotiy sujetlar bilan bezatilgan.

Eron san'atida parchinlar (mayolika) keng qo'llanildi. Ular eron me'morlik yodgorliklariga o'ziga xos qaytarilmas joziba kiritdi.

Ahamoniylar davlati qadimgi Sharqning so'nggi yirik davlatlaridan edi. U eramizdan avvalgi 331–330-yillarda Iskandar Zulqamayn (Aleksandr Makedonskiy) rahbarligidagi qo'shinlar tomonidan barbos etildi. Keyinchalik bu yirik Eron imperiyasi o'mida bir qancha ellistik davlatlar yuzaga keldi.

Ahamoniylar davrida vujudga kelgan san'at O'rta Sharq xalqlari tarixida muhim o'rinni egallaydi. Bu san'at bevosita O'rta Sharqda yashagan xalqlarning o'zaro yangi munosabati natijasida ravnaq topdi, atrof-

dagi xalqlar san'atidan ta'sirlandi. Bu davr san'ati rivojida o'zga xalqlarning ham sezilarli xizmatlari bor. Jumladan, Persepol va Suza saroylarini qurishda So'g'd, Baqtriya va Xorazmdan kelgan usta va san'atkorlar mehnat qilganliklari haqidagi ma'lumotlar mavjudligi shundan dalolat beradi. Shu bilan birga, ahamoniylar davri san'ati atrofидagi mamlakatlar san'atiga, jumladan, O'rta Osiyo san'ati taraqqiyotiga ham o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazgan.

## GREK-BAQTRIYA SAN'ATI

Makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) eramizdan avvalgi IV asrlarda Ahamoniylar davlatini tor-mor etib, O'rta Osiyo yerlarining ko'pgina qismini qattiq janglardan so'ng bo'ysundirishga erishi di. Aleksandr Makedonskiy bosib olgan yerlarda hamma xalqlarni birlashtirishga harakat qildi. Shu maqsadda, u o'z atrofiga greklar bilan birga mahalliy sharq zodagonlarini, boylarni ham jalb eta boshladi. O'zi ham shunga amal qilib, Baqtriya malikasi Roksanaga (Rakshonaga) uylandi. Savdo-sotiq ishlarini rivojlantirdi, shahar qurilishiga e'tibor berdi. Baqtriya, So'g'd va Parfiyada qator shaharlar barpo etdi. San'at rivojiga homiylik qildi. Lekin uning davlati uzoqqa cho'zilmadi. Vafotidan so'ng uning imperiyasi parchalanib, o'mida qator davlatlar yuzaga keldi. Makedonskiy imperiyasining sharqiy qismini uzoq vaqt uning sarkardalari idora qildi. O'rta Osyoning ellistik dunyoga tortilishi uning san'ati va madaniyatida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu o'zgarishlar me'morlik, amaliy va tasviriy san'at mazmuni va xarakterida namoyon bo'la boshladi.

O'rta Osyoning ellistik davrdagi me'morligi xarakteri uning janubiy rayonlarida seziladi. Bu davrda qurilgan binolar xarakterida ahamoniylar davri me'morligi uslublari bilan birga, grek san'ati an'analari mavjud. Ayniqsa, binolarning dekorativ bezalishida shu o'ziga xoslik ko'zga tashlanadi. Ustunlari grek klassik formasida ishlangan bo'lib, korinf kapitellari toshdan ishlangan tosh ustun va bazadan tashkil topgan. Saroy xonalari plyastrlar bilan bezatilgan. Saroy uchun bezak sifatida sher niqob, tommi bezab turuvchi palmetkali antifikslar ishlatilishi ham xarakterlidir. Lekin saroyni qurishda mahalliy material — xom g'isht, paxsa ishlatilgan, tomlari tekis qilib yopilgan. Tojikistonning janubida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida ham shu davrga oid me'morchilik yodgorligi kompleksi qoldiqlarida yuqorida ko'rib o'tilgan xususiyatlar o'z ifodasini topgan. Bunday o'zgarishlarni Makedonskiy bosib olgan yerlarda vujudga kelgan Grek-Baqtriya, Parfiya podsholiklari san'atida ham ko'rish mumkin. Eramizdan avvalgi 250-yillarda salavkiylar podsholigidan ajralib chiqqan Baqtriya, keyinroq Hindiston yerlarining katta qismini o'ziga qaratib olib, eramizdan avvalgi II asrgacha mavjud bo'ldi.

Bu davlatga greklar podsholik qilgani uchun uning nomi Grek-Baqtriya deb yuritildi. Shu podsholikda grek san'ati ta'siri yaqqol seziladi. Grek tarixchilari Grek-Baqtriyan ming shahari bor o'lka deb ta'riflashgan. Bu, so'zsiz, mamlakatda shahar qurilishi intensiv bo'lganligini bildiradi. Haqiqatan ham, bu davrda Grek-Baqtriya yerlarida mavjud shaharlar kengaytinildi, odamlar yashaydigan katta bo'lmanan aholi punktlari shaharga aylantirildi. Yangi shaharlar aniq to'rtburchak yoki kvadrat shaklida qurilib, atrofi qalin devor bilan o'rab chiqildi, to'rtburchaksimon minoralar buniyod etildi. Qurilgan binolarda senjilo korinf orderi keng qo'llanildi. Gretsya san'ati ta'siri shu davrda zarb etilgan tangalarda va ularga ishlangan bo'rtma tasvirlarda ham seziladi. Tangalar yuzasiga o'ng tomoniga qarab turgan podsholarning tasviri tushirilgan, orqa tomonida Gretsya afsonaviy qahramonlari tasviri va yozuv mavjud. Bu har ikki tomon tasvirida elliinlarning san'ati an'analari sezilarli. Bu tasvirlar, ayniqsa, podsholarning miniatur portretlari o'zining o'tkir realizmi bilan xarakterlanadi. Bu xususda podsho Dmitriy, Yevkradit portretlari alohida o'rinni egallaydi. Dmitriy portreti shu davr realistik portreti san'atining nodir yodgorligi hisoblanadi. Haykaltarosh bu portretda tasvirlanuvchining o'ziga xos individual qiyofasi va xarakterini ifodali aks ettira olishi bilan kishini hayratlantiradi. Amaliy san'atda ham Gretsya san'atiga taqlid qilish yoki Gretsya san'ati namunalardan foydalanish keng avj oldi. Mahalliy ustalar grek kulolchilik formalaridan o'z ijodlarida keng foydalandilar. Antik mifologiya va sharq afsonaviy qahramonlari uyg'unligida yangi tiplar yuzaga kela boshladi. Sharq va G'arbning yaqinlashuvini Grek-Baqtriya boshlab beradi, Parsiya davlati va san'atida rivoj topadi.

## PARFIYA SAN'ATI

Qadimgi dunyoning yirik davlatlaridan biri bu Parsiya davlatidir. Bu davlat qudratga to'lgan paytida O'rta Osiyoning janubiy tomonlari Yaqin va O'rta Sharqning katta qismini o'z ichiga olgan. Uning tashkil etilishida Xorazm cho'llaridan ko'chib o'tgan qabilalar o'mi katta bo'lgan. Bugungi Turkmanistonning janubiy tomonida joylashgan Nissa shahri uning dastlabki poytaxti sifatida mavjud bo'lgan. Markaziy Osiyo yerlarida salavkiylar davlatiga qarshi kurashda ko'chmanchi qabilalar hujumi muhim bo'ladi. Aka-uka Arshak va Tridatlar ko'chmanchi qabilalarga boshchilik qilib, Parsiyaga bostirib kiradilar. Parsiya podshosi



Nissadan topilgan marmar haykal.

ag'darib tashlangandan keyin Arshak tezlik bilan harakat qilib, atrofdagi mayda hokimliklarni o'ziga bo'ysundiradi va Baqtriya podshosi Diodot bilan ittifoq tuzib, o'zini podsho deb e'lon qiladi. Arshak yangi davlatning birinchi podshosi siyatida ish boshlaydi. Miloddan avvalgi 263-yili tashkil topgan bu podsholik Arshak (263–232) uring o'gli Artashas (mil. av. 232–206) davrida o'zining rivojlanish davrini o'taydi. Arshakiylardan Mitridat I va Mitridat II davrida bu davlat jahoning qudratli davlatlaridan biri bo'lib qoladi. Parfiya davlati o'zining kuchqudratiga erishgan yillarda Eron, Mesopotamiya va Midiya kabi davlatlarga yurish qilib, ularni o'z tarkibiga qo'shib oladi. Arshakiylar davlati – birinchi Parfiya podshosi Arshak nomi bilan kiritilib 200 yil mobaynida mavjud bo'ldi. Mil. av.

I asrlarga kelib uning kuchi susaya boshladi. Vorislari orasida taxt uchun kurashning kuchayishi, buning ustiga shimal tomondan ko'chmanchi qabilalarining bo'lib turgan hujumlarini podsholar olib borgan siyosatidan norozi bo'lgan xalq g'alayonlari shunga sabab bo'ldi. Arshakiylar so'nggi podshosi Vologezga norozilik kuchaygan yillarda taxt da'vogarlari orasida bo'lib o'tgan jang bu davlatni parchalanganligi va tarix sahifasidan chiqib ketishiga asos bo'lganligi tarixdan ma'lum. Parfiya podsholi-gi Turkmanistondan boshlanib Yaqin va O'rta Sharqdagi qudratli davlatga aylandi. Shuning uchun ham uning boshlanishi arshakiylar xondonida chiroq yoqqanligidan shu yerda maqbarasi ham o'z o'rinni topdi. Nissa yaqinidagi arshakiylar maqbarasining saqlanib qolganligi mana shundadir. Bu yerda XX asrda arxeologik ishlari olib borilishi natijasida ko'plab davr hujatlari turli hayotiy va madaniy buyumlar topilishi muhim bo'ldi. Marmar va oltindan ishlangan san'at asarlari, fil suyagidan yasalgan ajoyib qadahlar, ritonlar, saroylar bugun ham o'z go'zalligi bilan kishining ko'zini quvontiradi.



*Fil suyagidan yasalgan qadah.*

## KUSHON SAN'ATI

Kushon davlati taxminan, I asming boshlariga kelib, Grek-Baqtriya podsholigining parchalanishi natijasida vujudga kelgan. U turkiylardan bo'lgan Geray boshchiligidagi amalga oshirilgan. Geray o'zini Kushon deb hisoblar edi, shuning uchun tuzgan davlati Kushon davlati deb atalgan. Bu davlatga kushoniylardan bo'lgan hukmdor Kudzula Kadziz boshchilik qildi. Uning o'g'li Kadziz II esa bu davlat maydonini Hindiston yerlariga qadar yetkazdi. Kanishka podsholik qilgan yillarda esa Kushon davlati o'zining gullagan davrini boshidan kechirdi. Bu davlat deyarli 400 yil yashaydi.

**Geografik o'rni, chegarasi, poytaxti.** Bu davlatning asosiy yerlari dastlab O'rta Osiyoning janubiy tomonida bo'lgan. Kushon davlatining kengayishi podsho Kadziz I davridan boshlandi. U dastlab Baqtriyadagi 4 ta beklikni bosib oladi. So'ngra grek podsholarining noiblarini siqib chiqara boshlaydi va keyinchalik Kadziz I o'zini podsholar podshosi deb e'lon qiladi. Kanishka II podsholik qilgan davrda (319) Kushon davlati yanada qudratli bo'ldi. Kushon davlatining poytaxti dastlab Samarqand yaqinidagi Kushon deb taxmin qilinadi (ayrim ma'lumotlarda bugungi Surxondaryoning Termiz yaqinidagi Dalvarzintepada bo'lgan deb aytib o'tilgan). Keyinchalik Kanishka poytaxtini Hindistonga, hozirgi Peshavorga ko'chiradi. IV asr o'talaridan Kushon davlati inqirozga yuz tuta bordi. Yerlaming bir qismini Parfiya davlati bosib oladi, so'ngra Eronda shakllana boshlagan Sosoniylar davlati bu inqirozni tezlashtiradi. Sosoniylar Kushon davlatining katta qismini bosib oladilar. Uning qolgan qismlarida Kushon davlati V asrgacha mavjud bo'ldi. Keyin Eftalitlar, so'ngra turk xoqonligi yerlariga qo'shilib ketdi.

Kushonlar davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jonlanish ro'y berdi. Savdo-sotiq rivojlandi. O'rta Osiyoning savdo karvonlari Esiopiya, Misr, Rim, Vizantiya, Qadimgi Rus va Hindiston, Xitoy yerlarigacha borib yetadilar. Podsholar kumush va oltin tangachalar chiqarib, savdo ishtarini rivojlantiradilar. Arxeologlar Kushon pullarini Kiiev, Esiopiya, Rim, Skandikaviya yerlaridan topganliklari ham shundan dalolat beradi. Kushoniylar davrida buddizm davlat dini sisatida qabul qilindi. Kushon podshosi Kanishka shu dinni davlat diniga aylantirdi. Kushon hukmdorlari o'z sultanatlarini mustahkamlash uchun bu dindan foydalandilar. Uni omma orasiga singdirishga harakat qildilar. Buddizm dinining qabul qilinishi san'at va madaniyat xarakterida o'z ifodasini topdi. U bilan bog'liq me'moriy yodgorliklar, tasviri san'at asarlari paydo bo'ldi. Buddizm bilan bog'liq bo'lgan ibodatxonalar vujudga keldi, haykallar yaratildi, devoriy suratlar ishlandi. O'rta Osiyoda buddizmning tarqalishi bevosita haykaltaroshlikda Buddha, bodisatva va boshqa diniy personajlarning haykallari yaratilishiga olib keldi. Ular ibodatxonalarining oldi va ichkari qismidan o'z o'rmini egalladi. Bu haykallarning ishlanish prinsiplari Hindistonda yaratilgan kanonlarga asoslangan.

**Me'morlik.** Kushonlar davri me'morigida yangi an'analar rirojlandi. Saroylar, zardushtiylik va buddaviylik dirlari bilan bog'liq me'moriy majmualar yaratildi, fuqorolar turanjoylari murakkaablasha bordi, ularning estetik jihatlariga e'tibor ortdi. Shaharsozik borasida ishlar amalga oshirildi, yangi shaharlar paydo bo'ldi. Shahar hokimlari, boy zodagonlar va amaldorlar saroylar va uylarini hashamatli bo'lishiga e'tibor ortdi. Uning go'zal bo'lishi uchun haykal, turli naqsh va rasmlar bilan bezak beradilar. Kushoniylar davrida buddizm dini bilan bog'liq bo'lgan me'morlik kompozitsiyalari yuzaga keldi.

**Tasviriy va amaliy san'at.** Bu san'at yo'nalishlari bir qancha manbalardan baqtriya — so'g'd, ellinlashgan buddizm, g'arb tomonda sakparfiya, Xorazm va Old Osiyo san'ati an'analaridan asos oldi, rivojlandi va xarakteri jihatidan betaraf, o'ziga xos mustaqil san'at yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. Haykaltaroshlik xususiyati — grek va hind san'ati ta'siri mavjudligini e'tirof etish mumkin.

Noma'lum haykaltarosh tasvirlanuvchining soch tarashi, kiyim-boshi xarakterini ham aniq bo'lishiga, psixologik holatini ifodalashga intiladi. Kushoniylar davri tangalari avvalgi davrga nisbatan bo'sh, yuzlariga podsholarning portreti zarblangan orqa tomonda esa xudolar tasviri tushirilgan. Yozuvlar esa kushon, baqtriya tilida bo'lib, yozish uchun kushon harflari (grek alfoviti asosida yaratilgan) ishlataligan.

**Rangtasvir.** Bu davrda mahobatli rassomlik rivojlandi va saroy, ibodatxona, monastir va qasrlarni bezashda keng qo'llanildi. Rasmlar mavzusi bevosita binolar funksiyasiga qarab belgilandi. Jumladan ibodatxona va monastirlar devoriy rasmlarida diniy mavzu yetakchilik qilgani holda qasr va saroylar devorlarida dunyoviy voqealar yetakchilik qiladi. Albatta bu rasmlar bizgacha faqat parcha, bo'laklarda, shuningdek, qadimgi mualiflarning yozma manbalarida saqlanib qolgan. Lekin shularning o'zi shu davr mahobatli san'ati haqida fikr yuritishga asos beradi. Bu davrda boy zodagonlar va amaldorlar o'z saroylari va uylarini hashamatli bo'lishiga e'tibor berdi. Ularning xonalari devoriy surat, haykal, turli naqsh va rasmlar bilan bezak berilgan bo'lgan. Bu tasvirlarda Yevripid tragediyalaridan olingan sujetlar, Homer «Iliada»siga oid voqealarni ham uchratamiz. Jumladan, Ezop masaliga ishlangan — oltin tuxum haqidagi devoriy rasm ham xarakterli. Unda oltin tuxum tug'adigan tovuq va uning xasis egasi voqeasi aks ettiriladi. Idish yuzalariga ishlangan tasvirlarda Yevripid tragediyalaridan olingan sujetlar, Homer «Ileada»siga oid voqealar, Afina, Apollon, Nika, gul ushlab turuvchi haykallar va hokzolar jonlantirilgan.

Amaliy san'at namunalari ham diqqatga loyiqdir. Yangi asr boshlarida yaratilgan kulolchilik, zargarlik va metallardan buyumlar yasash (kumush, oltin va bronza) san'ati nafisligi bilan o'ziga tortadi. Ayniqsa,

metall buyumlar yasash va ularning yuzasini bo'rtma tasvirlar bilan bezash san'atida o'rta osiyolik ustalar katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. O'rta Osiyo qadimgi davri san'ati sovet davrida o'rganila boshlandi. Sovet arxeolog va san'atshunoslarining mehnati tufayli O'rta Osiyo xalqlari o'tmishining boy va serqirra ekanligi isbotlab berildi. Kushon davri amaliy san'atida yaratilgan kulolchilik, zargarlik va metallardan buyumlar yasash, kumush, oltin va bronza san'ati nafisligi bilan xarakterlanadi. Dalvar-zintepadan topilgan oltindan ishlangan turli taqinchoqlar, kumush buyumlar inkrustatsiya san'ati yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Kandakorlik (torevtika) nihoyatda rivojlandi. Bu san'at rivojida grek-rim uslubi keng muhim o'rinni egalladi. Bu san'at nafaqat ishlanish jihatidan, balki tasvirlar mavzusi jihatidan ham xarakterli. Metalda (oltin, kumush, mis, bronza) ishlangan har xil lagan, vaza, qalqon va xum yuzalari tasviriga antik dunyo hayoti va mifologiyasi asos qilib olindi. Bu ishlarning tasvilanishini tiplarga ajratsak, quyidagi holni ko'ramiz: antik mualliflarning asarlaridan olingan sujetlarga ishlangan tasvirlar; m. Yevripidning asarlaridagi Vakx' bayrami bilan bog'liq tasvirlar, Homer (Gomer) «Iliada» asaridagi voqealar, shuningdek, hayotiy voqealar jang manzaralari va h. k. o'rin olgan.

Kushonlar davrida ellen san'ati tasviri kuchli bo'lganligi an'analar davomidagina emas, balki grek tilining bu yerlarda keng yoyilishi, grek alfavitining keng iste'molda ishlatilishi ham ana shu tasvir doirasining kenglidigan dalolat beradi.

Kushon davlati ko'p millatli va ko'p dinli davlat edi. Uning hududida yashaydigan turli xalq va qabilalar o'z diniga va qarashlariga ega bo'lgan. So'zsiz, bu davr dinlari ichida zardushtiylik keng yoyilganligini e'tirof etish kerak. Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Marg'iyona yerlarda shu din bilan bog'liq ko'pgina yodgorliklarning topilishi ham shundan dalolat beradi. Lekin Kushon davri zardushtiylik dini hind va ellen dinlari ta'sirida yangilanish jarayonini boshidan kechirdi. Zardushtiylik bilan bog'liq odatlarda ham shunday o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, shu ikki ta'limot bilan bog'liq sopol idishlar – ossuariylar tiplari toraya bordi. Odam shaklidagi (ayol va erkak shaklidagi) ossuariylar II–III asrlardan boshlab kamayib ketdi va to'xtatildi.

### **Qadimgi hind san'ati**

Hindistonning shimoli-g'arbidagi hind daryosi havzasidan topilgan Moxenjo-Doro (Sind viloyati) va Harappa (Panjob)dan topilgan qadimgi shahar qoldiqlari, madaniyat yodgorliklari eramizdan avvalgi 3–2-minginchchi yillardayoq hind san'ati o'ziga xos, yorqin va jozibador, fantaziyaga boy san'at bo'lganligini tasdiqlaydi va mifologiya asosida qimatli san'at namunalarini yaratilganligini anglash imkoniyatini beradi.

Eramizgacha bo'lgan davrdan bir necha asr oldinroq, bu yerda matematika, tilshunoslik, falsafa, tibbiyot ravnaq topgan. Hunarmandchilik rivojlangan, yozuv paydo bo'lgan. Me'morlik, haykaltaroshlik va rassomlik san'ati bir-biri bilan uyg'unlashgan holda rivoj topgan. Eramizdan avvalgi bir minginchi yillarning ikkinchi yarmida bu yerda dastlabki sinifiy davlat paydo bo'lgan. Adabiy manbalarga ko'ra, shu davrlarda ajoyib, hashamatli yog'och me'morchiligi ravnaq topgan. Bular bizgacha saqlanmagan. Eramizdan avvalgi III asrdan yangi eraning VII asrigacha bo'lgan davrda esa, Hindiston Osiyodagi eng yuksak madaniyat o'chog'iga aylangan. Bu yerda paydo bo'lgan buddizmning Osiyodagi ko'pgina yershanga tarqalganligi ham shundan dalolat beradi. Hindiston san'ati ham qator taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Bu taraqqiyot jarayonida hind san'atiga goh shumer, goh grek san'atining ta'siri bo'lgan. Lekin shunga qaramay, uning san'atida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, u asosan, xalq san'ati, ayniqsa, hunarmandchilik ta'sirida bo'lgan. Qadimgi Moxenjo-Doro shahrining qoldiqlari bizgacha yaxshi saqlangan. U yirik shaharlardan biri bo'lib, ko'chalar va binolar pishiq g'ishtdan ishlangan. Ko'chalari to'g'ri bo'lib, ularning kengligi 10 metrغا yetgan. Ko'cha yoqasidagi uylar bir chiziqda joylashgan. Binolar 2–3 qavatli bo'lib, shaharga o'zgacha fayz kiritib tungan. Bino devorlari esa yaxshilab pardozlangan va suvalgan. Bu hol Hindistonda juda qadim paytlardanoq shahar qurish san'ati paydo bo'lganligidan, shaharlarni reja asosida qurishga e'tibor berilganligidan dalolat beradi. Shaharda katta jamoat binolari bo'lgan, hammom va kanalizatsiya ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Topilgan sopol buyumlarning yuzasi geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Turli xildagi loy va toshdan ishlangan haykal va haykalchalar, o'ymakorlik bilan bezatilgan turli uy-anjom, bezak va zargarlik buyumlari ham shu davr san'ati rivojidan dalolat beradi.

Moxenjo-Dorodan topilgan kohin boshi haykali (er. av. 3000-yil),



*Ma'buda haykali (er. av. 3000-yil)*

loydan ishlangan, aravaga qo'shilgan ho'kizlar haykali (er. av. 3000-yil), Harappadan topilgan erkak torsi (er. av. 3000-y.) o'zining plastik yechimi bilan diqqatni tortadi.

Jumladan, kohinning boshi haykalida soch-soqollar tasviri, kiyimlar xarakterida shartlilik mavjud bo'lsa, aksincha, qizil toshdan ishlangan erkak torsi yuksak mahorat bilan, hayotiy aks ettirilgan. Hindiston, Shumer, Akkad va Mesopotamiyaning boshqa davlatlari, shuningdek, Misr bilan yaqin aloqada bo'lgan, ular orasida savdo-sotiq rivojlangan. Mesopotamiyaning Kish, Eshnunna shaharlaridan topilgan hind o'yma muhrlari, filning bo'rtma tasviri tushirilgan muhr, hind qalpog'i kiygan ayol haykali bu o'rinda diqqatga sazovordir.

Eramizdan avvalgi bir minginchi yillarda Gang daryosi vohasida ishlab chiqarish kuchlari ortdi, ibtidoiy jamoa tuzumi inqirozga yuz tutib, yangi quldarlik sinfiy jamiyatni yuzaga kela boshladi. Bu jarayonda, ayniqsa, Gang vohasida rivojlangan podsholik — Magadxa davri alohida o'rinni tutadi. Bu davrda san'at va madaniyat taraqqiyoti yangi pog'onaga ko'tarildi. Qullar mehnati ijtimoiy hayotda muhim o'rinni egallab, qurilishda asosiy kuchga aylandi. Murakkab yog'och me'morchiligi paydo bo'ldi, saroylar, ijtimoiy binolar, ibodatxonalar qurildi. G'orga, ibodatxona devorlariga ishlangan tasvirlarda shu davrda qurilgan yog'och ibodatxonalar ko'rinishi to'g'risida tasavvur qilish mumkin. Qadimgi Hindistonning muhim adabiy yodgorliklari «Mahabharata» va «Ramayana» eramizdan avvalgi I minginchi yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan epik dostonlardir. Ularda qadimgi davrdagi xalqlar hayoti, urf-odati, odamlarning xudo va afsonaviy qahramonlar haqidagi tushunchalari aks ettirilgan. Qadimgi Hindiston san'atining gullagan davri Mauriya sulolasi (er. av. 322—185-yillar), ayniqsa, Ashoka imperatorligi davri (er. av. 272—232-yillar)da sodir bo'ldi. Ashoka hukmronlik qilgan davrda bud-dizm keng yoyildi. Bu din dastlab Hindistonga, keyinroq Sharqning qator davlatlari (Xitoy, Birma, Yaponiya, qisman O'rta Osiyo)ga tarqaldi. Buddizmning tarqalishi u bilan bog'liq bo'lgan ibodatxonalar qurilishiga, tasviriy san'at namunalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Buddaga bag'ishlangan me'morlik kompozitsiyalarida qadimgi hind me'morchiligidagi mavjud an'analar, xalq mifologiyalari, Buddha hayoti va faoliyati bilan qo'shib ketgan afsonalar o'z ifodasini topdi. Qurilish materiali sifatida tosh keng ishlatila boshladi. Buddizmning asosiy me'morchilik kompozitsiyalaridan biri stupa bo'lib, bunday qurilmalar Ashoka davrida ko'p qurilgan. Sanchidagi katta stupa (er. av. 250-y.) shu me'morlik kompoznsiyasini o'ziga xos tomonini yoritadi va mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Bu stupa yarimsfera shakliga ega bo'lib, u aylana shaklidagi supachaga o'rnatilgan. Har ikkisining ichi g'isht va tosh bilan to'ldirilgan.

*Sanchidagi katta stupa  
(er. av. 250-y.)*



Uning yarim sferik shakli teskari o'girilib qo'yilgan qozonni eslatib, osmon gumbazining ramzi hisoblangan. Gumbaz tepasida esa muqaddas tog' bo'lib, u to'rt tomondan shartli o'rالган. Stupaning tomonlariga darvoza o'rnatilgan. Bu darvozalar juda boy bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan.

Buddizmning muhim yodgorligidan yana biri ustunlar — stambxlardir. Ular yaxshi pardozlangan yaxlit toshdan ishlangan bo'lib, Buddha ta'llimotini targ'ib etishda soydalanilgan hamda imperianing tanholigi va jipsligini ko'rsatadigan o'ziga xos haykali vazifasini o'tagan. Bu ustunlar hayvonlar tasviri ishlangan kapitel bilan tugallangan. Sarmatxdagi stambx va uning sherlar tasviri ishlangan kapitel mashhurdir.



*Sanchidagi katta stupa darvazi, bo'rtma tasviri va panjara detali.  
(er. av. 250-y.)*

Bu kapitel bugungi kunda Hindiston Respublikasi gerbida ishlatiladi. Muqaddas hayvonlar bo'rtma tasviri dumaloq baraban ustida to'rt sher tasvirlangan bo'lib, ular bir-biriga orqa qilgan holda to'rt tomonga qarab turibdi. Sherlar birmuncha sodda va sxematik tasvirlanishiga qaramasdan, ta'sirchan, ulug'vor va qudratlidir. Bu kuch-qudrat, ulug'vorlik esa buddizm, davlatning ramzi sisatida gavdalananadi.

*Sarmatxagi stambxga ishlangan sher tasvirlari kapitel.*



Buddananing darvishona hayot kechinganining ramziy ifodasi g'orlarga ishlangan ibodatxona (*chaytya*)lardir.

Bunday ibodatxonalar qoyalar ichiga ishlangan, ichkarida monaxlar xonasi va ibodatxona (*chaytya*) joylashgan. Qadimgi hind g'ori ichiga ishlangan ibodatxonalaridan (*chaytyalardan*) biri Karlidagi ibodatxonadir.

Uning xonalari qoya ichiga o'yib kirgan, devorlari esa haykaltaroshlik va rangtasvir bilan bezatilgan. Kiradigan eshigining to'g'risida, xonaning dumaloq qilib ishlangan tomoniga esa stupa o'rnatilgan.

I—III asrlarda Hindistonning shimaliy qismi Kushon davlatiga qo'shib olindi. Kushon davlatining hukmdori Kanishka buddizmning Hindiston

tashqarisiga ham tarqalganligini hisobga olib, o'z davlatini mustahkmalashga harakat qildi va undan maskuraviy kurashda foydalandi. Hind plastikasida Buddha haykali paydo bo'la boshladi.



*1. Ajanta g'origa kirish tomonidagi «quyosh darchasi». 2. Karlidagi g'ori ichiga ishlangan ibodatxona.*

*Raqqosa. Ajanta g'origa ishlangan rasmdan parcha. VI asr.*



Bu haykallarda el-linistik plastika ta'siri sezilarli. Bunga sabab Budda haykalini Gandhara oblastida Makedonskiy davrida kelib qolgan greklar yoki kichik osiyoliklar ishlashgan. Gandharada paydo bo'lgan Budda haykali keyinroq buddizm tarqal-gan yerlarga etalon sifatida tarqaldi Gandhara Buddasida ellen haykaltaroshligidagi jismoniy-garmonik ideal obraz hind haykaltaroshligidagi obrazlarning

to'laqonliligi bilan uyg'unlashib ketdi. Natijada jismoniy go'zal, xotirjam holda farog'atga, donolikka erishgan ideal inson obrazi yaratildi. Hind san'atining so'nggi taraqqiyoti g'uptalar sulolasi (320–450-yillar) davriga to'g'ri keladi. Bu Hindistonning quldorlikdan feodal munosabatlarga o'tish davri bo'lib, san'at va madaniyatning yanada ravnaq topish davri hisoblanadi. Ajanta g'oridagi ibodatxona va uning badiiy bezaklari, devoriy suratlari qadimgi hind san'atining eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan. Ajantadagi g'or ichiga ishlangan ibodatxona kompleksi eramizdan avvalgi II, yangi eraning VII asrlari mobaynida bunyod etilgan. **Chaytya** to'rtburchak shaklidida bo'lib, uning kiraverishi to'g'risidagi yarimdoira shaklidagi joy budda haykali uchun mo'ljallangan. Kirish tomonida «quyosh darchasi» deb nomlangan teshik – darcha mavjud. Ibodatxona devor va ustunlari esa haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan, devoriy suratlari ishlangan, Gupta sulolasi davrida qurilgan. Ajanta ibodatxonasing old tomoni ham haykaltaroshlik san'ati namunalari bilan nafis va serjilo qilib bezatilgan. Budda va shogirdlarining haykallari kiraverishdagi devor tokchalarini to'ldirgan. Ajanta g'ori ibodatxonasi

xonalarining devor va shiftlari esa devoriy suratlar bilan to'ldirilgan. Bu suratlarda Buddha haqidagi afgonalar bilan bing'a, turli xudo, hayvon, qushlar tasviri ham nozik va zo'r muhabbat bilan chizilgan, budda afgonalari huyotiy va real qilib, mahorat bilan ishlangan. «O'layotgan malika» surati nozik psixologizmi va tasvirlangan obrazlar hissiy kechinmalarining rang-barangligi bilan xarakterlanadi.

Obrazning plastik yechimi ham diqqatga sazovor. Chiziqlar plastikasi yosh malikaning nozik jussasi, chiroyli, dumaloq yuzidagi yumilib borayotgan katta ko'zlarini uning go'zalligini namoyon qiladi. «Raqqosa» devoriy rasmi ham o'zining plastik yechimining go'zalligi bilan yaxshi taassurot qoldiradi. Chaytya devoriy suratlari mavzu jihatdan qanchalik rang-barang bo'lmasin, ularda yagona fikr — insonnинг hayotga bo'lgan mehri, falsafiy dunyosi va o'yi, his-tuyg'ulari, orzu-istiklari va yuksak estetik ideali o'z ifodasini topgan. Ajanta san'ati qadimgi hind san'atining nodir yodgorligidir. Undagi yuksak badiiy mahorat, gumanizm va xalqchilik hind san'ati taraqqiyoti uchun muhim zamin bo'lib qoldi.

### Qadimgi xitoy san'ati

Qadimgi Xitoy san'ati tarixi eramizdan avvalgi 4–3 minginchi yillardan eramizning III asrigacha bo'lgan davrmi o'rganadi, tahlil etadi. Eramizdan avvalgi 4–3 minginchi yillarda Xuanxe daryosi vohasida odamlar dehqonchilik bilan shug'ullana boshladilar, ayrim qabilalar esa o'troq hayot kechira boshladilar. Bu davrda odamlar yashaydigan uylar dumaloq shaklda va ko'proq yerto'la tipida bo'lgan, ular yermi 3–4 metr qazib ishlangan. Asta-sekin yarim yerto'la tipida va nihoyat, yer ustida karkas uslubidagi uylar yuzaga kelgan. Ular to'rtburchak yoki kvadrat shaklida qurila boshlangan. Tepa tomi shox-shabbalar yoki loydan pis-hirilgan plitalar bilan yopilgan. Ustun-to'sin sistemasi ham shu davrlarda me'morlikda keng qo'llanila boshlangan. Xitoyning eng qadimgi san'at namunalari bizgacha kulolchilik buyumlari orqali yetib kelgan. Qo'lda, dastgohsiz yasalgan turli xum, ko'za, tovoq, vazalar rangdor naqshlar bilan bezab chiqilgan. Bu kulolchilik buyumlarining yuzasi spiralsimon, to'lqinsimon, to'rsimon chiziqlar bilan bezalgan, soddalash-tirilgan, odam, hayvon va qushlar rasmi ham ishlangan. Bunday buyumlar Yanshao manzilidan topilgani uchun ham ular «Yanshao madaniyati yodgorligi» deb yuritiladi. Shu madaniyat keyingi Xitoy kulolchiligi rivojida ham muhim o'rinni egalladi.

Xitoyning ayrim viloyatlarida kulolchilik buyumlari qora loydan dastgohda ishlangan. Bu buyumlar nafisligi va nisbatlarining qat'iyligi bilan ajralib turadi. Bunday idishlar Lunshan manzilidan topilgani uchun «Lunshan madaniyati yodgorliklari» deb yuritiladi.

Eramizdan avvalgi 4–3 minginchi yillarda Xitoyda loydan ishlanib,

olovda toblab pishirilgan odam haykallari (terrakotalar), odam boshini eslatuvchi ko'zalar, toshdan ishlangan turli badiiy buyum va haykallar uchraydi.



*Yanshao madaniyati kulolchilik yodgorliklari.*

Eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarda Xuanxe daryosi vohasida Xitoyda birinchi bor davlat paydo bo'ldi. Bu davlatni Shan (yoki In, taxminan, er. av. XVI asr mil. av. 1027-yillar) dinastiyasi boshqardi. Sinfiy quldorchilik jamiyati shakllanib, rivojlanib bordi. Birinchi shaharlar yuzaga keldi. Ular aniq rejalashtirish asosida qurildi. Dehqonchilik, hunarmandchnlik rivojlandi. Savdo-sotiq ishlari jonlandi. Shan davridan bizgacha saqlanib kelgan yodgorlik Angyan manzilidan topilgan katta shahar qoldiqlari hisoblanadi. Shahar aniq loyiha ega bo'lib, u kvar-tallarga ajratilgan. Binolar sun'iy tepalik ustiga qurilgan. Binoda ustunlar imkoniyatidan toydalanilgan. Tom esa ikki nishabli bo'lib, poxol bilan yopilgan. Shan davrida Xitoyda miflar paydo bo'lган, turli ramziy belgilari yuzaga kelgan. Bu belgi va miflar idishlarning yuzalariga ishlangan haykallarda, rangtasvirda tasvirlangan va shularda kishilarning fasafiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Shu vaqtida bronzadan ishlangan, diniy marosimlar o'tkazish uchun mo'ljallangan buyumlar yuksak ma-horat bilan ishlangan, ularning yuzasi ramziy belgi, naqsh va yarim fan-tastik obrazlarning bo'rtma tasviri bilan bezalgan.



Lunshan madaniyati  
yodgorligi.



Qizil loydan ishlangan marosim idishi. Mil. av.  
IV-III minginchi yillar. Davenkou. Shandun.

Bu belgi, naqsh va obrazlar yagona ritmiga bo'yusundirilgan. Buyum-larning bandi va qopqog'iga ham turli shakllar berilgan. Shan davrida toshtaroshlik va suyak o'ymakorligi ham rivojlangan. Ustalar qattiq nefrit toshlaridan taqinchoq, ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan bu-yumlarni, turli xil hayvon va jonivorlar haykalchalarini yuksak mahorat bilan bajarganlar. Shan davrida oq loydan yasalib, yuzasi bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan turli xum va boshqa idishlar ham yuksak mahorat bilan ishlangan.

Xitoyda ham ko'mish marosimi tantanali bo'lgan. Qabr, sag'analar hajm jihatidan katta to'rtburchak shaklida bo'lib, u yerga bezak va ishlatalidigan idish-tovoqlar qo'yilgan. Sag'anaga kiraverishning ikki tomonida afsonaviy odamga o'xhash sher haykali bo'lib, u og'zini katta ochgancha, orqa oyoqlarida o'tirgan holda, old oyoqda tayanib turgan payti tasvirlangan. Haykalning hamma tomoni naqsh bilan bezab chiqilgan. Bu haykallar «yomon ko'zlarni» qo'rqtish uchun kerak bo'lgan. Eramizdan avvalgi XII asrda Shan-In davlati Chjou qabilasi tomonidan tor-mor etiladi. Yangi tuzilgan podsholik shu qabila nomi bilan yuritilgan va eramizdan avvalgi XII asrdan III asrgacha davom etgan. Chjou davri san'ati va madaniyati avvalgi an'analarga tayangan holda boyib bordi, san'atning tur va janrlari kengaydi, ramziy obrazlar bilan bir qatorda, hayotiy voqealar, odam va hayvonlarning real tasviri keng o'rinnegallay boshladi. Bronzadan ishlangan jimjimador idishlar ko'p yasaldi.



1



2



3

*Marosimlarga mo'ljallangan predmet. Nefrit. Shan davri. 2. Odamni yeyayotgan yo'lbars shaklidagi idish. Bronza. Shan davri. 3. Sa'va shaklidagi idish. Bronza. Shan davri.*

Adabiyot rivojlandi, falsafiy ta'limotda materialistik qarash, hayotni tabiatni o'rganish masalalari ko'tarildi. Eramizdan avvalgi I minginchilikning o'rtaida shoyiga suratlar ishlash san'ati paydo bo'ldi, tushda rasm ishlash san'ati rivojlana boshladi. Bu keyingi davr san'atida yanada rivojlantirildi.

Qadimgi Xitoyning muhim yodgorligi Buyuk Xitoy devoridir. Eramizdan avvalgi IV-III asrlarda qurila boshlagan bu devor dastlabki paytda Xitoyning shimoliy chegaralarini ko'chmanchi qabilalardan saqlash uchun xizmat qilgan va 750 km ni tashkil etgan. Keyinroq uning uzunligi 3000 km ga yetgan. Devorning balandligi 5-10 metr, eni esa 5-8

metr bo'lgan. Devor tepasida yo'l mavjud bo'lib, har 100 metrda katta minoralar ishlangan. Buyuk Xitoy devori kishilarning kuch-shijoati va katta irodasini aks ettiruvchi, o'z xarakteri jihatidan Misr ehromlari bilan tenglashuvchi va odamlar birlashsa, buyuk mo'jizalar yarata olishini ko'rsatuvchi yodgorlik tarzida hamon kishilarni hayratlantiradi. Qadimgi Xitoy san'ati va madaniyatining eng rivojlangan bosqichi eramizdan avvalgi III asrdan eraning III asrigacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda mam-



*Bronza dubulg'a. Er. av. I asr o'rtaasi.*



*Marosim idishi. Bronza. Chjou g'arbiy sulolasi.  
Er. avv. XI–IX asrlar.*

Iakat yagona markazlashgan yirik davlatga aylandi. Sin (er. av. 221–206-yy) va Xan (mil. av. 206-yangi eraning 220-yili) sulolasi hukmronlik qilgan paytida avvallari mustaqil bo‘lgan qator davlat va qabilalar Xitoy imperiyasiga qo’shildi. Xitoy O’rta Osiyo, Eron, Suriya, Rim impeniyalari bilan savdo-sotiq ishlarini jonlantirdi. Xitoyning tasviriy, amaliy va me’morlik san’ati ham nihoyatda rivojlandi. Sin davridan bizgacha ba’zi yodgorliklar yetib kelgan.



Uch karkidon oyoqli idish. Bronza. Er. av. IV asrlar. Xebey. Chjunshan. 2. Marosim qo’ng’iroq ‘i. Bronza. Er. av. IV asrlar. Xebey. Chjunshan. 3. Qanotli ajdarho. Kumush suvi yogurtirilgan bronza. Er. av. IV asrlar. Xebey. Chjunshan. 4. Jang oyboltasi. Bronza. Er. av. IV asrlar. Xebey. Chjunshan. 5. Oyholta sopl detali. Oltin suvi yogurtirilgan. Xebey. Chjango davri. 6. Ajdarholi bronza idish. Er. av. IV asrlar. Xebey. 7. Marosim anjomi. Xebey. 8. O’rdak shaklidagi sopl idish. Xebey. Qurbon qilish marosimi bronzasi. Xebey. Er. av. V asr.



*Sin harbiy hokimiyat belgisi. Bronza (oltin). Er. avv. V-III asrlar. 2. Sin laklangan qayig'i. Xebey. Er. avv. III asrlar.*

Lekin Xan davri yodgorliklari birmuncha boy san'at va madaniyatini haqida ma'lumot beradi. Xan podsholigi davrida uning poytaxti bo'lgan Chanani qadimgi dunyoning eng yirik shaharlaridan bo'lgan. Shahar 12 darvozali bo'lib, qalin devor bilan o'rab chiqilgan. Imperator saroyi shaharning eng baland binolaridan bo'lgan. Saroy yaqinida sariq rangga bo'yalgan ma'muriy binolar bo'lgan. Boy-zodagonlarning uy'ari ham ko'p qavatli edi. Ularning old tomoni plyastr, kamiz va ustunlar bilan bezatilgan. Bino va minoralarning tomlari rangli silindrik cherepitsalar bilan yopilgan. Ular ham funksional, ham dekorativ vazifani o'tagan. Relyefli naqsh, o'simlik va hayvonlarning bo'rtma tasviri tom yuzasini bezash ishlarida qo'llanilgan. Qadimgi Xitoy madaniyatini o'rganishda maqbaralar ham muhim o'rinni egallaydi. Boy-zodagonlar, qahramonlarga atab qurilgan maqbaralar serhasham bo'lgan. Maqbaralar minoralar (pilon) bilan boshlanib, ularga bezak berilgan, old tomoniga haykallar o'matilgan. Maqbaraning yer osti qismi ham pishiq g'isht yoki tosh bilan pardozlangan. Sag'anaga ko'milgan marhumning buyumlari ham qo'yilgan. Ayrim sag'analarda juda ko'plab haykaltaroshlik va rassomlik namunalari mavjud bo'lgan. Maqbaralardan loydan ishlab pishirilgan va bo'yalgan ko'p qavatli uy va minoralarning modellari ham topilgan. Dastlabki san'at asarlari birmuncha sodda. Lyaonin yaqinidagi Shandun va Sichuan maqbaralari, ayniqsa, tasviriy san'atga boy. Shandundagi zodagon maqbarasining relyeflarida afsonaviy qahramonlar, podsholar orasidagi janglar, ov va bazm paytlari, farzandlarning o'z ota-onalariga muhabbatli va shunga o'xshash voqealar tasvirlangan. Bo'rtma tasvirlar friz tarzida bo'lib, ular ust ma-ust joylashtirilgan. Har bir voqeaga tushuntirish yozuvi berilgan. Kompozitsiyada xudo va podsholar tasviri oddiy ommadan kattaroq qilib ishlangan. Sichuandagi maqbara relyeflari bermuncha dinamik xarakterga ega bo'lib, u yerda ov manzaralari, yig'imterim ko'rinishlari tasvirlangan. Xan davri maqbaralarida ko'plab devoni surat namunalari uchraydi. Ular yorqin bo'yoqlarda ishlangan,

voqe va hodisalarining hayotiy va ifodali bo'lishiga e'tibor berilgan. Xan davrida portret rassomligi ham rivojlandi. Maqbara va saroy devorlariga portretlar ishlash keng odat tusiga kirdi. Devorga ishlangan shunday portrelardan biri Lyaonin yaqinidagi Xan davri maqbarasida saqlanib qolgan.

Shunday portret ishlashda tanilgan rassomlardan biri eramizdan avvalgi I asr oxirlarida yashab ijod etgan **Mao Yan Shou** bo'lgan. U odamlarni o'ziga juda o'xshatishga, hatto ideallashtirishga usta bo'lgan. Uning portrelaridan tasvirlanuvchi odamning yoshi va hatto, xulqini bilish mumkin bo'lgan.

Maqbaralardan topilgan terrakotalar ham diqqatga sazovor. Ular o'zining ifodali va hayotiy ishlanganligi bilan diqqatni tortadi.

*Imperator gvardiyasi o'qchisi.  
Terrakota. Er. avv. III asr oxiri.*

Xan davrida amaliy-dekorativ san'atda ham jiddiy o'zgarish yuz berdi, buyumlarning foydali tomoniga e'tibor ortdi, bezak va relyefli tasvirlar kamaydi.

Bronzadan ishlangan jimjimador ko'zgular ham keng tarqalib, bu ko'zgular inkrustatsiya qilingan, oltin, kumush va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Bu davrda bronzadan ishlangan buyumlar, idishlar avvalgi davrga nisbatan yanada nafis va jimjimador bo'lgan, ayniqsa inkrustatsiya uslubi keng qo'llanilgan. Turli xildagi amaliy buyumlar, idishlar, muzika asboblari, lak bilan bezatilgan buyumlar ham boylar xonadonini bezagan. Kulolchilikda rang keng qo'llanila bordi. Badiiy kashtachilik va to'qimachilik G'arbiy Osiyo va Yevropa mamlikatlari yuqori baholandi. Nefritdan ishlangan turli buyum va haykalchalar ko'pchilikka manzur bo'ldi.

Qadimgi Xitoy san'ati Xan davlatining inqirozga yuz tutishi bilan





*Yog'ochdan ishlangan karkidon haykali. Xan davri.*

o'z umrini tugatadi. Lekin qadimgi davrlarda, ayniqsa, Xan davri san'atida paydo bo'lgan an'analar Xitoy san'ati va madaniyati taraqqiyotiga katta ta'sir qildi, uning xarakterli tomonini belgilashda muhim o'rinn egalladi.



*Chopib borayoigan ot haykali. Xan davri.*

## IKKINCHI BO'LIM. O'rta asrlar san'ati

Yer yuzida feodalizm formatsiyasining paydo bo'lishidan tortib, uning rivojlanishi va nihoyat, uning inqirozidan keyingi formatsiyaga o'mini bo'shatib bergungacha bo'lgan davrdagi san'atni, odatda, o'rta asrlar san'ati deyiladi. Sharq mamlakatlarda (masalan, Xitoy, Hindistonda) o'rta asrchilik birmuncha erta boshlangan. Lekin uning inqirozi cho'zilib ketib, XIX asrgacha va undan keyinroq ham davom etgan. O'rta asrlar insoniyat kamolotining muhim davrini ifodalaydi. Bu davr keyingi jahon xalqlari iqtisodiy va milliy madaniyatining rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi, uning taraqqiyotini tezlashtirishda o'zining kuchli hissasini qo'shdi. O'rta asr san'ati o'z xarakteri jihatidan ommaviy san'at bo'lib, uning yaratuvchisi esa xalqdir. Gap shundaki, o'rta asrlarda san'at keng xalq ommasiga qaratildi. Quldarlik davrida jamiyatning ma'naviy va grajdanilik huquqlaridan mahrum bo'lgan qul o'rta asrlarda huquqsiz va xo'jayiniga qaram bo'lib qolgani holda jamiyat a'zosi deb tan olindi. Dehqonning o'z xususiy xo'jaligiga ega bo'lishi, ishlab chiqarish vositalari bilan ish ko'rishi, qo'shimcha mahsulotning bir ulushini o'zida qoldirishi mumkinligi ishlab chiqarishni rivojlantirishdan manfaatdorligini oshirdi, ommanning ongi o'zgara boshladi. Quldarlik tuzumining inqirozga yuz tuta boshlagan davrida paydo bo'lgan tenglik tushunchasi bu davrga kelib, yanada baralla jarangladi. Natijada o'rta asr dehqonlari yagona jamoa, shaharlarda esa shahar kommunasi atrofida birlashib, feodalarga qarshi chiqa boshladilar. Bu, o'z navbatida, feodalizmga nisbatan progressiv bo'lgan kapitalistik tuzumning elementlarini shakllantira bordi.

Feodalizmning paydo bo'lishi u bilan bog'liq bo'lgan mahalliy ishlab chiqarish kuchlarining yuzaga kelishini, yirik shahar va qishloqlardan uzoqdagi joylarga ham madaniyat yutuqlarining kirib kelishini ta'minladi. Madaniyatning keng omma orasiga singish davri boshlandi. Omma ham shu madaniyatni yaratuvchi kuchga aylandi. Shu davrdan boshlab, milliy, o'ziga xos san'at shakllana bordi, juda ko'p mahalliy maktablar paydo bo'la boshladi. Xalq san'ati, amaliy-dekorativ san'at rivojlandi, san'atda sintez masalalari ham ravnaq topa bordi. Ikkinci tomondan, o'rta asrlarda din feodallar ustidan hukmron va shu bilan birga, ularning himoyachisi bo'lib qoldi. Ommani hukmron sinfga tobe qiluvchi qurolga aylandi. Shu maqsadda din targ'ibotchilari san'at imkoniyatlardan o'z faoliyatlarida foydalandilar va davrning asosiy buyurtmachisiga aylanib, uning o'ziga xos tomonini belgilashda muhim rol o'ynadilar. Buni xristian dini tarqalgan yerlarda cherkovlar, islom mamlakatlarda masjid va madrasalar, minora va maqbaralar, buddizm mavjud bo'lgan joylarda budda va uning hayoti bilan bog'liq bo'lgan ziyyoratgohlar, ibodatxonalar paydo bo'lishi, ularning konstruktiv tuzilishi, xarakteri, badiiy bezatilishida

ko'rish mumkin. Albatta, o'rtalas san'atida faqat din masjurasi dan boshqa masjura yo'q, deyish noto'g'ri bo'lardi. Hayot go'zalligini taranum etuvchi, tabiat latofatini aks ettiruvchi asrlar ham yo'q emas. Xalq fantaziysi bilan yaratilgan ertak va dostonlarda, tasvir va haykallarda ularning olivjanoblik, insoniylik, ma'naviy poklik to'g'risidagi tushunchalari, o'y-xayollari, orzu-istiklari o'z ifodasini topgan. O'rtalas san'ati haqida fikr yuritganda, uning badiiy tili to'g'risida ham gapirish kerak bo'ladi. Chunki o'rtalas rassomi uchun faqat vogelikni o'ziga o'xshatish emas, balki shu ishlagan tasviri orqali biror-bir fikrni bayon etish, his-tuyg'uni ifodalash muhimdir. Shu maqsadda u vogelik tasvirini ishlaganda xayoliy, ramziy obrazlardan, turli belgi va allegoriyalardan ham foydalanadi. Perspektiv tasvir o'mini shartli, dekorativ plandag kompozitsiyalar egallaydi. Antikaning shakl realizmi borasida erishgan yutuqlari o'miga, endilikda mazmun realizmi inson his-tuyg'ularini ifodalash realizmi bilan almashdi. Bunda o'rtalas san'atining ham yutug'i ham chekinishi seziladi. O'rtalas san'atida me'morlik yetakchi o'rinni egalladi. Bizgacha o'rtalas me'morlik san'atining juda ko'p nodi yodgorliklari saqlanib qolgan. Bu yodgorliklar, ayniqsa, monumental me'morlik san'ati o'rtalas ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim o'rinni egallaydi. Ular davrning diniy, falsafiy qarashlarini aks ettiribgina qolmay, inson aql-zakovatining qudratini ulug'laydi. Bu davrda qurilgan hashamatli masjidlar, buddizm yodgorliklari o'rtalas tafakkurining mahsuli, insoniyat tarixiniig haykali sifatida hanuzgacha kishilar qalbini to'lqinlantiradi. Buyuk inson aql-zakovati qudratiga ta'zim etishga da'vat etadi.

## Arab xalifalik davri san'ati

O'rtalarda Yaqin va O'rtal sharq xalqlari jahon san'ati va madaniyatiga katta hissa qo'shdi. Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan islam dini masjurasi esa shu davr san'at va madaniyati tamoyillarini belgilashda muhim o'rinni egalladi.

Arabiston yarim orolida madaniyat juda qadim zamonlarda vujudga keldi. Bu yerda eramizdan avvalgi minginch yillardayoq boy quldarlik davlatlari mavjud bo'lgan. Arabiston aholisining ko'pchilik qismi chorvachilik bilan shug'ullangan. VII asming boshlariga kelib, arab jamoasi ichida sodir bo'lgan ichki sinfiy tabaqlanish va siyosiy vaziyat yagona Arab davlatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Arab jamoasining siyosiy birlashishi VII asming boshlarida yangi islam dini bayrog'i ostida bordi. Bu dinning asoschisi Muhammad bo'lib, uning davomchilari arabcha muslimlar (Xudo bandalari), musulmonlar deb yuritila boshlandi. Dastlabki davrlarda Muhammad va uning vorislari (xalifalari) turadigan

joy Arabistondagi Madina va Makka bo'lgan. VII asrda arablar Falastin, Suriya, Mesopotamiya, Misr, Eron yerlarini bosib oldi. VIII asr boshlariga kelib esa, arablar Pireney yarim orolidan tortib, Shimoliy Afrika, Kavkaz va O'rta Osiyo yerlarigacha qo'lga kiritib, Ispaniya yerlaridan to Hindistongacha cho'zilgan katta arab davlati — xalifalikni tashkil etdilar. Lekin arab davlati siyosiy birlik jihatidan juda zaif edi. Shuning uchun IX-X asrlarda xalifalik qator feodal davlatlarga parchalanib ketdi. O'rta Osiyo, Kavkaz orti, Misr va Mag'rib esa, arab davlati hukmdorligidan ozod bo'ldi.


Yaqin sharqda sodir bo'lgan sotsial-tarixiy jarayon Shimoliy Afrika va Old Osiyoda yangi arab millatini Suriya, Iroq, Misr, Tunis, Jazoir, Marokash kabi arab davlatlarini yuzaga keltirdi. Bu davlatlarning san'ati va madaniyati o'ziga xos yo'lida rivojlanib bordi. Shu bilan birga, bu mamlakatlar san'ati va madaniyatida mavjud o'xshashliklarni inkor etmaslik kerak. Bunga sabab, arab mamlakatlarida feodalizm taraqqiyotidagi yo'l va usullaming bir-biriga yaqinligidir. O'rta asr arab san'ati ravnaqiga islom dinining ta'siri ham sezilarli bo'ldi. Bu, ayniqsa, me'morlik, amaliy-dekorativ san'atda yaqqol ko'rindi.

**Me'morlik.** Xalifalik davrida fuqarolar va din bilan bog'liq bo'lgan binolar qurish avj oldi. Shu davrdagi shaharlar qator yangi tipdag'i me'moriy kompozitsiyalar bilan boyidi. Masjid va madrasalar, karvon-saroy va minoralar, tim va qasrlar musulmonlar shahrining o'ziga xos tomonini belgilovchi muhim va ajralmas elementlarga aylandi. VII asrda arab masjidi tipi yuzaga keldi. Bu masjid tashqi ko'rinishi jihatidan mustahkam minorali, atrofi g'isht bilan o'ralgan qal'a (qo'rg'on)ni eslatadi. Kompozitsiyasi asosi to'rburchak yoki kvadrat shaklidagi hovli bo'lib, uning atrofi esa ustunli ayvonlar bilan o'ralgan. Arab mamlakatlarida to'rt ayvonli, markaziy qubbali masjidlar ham mavjud bo'lgan. Xalifalikning poytaxti Damashqdagi Omeyadlar masjidi (705–715) arab me'morligining dastlabki namunasi hisoblanadi. Bu masjid qadimgi xristian bazilikasini qayta qurish hisobiga musulmon diniy binosiga aylantirilgan.

Ilk arab me'morligining o'ziga xos tomoni, ayniqsa, Qohiradagi Ibn Tulun (876–879) masjidida namoyon bo'ladi. Deyarli bir gektarga yaqin (92x92 m) kvadrat shaklidagi hovli nayzasimon arkali ayvonlar bilan o'rab chiqilgan. Ayvon ustunlari mustahkam to'rburchak minorasimon shaklda ishlangan.



Damashqdagı masjid mozaika-si. Omeyadlar.



Masjid interyeri.



Ibn Tulun masjidi hovlisi.

Masjid juda katta bo lib, unda bir vaqtning o'zida mingdan ortiq odam namoz o'qiy olgan. Masjidning bezatilishi ham sodda va qat'iy. Uning devorlari, ark va karnizlari o'ymakorlik san'ati bilan pardozlangan. O'rta asr arab me'morligida madrasa, shifoxona, kutubxona binolari, maqbaralar qurish keng yoyilgan.

Arab xalifatligining gullagan abbosiylar (750 – 1258) davri me'morligi

*Ibn Tulan masjidi  
umumiy ko'rinishi.  
(876–879).*



xususiyatlarini Samarra shahri (IX asr) qurilish san'atida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu yerda qurilgan yirik diniy majmular, minora va mus-

tahkam devorlar bilan o'ralgan hashamatli va bezakdor saroylar, spiral-simon qurilgan mashhur Malviya minorasi shuning dalilidir. X–XI asrlarga kelib xalifalikning susayishi Iroqda mahobatli qurilishlarni to'xtashiga olib keldi. XII asrning birinchi yarmi – XIII asrlar me'mortigi Bag'dod va Masuldaga yodgorliklarida namoyon bo'ladi. Ularga xos fazilat hajmiy-fazoviy kompozitsiyaning aniqligi, yuqori peshtoqli, ravoqli va gumbazli tomlarda bilinadi. Bezatilishida g'ishtning ifodaviy imkoniyatlaridan foy-dalanish, rangli koshin va ba'zida bo'rtma tasvirlar qo'llanilishida ko'rindi. VIII asrdan boshlab sakkiz qirrali tepa tomoni konussimon qirrador gumbazlar bilan yopilgan maqbaralar keng tarqaldi. Bag'doddagi Zubayda maqbarasi shu yo'nalishni o'zida namoyon etadi.

### Xalifalik davri tasviriy va amaliy bezak san'ati

Islom madaniyatida tasviriy san'at (rassomlik va haykaltaroshlik) maf-kura vositasi sifatida qo'llanilmagan va asosan hunarmandchilikning ajralmas qismi, amaliy bezak san'ati sifatida ishlatalgan. Mashhur shaxslarga haykal qo'yish, me'moriy inshootlarning devorlariga targ'ibiy maqsadda rasm yoki bo'rtma tasvirini ishlash harakati bo'limgan. Mavjudlari esa ayrim shaxs va xonardonlarning shaxsiy tashabbusi va xohishi asosida ishlangan. Shuningdek, maishiy-madaniy, me'moriy majmualarda, masalan, hammomlarda, zodagonlarning qasr-saroylarida shu hol uchraydi. Bunga sabab, albatta, hukmdor sinf orasida diniy qarashlar bir xil emasligidir. Qo'lyozmalar uchun ishlangan miniaturlarda, dekorativ rel-yezlarda hamda amaliy san'atda real vogelik, uning jonli obrazlari keng uchraydi. Arab tasviriy san'atida o'rta asrlar san'atiga xos xususiyatlar mavjud. Vogelik shartli, ba'zan ramziy shakllarda ifodalanadi. Lekin bu tasvirlarning poetik tili o'tkir va ta'sirchandir. O'rta asr arab san'atiga xos bo'lgan fazilat uning yorqin dekorativligidadir. Bu xususiyat obraz tuzilishining asosini tashkil etadi. Obrazlarning joylashishi, yorqin ranglarning nisbat va ritmikasi, ishlatilgan chiziqlarning musiqaviyligi va

وَكَانَ دِيرٌ مَعْلُوكٌ لِبَحْرٍ وَأَنْتَدَ

مَا أَنْجَيْتَكَ تَوْسِيًّا وَذِلَّةً وَلَا فَيْلًا لَمَّا آتَيْتَكَ



*Arab miniaturasi.*

nafisligi uning xarakterli tomonini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Arab san'atida naqsh (ornament) alohida o'rinni egalladi. Real borliq shu sirli, chigal bo'lib ko'ringan naqsh tasviri bilan aralashib ketgandek tuyuladi. Uning mazmunini oshiradi. Bu san'atda xalqning hayot mazmuni va mohiyati to'g'risidagi dunyoqarashi va tushunchalari o'z ifodasini topdi. Islom madaniyatida bezak haykaltaroshligi (dekorativ haykaltaroshlik) me'moriy majmualar, amaliy san'at buyumlari bezagida keng qo'llanilgan. Pishirilgan loy – terrakota, chinni, metall, marmar, yog'och va shunga o'xshash ashylarda ishlangan buyumlar yuzasiga ishlangan bo'rtma tasvirlar, turli afsonaviy hayvonlar shaklini eslatuvchi idishlar, dekorativ rassomlikning turli ko'rinish va texnikada bajarilgan panno, mozaika, vitraj, buyumlarni bezash uchun ishlatiladigan rasm va naqshlar, masalan chit (mato)ga, chinni idishlar yuzasiga ishlangan rasmlar va 1. k. ham shu davr san'atida uchraydi. Bu san'atda ritm, simmetiriya,

وَإِلَّا فَأَسْوَقْتُنَّهُ الْمِيرَقَعَ الْمُتَخَلِّجَ إِذْ جَدَلَهُ خَاتِمًا وَأَفْاجَ حَمَةَ خَالِبَا فَلَمْ يَجِدْ تَامِدَ عَلَيْكَنْ



*Naqshli g'ilof.*

assimetriya qonuniyatları, naqqoshlik san'ati talablari muhim o'rinni egallaydi. Amaliy bezak san'atining alohida turi bu boshqaruvchi tabaqcha va diniy targ'ibot uchun zarur bo'lgan buyumlar (atributlar), xonalarni bezash san'ati, badiiy kashtachilik, zargarlik, zardo'zlik bo'lib, shu san'atda amaliy san'at o'zini to'liq namoyon etdi.

Abbosiylar davri nafaqat me'morlik balki tasviriy va amaliy san'atda ham jiddiy jonlanish ro'y berdi. Xalifalikning bu davridan bizgacha devoriy rasm parchalari, stukli bo'rtma tasvir, yog'och o'ymakorligi bo'laklari tarzida yetib kelgan. Samarra, Takrit yodgorliklari shularning mashhudidir. Bu davrda miniatura san'ati rivoj topdi. Bag'dod va Iroqning shimalida kitob miniatura san'ati rivojlanib XII—XIII asrlarga kelib o'zining gullagan davrini boshidan kechirdi. Shu davrdan bizgacha yetib kelgan ilmiy risolalarga ishlangan miniaturalar (Dioskorid. «Farmakologiya» 1222), hamda Al Haririying «Maqom»iga ishlangan miniaturalar hayotiy va ifodaliligi bilan ajralib turadi. Bu miniaturalar Bag'dod miniatura maktabi namunasi bo'lib, ishlanishining lakovik yechimi bilan ajralib turadi Shimoliy Iroq miniaturasiga xos xususiyatlarni «Qo'shiq kitobi»ga ishlangan rasmlarda ko'nish mumkin. Bu rasmlarga xos xususiyat tantanavorlik va bayramona ruhda ishlanishida. Arab realistik san'ati rassomlik

va haykalchiligi din ta'sirida bo'ldi. Din ularning rivojlanishiga yo'l qo'ymadı. Realistik san'atning monumental formalari deyarli yaratilmadi. Qo'lyozmalar uchun ishlangan miniaturlarda, dekorativ rel-yeflarda hamda amaliy san'atda real vogelik, uning jonli obrazlari keng uchraydi. Bunga sabab, albatta, hukmdor sinf orasida diniy qarashlar bir xil emasligidir. Arab tasviri san'atida o'rta asrlar san'atiga xos xususiyatlar mavjud. Vogelik shartli, ba'zan ramziy shakllarda ifodalanadi. Lekin bu tasvirlarning poetik tili o'tkir va ta'sirchandir. O'rta asr arab san'atiga xos bo'lgan fazilat uning yorqin dekorativligidadir. Bu xususiyat obraz tuzilishining asosini tashkil etadi. Obrazlarning joylashishi, yorqin ranglarning nisbat va ritmikasi, ishlatilgan chiziqlarning musiqaviyligi va nafisligi uning xarakterli tomonini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Arab san'atida naqsh (ornament) alohida o'rinni egalladi. Real borliq shusirli, chigal bo'lib ko'ringan naqsh tasviri bilan aralashib ketgandek tuyuladi. Uning mazmunini oshiradi. Bu san'atda xalqning hayot mazmu ni va mohiyati to'g'risidagi dunyoqarashi va tushunchalari o'z ifodasini topdi.

**Mavritan san'ati.** VII—VIII asrlarda Shimoliy Afrikadagi qator davlatlar — Tunis, Jazoir, Marokash va Janubiy Ispaniya arab xalifaligi sostaviga kirdi. Bu mamlakatlar san'ati mavritan san'ati degan nom bilan yuritila boshladi. Antik davrda mavrlar (grekcha — qora) deb Afrikaning shimoli-g'arbiy qismidagi Mavritaniya davlatining tub aholisi tushunilar edi. 711-yili arab berber jangchilari Pireney yarim orolini bosib olganlaridan keyin bu yer aholisi ham, shimoliy Afrikadan kelgan boshqa



*Bezakli grifon.*

musulmon bosqinchilari ham mavrlar deb yuritila boshlandi.

Mavritan Ispaniyasi Damashq xalifaligining provinsiyasiga aylandi. X asr ga kelib, Ispaniya xalifalik unvoniga sazovor bo'ldi. Shu davrdan boshlab, Ispaniya Yevropadagi eng gullagan mamlakatlardan biriga aylandi. Yevropa va Osiyodagi ko'zga ko'ringan madaniyat o'choqlaridan biri sisatida tanildi. Mavritan Ispaniyasi ning badiiy ijoddagi yutuqlari poeziya, muzika, ayniqsa, me'morlik va u bilan bog'liq bo'lgan dekorativ san'atda yaqqol namoyon bo'ldi.

Mavritan Ispaniyasi me'morchiligining nodir yodgorligi uning poytaxti Kordova dagi 785-yil asos solingen juma masjidi bo'lib, X asrgacha u bir necha bor qayta qurildi va nihoyat, o'zining tugal ko'rinishiga ega bo'ldi. Bu an'anaviy, ustunli masjidning alohida ko'rinishidir. Uning plani to'rtburchak (180x130 m) shaklida bo'lib, hovli uchun juda kichik maydon qoldirilgan. Qolgan maydonning hammasi juda katta ustunli zalga aylantirilgan. 800 ta ustun shu zalning tepa qismini ko'tarib turadi va masjid ichini qator neflarga (19 nef) ajratadi.

XI asr oxirlaridan boshlab, ispanlar arablarni janubga qarab siqib boradi. Faqat Granada amirligi 1492-yilgacha arab istilochilarining Ispaniyadagi yagona tayanch yeri sisatida saqlanib qoladi. Granada amirligining muhim me'morlik majmuasi Al-hamra (al-hamra – arabcha "qizil") saroyi hisoblanadi. Bu saroyning asosiy qismi XIV asrda qurib tugallangan. Saroy baland tepalikka qurilgan bo'lib, uning atrofi qizil rangdagi mustahkam devor bilan o'ralgan. Saroyning xonalari, asosan, ikki ochiq hovli atrofida joylashtirilgan. Lekin planirovksi erkin, qat'iy simmetriyaga e'tibor berilmagan. Saroy interyerlari juda serhasham va jozibali qilib bezatilgan. Stalaktitlar uning ichki ko'rinishlariga alohida joziba kiritgan. Pardoz uchun ishlatalgan turli xildagi marmar va toshlar, bo'yalgan alebastr, sirli kulolchilik buyumlari bu serhashamlik va jozibani yanada oshiradi.



Rangli emalda ishlangan chiroq.

## TURKIYA SAN'ATI

XI asrda saljuq turklari (O'rta Osiyodagi ko'chmanchi turkiy qabila) Kichik Osiyoning kattagina qismini bosib olib, mustaqil feodal davlatini tashkil etdilar. Unga saljuq sulolasi vakillari rahbarlik qildilar. XIII asr kelib, bu davlat O'rta Yer dengizi havzasi hamda Qora dengiz sohillarini ham egallab, qudratli davlatlardan biriga aylandi. Shu siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot davrida yangi san'at va madaniyat jiddiy rivojlandi, shahar qurilishi kengaydi. Savdo-sotiqning o'sishi hunarmandchilik, amaliy-dekorativ san'at ravnaqiga ham ta'sir o'tkazdi. Kulolchilik, gilam to'qish metalldan badiiy buyumlar yasash sohasida yutuqlar qo'liga kiritildi. Bu san'atlar mahalliy an'analar asosida hamda Kichik Osiyodagi yaqin qo'shni mamlakatlar, ayniqsa, Kavkazorti, Eron, Iroq ta'sirida shakllandi. Mo'g'ul galalarining istibdodi Turkiya yerlarining qator mustaqillikka ega bo'limgan feodal yerlariga parchalanishiga sabab bo'ldi. Lekin XIV asr boshlarida katta bo'limgan knyazlik asta-sekin o'z yerlarini kengaytirib, tezda Usmon imperiyasi deb nom olgan davlatga aylandi. Shu davrda turk san'ati va madaniyati ham o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi, me'morlik, tasviriylar va amaliy san'atda muhim nodir asarlar yaratildi. Bu san'atlarning shakllanishida saljuq davri san'ati an'analarini muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, Vizantiya san'ati ham bu davr san'atiga, uning xarakteriga sezilarli ta'sir o'tkazdi. Bu ta'sir turklarning Konstantinopolni bosib olganlaridan keyin boshlaldi.

Turk me'mordari binolarning shaklan aniqligi, nisbatlarining bejirimligi va qubbali binolar qurish ishi bilan katta muvaffaqiyatga erishdilar. Ark qirralari, dekorativ tokchalarga, ravoqlarni bezab turgan muqarnaslar (staloktitlar) qurilgan binolarning nihoyatda jimjimador bo'lishiga xizmat qilgan. Handasiy va islimiylar naqshlar relyeflar, epigraf yozuvlar bilan uyg'unlashib murakkab, chuqur ma'noli falsafiy mazmun hosil qilgan. Bino bezagida devorlar rangiga ham alohida e'tibor beriladi. Me'morlik ravnaqi dekorativ san'at tarmoqlarining rivojlanishiga ta'sir qildi, yog'och o'ymakorligi borasida yuksak cho'qqiga erishildi. Saljuq davrida rassomlik ham mavjud bo'lib, u Vizantiya, Armaniston, qisman Eron miniatursasi ta'sirida shakllandi. Usmoniylar davri me'morligining dastlabki bosqichida bevosita saljuq me'morligi an'analarini rivojlantirilgan bo'lsa ham, keyinroq Konstantinopol yerlarini bosib olgandan keyin, Vizantiya san'ati an'analarini keng o'rin egallay boshladi. Turk me'mordari Vizantiya ibodatxonalarini qurish prinsiplarini qabul qilib, uning ko'rinishiga yangi badiiy mazmun kiritdilar. Bu davr turk me'morligida katta gumbazli binolar qurish, binoning ichki fazoviy kengligiga alohida e'tibor berish kuchaydi. Bu xususda Istanbuldagi Sulton Boyazid II masjidi ko'rinishi va planirovkasi diqqatga sazovordir.

Turk tasviriy san'ati, asosan, miniatura san'atida namoyon bo'ladi. Bu san'at bevosita ozarboyjon va eron san'ati ta'sirida rivojlandi. Turk miniatura san'ati taraqqiyoti XVI asrga to'g'ri keladi. Bu davrda qator yetuk miniaturachilar yashab, ijod etdi. "Sulton Sulaymon tarixi"ga ishlangan miniaturlarda turk miniatura san'atiga xos fazilat — voqelikni shoshilmay bayon etishga va kompozitsiyani birmuncha perspektiv planda yechishga intilish hollari seziladi. Albatta, bu miniaturlarda Ozarboyjon, Eron miniaturachilariga xos nafislik yetishmasa ham, lekin yaxlit badiiy obraz yaratishga o'ziga xoslik ko'rindi.

Turkiya amaliy san'ati bilan shuhrat qozondi. Kulolchilik, to'qimachilik, gilam to'qish, metalldan qurol-aslaha, uy anjomlari yasash borasida erishilgan yutuqlar alohida o'rinn egallaydi.

O'rta asr turk san'ati Yaqin Sharq badiiy hayotida muhim rol o'ynadi. Turk san'atkorlari yaratgan san'at namunalarining qo'shni mamlakatlariga ta'siri kuchli bo'lди. Keyinchalik turk san'atkorlari yaratgan saroy va masjidlar tipida arab mamlakatlarida, Bolqon yarim oroli va Qrimda ko'plab binolar qurildi.

## KAVKAZORTI XALQLARI SAN'ATI.

### Ozarboyjon san'ati

O'rta asrichilik Kavkazorti yerlarda IV–V asrlardan boshlandi. Bu davrda Ozarboyjon sosoniyalar davlati tarkibida edi. Ilk feodalizm asrida Ozarboyjonda eski shaharlarni kengaytirish, yangi shaharlarni qurish borasida sezilarli ishlar olib borildi. Ilk feodalizm asri san'ati, ayniqsa, me'morligi ko'proq yaqin qo'shnilarini Armaniston va Gruziya san'atiga yaqin bo'lgan. VII asrda arablarning Ozarboyjon yerlarini bosib olishi uning san'at va madaniyatiga katta ta'sir o'tkazdi. Bu yerlarda islom dinining tarqalishi esa u bilan bog'liq bo'lgan masjid, karvonsaroy va boshqa me'morlik yodgorliklarining vujudga kelishiga sabab bo'lsa, Armaniston va Gruziya Vizantiya va shu yerdan tarqalgan din ta'sirida rivoj topdi. Shu bois bu keyingi ikki xalqning o'rta asr san'ati Vizantiya va Qadimgi Rus san'ati bilan qo'shib alohida o'rganish nazarda tutilganligini hisobga olib biz ham bu mavzuga to'xtalmaymiz va faqat Ozarboyjonning o'rta asr san'ati va madaniyati bilan tanishamiz. O'rta asr Ozarboyjon san'ati taraqqiyotida Nizomiy davri deb yuritiladigan XII asr va XIII asrning boshlari alohida o'rinn egallaydi. Bu davrda hunarmandchilik rivojlandi. Qator shaharlar yirik madaniy markazga aylandi. Ozarboyjon madaniyatining yirik vakillari shu yerlarda yashab ijod qildi. Bular ichida Xoqoniy, ayniqsa, Nizomiddin Ilyos Nizomiy Ganjaviy (1141–1209) alohida o'rinn tutadi. Ular o'z asarlari materialistik dunyo-qarashni ilgari surdilar, mehnat ahliga zo'r hurmat bilan qaradilar, ular-

ni o'z asarlarda kuyladilar. Bu asrlarda me'morlik va tasviriy san'at (miniatura) borasida ham katta yutuqlar qo'liga kiritildi. Shu davrda shakllangan monumental me'morlik prinsiplari keyingi bir necha asr mobaynida o'z qiymatini yo'qotmadi.

XI-XIII asrlarda Ozarboyjonning ko'pgina shaharlarida qurilish jadal rivojlandi. Shahar devorlari, mudosaa qal'a va minoralari, saroy, minorali masjidlar, maqbara, hammom va shunga o'xshash binolar qurildi.

Siniq qal'a, Qiz minora, Yusuf ibn Qussir va Mo'min-xotin maqbaralari shu davrning nodir yodgorliklaridandir. Mo'g'ul galalarining Ozarboyjon yerlariga hujumi uning san'ati taraqqiyotini to'xtatib qo'ydi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. XIV asr o'rtalarida Shirvon shoh davlati Shimoliy Ozarboyjonda o'zining mustaqilligini o'matdi.

XIV-XV asrlarda monumental me'morlikda ko'zga ko'rinali yodg'orliklar yuzaga keldi, minorasimon maqbaralar qurildi. Bular ichida Qorabog'lar va Bardiz qishloqlaridagi maqbaralar diqqatga sazovordir. Bokudagi Shirvon shohlar saroyi XV asr monumental me'morligining mashhur namunalaridandir. Eski shaharning eng baland joyiga qurilgan bu saroy majmuasi bir necha o'n yil mobaynida qurilgan bo'lsa ham, badiiy jihaddan yaxlit bo'lib ko'rindi. Saroy majmuasidagi turli hajm va shakllar o'lchamining o'zaro mutanosibligi, peshtoq, qubba va minoralar ning ajoyib ritmi butun majmua badiiyligini oshirishga xizmat qiladi. O'yma naqsh va g'ishtiarning terilishi binoning badiiy-emotsional tomonini oshirishga xizmat qiladi. Bu majmua me'morligida Kichik Osiyo, Eron me'morchiligi an'analari ta'siri borligi seziladi. Lekin o'zining kompozitsion tuzilishi va bejirimligi jihadidan tengi yo'qdir. O'rta asrlar Ozarboyjon tasviriy san'ati ichida miniatura alohida o'rinni egalladi va o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Bu yerda qator yetuk miniaturachi rassomlar ijod qildilar.

Dastlabki rassomlik san'ati namunalari Tabriz atrosida «Manafi al-haya» (hayvonlar to'g'risida) kitobiga ishlangan illustratsiyalar bo'lib, bularni bir qancha rassomlar hamkorlikda yaratishgan. Bu suratlarda turli hayvonlar, ularning xatti-harakatlari ko'rsatilgan. Ayrim miniaturalarda naqshga taqlid qilish xislatlari sezila boshlanadi. Bu xususiyat Rashididdinning «Yilnama»lar to'plamiga ishlangan suratlarda, ayniqsa, «Shohnoma»ga ishlangan miniaturalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu miniaturalar ichida Parsiya podshosi Ardavan sosoniyalar podshosi Ar-dasher oldida miniaturasi mohirona ishlangan. Rassom bo'layotgan voqeя mazmunini haqqoniy, psixologik planda ochib ko'rsatishga harakat qilgan.

Tabriz miniatura maktabiga xos fazilatlar "Xamsa"ga ishlangan miniaturalarda yaqqol seziladi. Bu manuskriptni bezashda juda ko'p miniaturachi rassomlar qatnashgan. Bular ichida, ayniqsa Sulton Mu-

hammad alohida o'rin egallaydi. Ba'zi tarixchilar esa uni Behzod bilar bir qatorga qo'yadilar. Sulton Muhammad ijodida Tabriz miniatura maktabi o'zining kamolot cho'qqisiga erishdi. Uning asarlari chuqur lirizzi bilan sug'orilgan. «Xisrov Shirinning cho'milishini tomosha qilmogda», «Bazm», «Kitob o'qiyotgan shahzoda» kabi miniaturalar uning ijodidagi o'ziga xos tomonlarni namoyon etadi.

Amaliy-dekorativ san'atning yuksak bo'lganligi saqlanib qolgan gjamlar, sirli sopol buyumlar, metalldan ishlangan turli qurol, uy anjomlaridan seziladi.

## Eron san'ati

O'rta Osiyo va Eron o'rta asr madaniyatining muhim o'choqlaridan hisoblanadi. Feodalizm davrida O'rta Sharq mamlakatlari xalqlari san'ati O'rta Osiyo, Kavkazoti va Eronning antik davri san'ati an'analariga tayangan holda rivojlandi. VII—VIII asrlarda bu mamlakatlar yerlarining arablar tomonidan, keyinroq XI asrda turklar, XIII asrda mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi bu yerdagi xalqlar san'atiga, uning taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Buni arablar istilo qilgan yerdarda islom dini tarqalishi va shu din bilan bog'liq holda diniy me'morlik binolarining paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'rish mumkin.

Dastlabki shunday diniy binolar bevosita arab me'morligi an'analarida qurildi. Ustunli masjidlar shular jumlasidandir.

Lekin tezda arab xalifaligiga kirgan mamlakatlar me'morligida o'ziga xos ko'rinish paydo bo'la boshladi, arab me'morligi an'analarini ijodiy o'rganilgan holda mahalliy me'morlik an'analarini bilan boyidi, me'morlikning yangi turi paydo bo'ldi. To'rtayvonli binolar qurilishi bu davrda keng tarqaldi. Bu tipdagi binolar diniy me'morlikda (masjid, madrasa) hamda grajdani me'morligida (sarov, karvonsaroy) keng soy-dalanildi. To'rtayvonli bino-



Gavharshod masjidı.

lar, odatda, katta to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uning o'rta hovli, to'rt tomoni esa hovliga qaratib qurilgan nayzasimon arkali ayvo bilan o'rab chiqilgan. Masjidning old tomonida katta peshtoq va mindalar mavjud. Bulardan tashqari, bu asrlarda peshtoqli-qubbali binol ham ko'plab qurildi. XII asrgacha qurilgan binolarning ko'pgina qism asosan, pishiq g'isht va turli xildagi terrakota plitalari bilan bezatilga. Keyingi asrlardan boshlab sirli sopol plitalar, geometrik hamda o'simliklal dunyosi elementlaridan tuzilgan naqshlar bilan bezash keng tarqaldi. Eronda feodalizm V–VI asrlardan boshlandi. Bu davr (VII asrgacha bo'lgan davr) san'ati quldarlik davri san'ati an'analar bilan bog'liq. VI asrda arablarning Eronga kirib kelishi bu yerdag'i feodal madaniyat taraq qiyotini birmuncha sustlashtirdi. Arab me'morligi ta'sirida VIII–IX asrlarda bu yerda masjidlar qurilishi keng rivojlandi. IX asrdan boshla Eron arablarga qaramlikdan qutula boshladi. U feodal munosabatlar ning eng rivojlangan davriga qadam qo'ydi. Bu rivojlanish XV asrgacha davom etdi. Me'morlik, amaliy-dekorativ san'at va miniatura borasida sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu davrda qurilgan binolar ichida to'rnayvonli masjidlar alohida o'rin egallab, Isfahon va boshqa shaharlardan ko'plab qurilgan. Eronda saqlanib qolgan ko'pgina maqbaralar davrnin hurmatli kishilariga atab qurilgan. Ular bir necha ko'rinishda, ya'ni minorasimon, kubsimon yoki ko'p qirrali prizmasimon shaklda bo'lib, tepqismi esa yarim sfera shaklidagi gumbaz yoki chodirsimon shakl bilan tugallangan. Ba'zi maqbaralar peshtoq-gumbaz tipida bo'lgan. Eronning ko'pgina shahar va qishloqlarida ko'proq minorasimon maqbaralar keng tarqalgan. Xurosondagi Kobus maqbarasi shunday tipda ishlangan qadimiy (1006–1007) yodgorliklardan hisoblanadi.

XIV asrdan Temur davlati tarkibida bo'ldi. Shu davrda san'at va madaniyat rivojlandi. Katta qurilish ishlari olib borildi...

Mashhadda qurilgan Gavharshodbegim masjidi kitobalari Boysun-qur Mirzo (Shohruuning o'g'li) tomonidan ishlangan.

XVII asrda Isfahonda Shohmaydon majmuasi barpo etildi (1612–1638) Shoh masjidi katta qurilishlardan bo'lib u to'rt ayvonli ikki minorali, minoraning balandligi 43,5 m bo'lib bezakka boy qilib ishlangan.

O'rta asrlar Eron tasviriy bezak san'ati ham amaliy bezak san'atining ajralmas qismi sifatida rivojlandi. Devoriy rassomlik, mahobatli haykaltaroshlikning bo'rtma turlarida asarlar yaratildi. Ayniqsa miniatura san'ati va xattotlikda eron san'atkorlari dong chiqarib Yaqin va O'rta Sharq madaniyatida sezilarli o'rinni egalladilar. O'rta asr eron haykaltaroshlik namunalari bizgacha kam yetib kelgan. Yozma manbalarda bu san'at haqida ma'lumotlar bor. Bizgacha yetib kelgan haykallar bo'rtma tasvir tarzida bo'lib, bu tasvirlar kiborlarning xonadaonlarini bezashda ishlatalgan. Ularda ov manzaralari yovvoyi hayvonlar bilan olishayotgan

qahramonlar uchraydi. Isfahon-dagi saroyda sher va boshqa yovvoyi hayvonlar tasviri (barelyesi) ishlangan. O'rta asr eron rassomlik san'atining mahobatli turi haqidagi ma'lumotlar yozuv manbalarida uchrasa ham, lekin uning namunalari bizgacha saqlanmagan, lekin miniatura va kitob grafikasi hamda xattotlik san'ati borasida eron ustalari dong taratdilar. Bu yerda shakllangan Sheroz, Isfahon, Tabriz va boshqa san'at mакtablari jahon tasviriy san'ati taraqqiyotida o'zlarining hissalarini qo'shdilar. Sheroz mакtabi Firdavsiyning «Shohnoma» (1333)siga ishlangan «Bahromning sher bilan olishuvi» miniaturasi, Nizomiyninig «Xamsa» (1479, 1491) va boshqalarga ishlangan asarlarda ko'rindi. Isfahon mакtabi XVI asr oxridan davlat poytaxtiga aylangan dan keyin yanada rivoj topdi. Bu yerda mahalliy mакtab yutuqlari umumlashtirilib uni yangi g'oyaviy plastik tomonlarini boyitdi. Inson ruhiyatiga e'tiborning ortishi, manzara unsurlari bilan portret san'atini boyitishga intilish kuchayib, ranglar yengillishib chiziq kuchining ifodaviyligiga e'tibor ortdi. Shu davrdan boshlab Yevropa rangtasvirining ifoda vositalari nur va soya imkoniyatlardan unumli foydalinishga harakat kuchaya bordi. Isfahon mакtabining asoschilaridan biri Og'a Rizoning yaqin shogirdi va izdoshi Rizo Abbosiy bo'lib, u portret san'atida mashhur, o'z zamondoshlarining portretini yaratishga intilgan. Uning «Chol portreti» (1641), «Yigit portreti» (1641) kabi asarlari chiziq plastikasining nafis musiqaviyligi va shu bilan birga hayotiyligi bilan ajralib turadi. Asardagi silliq uzlusiz chiziqlar asarning ichki va tashqi harakatini belgilab, uning jonli ko'rinishini yaratadi. XVII asr o'rtalari va ikkinchi yarmidan eron tasviriniy san'atida Yevropada, xususan Italiyada tasviriy san'at asoslarini o'rganib qaytgan rassomlar ijod qila boshlaydilar. Shunday rassomlardan biri Muhammad Zamon edi. Eron san'atiga yevropa san'atining ta'siri keyingi asrlarda ham kuchayib, sharq va g'arb san'ati uchrashuvi ortib yangi o'ziga xos milliy eron san'ati shakllanib bordi. Shunday rassomlardan mashhuri Mirzo Abul Hasan G'afforiy bo'lib u saroyning bosh



*Chol portreti.*

rassomi bo'lgan va uni Naqqoshboshi deb atashgan. Bu rassom milliy san'atning dekorativligi, rangdorligini saqlab qolgan holda yevropa realistik san'ati an'analariga tayanib chuqur psixologik portretlar yaratishga intilgan. Eron amaliy bezak san'ati boy va o'ziga xos. Eron gilamlari, bronzadan ishlangan turli anjomlar, badiiy matolar mamlakatdan tashqarida ham mashhur bo'lgan. Kulolchilik san'ati ham boy an'analarga ega bo'lib Kashan, Yazd, Veramin kabi kulolchilik maktablari asarlari jahon muzeylari va shaxsiy kolleksiyalardan o'rinn olgan.

## AFG'ONISTON SAN'ATI

Bu yerda ham feodalizmning paydo bo'lishi IV–VI asrlarga to'g'ri keladi. Ilk feodalizm asridan bizgacha juda ko'pgina yodg'orliklar saqlanib kelgan. Bular ichida buddizm bilan bog'liq bo'lgan haykal va haykalchalar alohida o'rinni egallaydi. Bu yerda asrning boshlarida buddizmning yoyilishi Buddha va shogirdlarining odamga o'xshash tasvirining keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Buddizm bilan bog'liq bo'lgan stupa, g'or ichiga ishlangan ibodatxonalar Hindistonning Shimoliy rayonlaridan Afg'onistonga ham kirib keldi. U yerlardan esa, O'rta Sharq va Uzoq Sharqqa qarab tarqaldi. Afg'oniston maydonida Buddha bilan bog'liq bo'lgan ikki mingdan ortiq g'or ichiga ishlangan ibodatxonalar eraning I–V asrlarida yaratilgan. Bamian daryosi vohasi atrofidagi g'or ichiga ishlangan ibodatxona kompleksi xarakterlidir. Ular ancha betartib qurilgan, ko'pchiligi katta Buddha haykallari atrofida to'dalashadi. Tashqi tomonidan bu ibodatxonalar ko'rimsiz. Lekin ularning ichki bezagiga alohida e'tibor berilgan. G'ordagi ibodatxonalarining xonalari dumaloq, to'rtburchak, kvadrat, ko'p burchakli, tomlari ham tekis. Shunday g'ordagi ibodatxonalaridan birining kvadrat shaklidagi xonasi shiftiga yog'och bilan yopilgan ko'rinish o'yib ishlangan. Ba'zi g'ordan ibodatxonalarda tokchalar mavjud bo'lib, unga o'tirgan holatdagi Buddha haykali qo'yilgan, devori esa suratlar bilan bezatilgan va Buddha, uning shogirdlari hamda hayotiy voqealar tasviri ishlangan. Buddha haykali, asosan, ikki holatda – turgan holatda, butun bo'yi basti bilan yoki chordana qurib o'tirgan holatda ishlangan.

Fundukiston (Kobuldan shimoli-g'arbda) monastirida ham devoriy surat va haykaltaroshlik asarlari saqlanib qolgan. Bu monastir bezagida so'g'd monumental-dekorativ san'atiga o'xshashlik bor.

Arablarning Afg'oniston yerlarini bosib olishlari natijasida uning qadimgi san'at va madaniyatiga katta zarar yetdi. Qadimgi din bilan bog'liq bo'lgan ibodatxona va tasviriy san'at asarlari vayron qilindi. Uning san'ati, madaniyati xarakterida shu davr O'rta Sharqining umumiy madaniyatiga xos fazilatlar shakllana boshlandi. Islom dini bilan bog'liq bo'lgan masjid, minoralar qurildi. Hukmdorlarning serhasham maqbaralari

qurilishiga e'tibor berildi. Qurilishda pishiq g'isht, sirli koshinlar ishlatalishi esa davr me'morligiga o'zgacha fayz kiritdi.

Afg'oniston X asrdan XIII asr boshlariga qadar goh somoniylar, goh g'aznaviylar keyinchalik saljuqiy va nihoyat, guridiylar davlati tarkibida bo'ldi. G'aznaviylar davrida bu yerda ko'plab hashamatli binolar, masjid va madrasalar, karvonsaroy, hammom va bozorlar qurildi. Ayniqsa, juma masjidi qurilishiga alohida e'tibor berildi. Uning badiiy bezatilishiga esa eng yaxshi ustalar va quruvchilar jalb qilindi. Kandahor yaqinidagi XI-XII asrlarda qurilgan masjid xarobalari hozir ham o'zinig ulug'vorligi, semaqsh va nasisligi bilan kishini hayratlantiradi.

Afg'oniston me'morligida minoralar qurilishi keng o'rinn egalladi. Dumnoq, ba'zan qirrali qilib pishiq g'ishtdan qurilgan minoralarning yuzasi sirli koshin va pishiq g'ishtlardan ishlangan naqsh va yozuvlar bilan bezatilgan. Balx vodiysidagi Davlatobodda qurilgan minoraning boy bezagi, asosan, pishiq g'ishtlarning kombinatsiyasi hisobiga qurilgan. Minoralarning ayrimlari esa tayyor o'yma sirli koshinlar bilan pardozlangan.

Bu davrda madrasalar, maqbaralar qurilishi ham kengaydi, shoh va zodagonlarning saroylari serhasham qilib ishlandi. Devorlarni bezatishda bo'rtma tasvirlardan, o'ymakorlik san'atidan ham foydalanildi.

Afg'oniston san'ati va madaniyatining yangi taraqqiyot bosqichi temuriylar davriga to'g'ri keladi. Temur imperiyasi tarkibida bo'lgan hozirgi Afg'oniston yerlarining katta qismi Temuring o'g'li Shohruhga berildi. Temur vafotidan keyin esa O'rta Osiyoning asosiy hukmdorlari dan bo'lib qolgan Shohruh davrida Hirot uning madaniy va siyosiy markaziga aylandi va XVI asrgacha o'zining mavqeyini saqlab qoldi. Shu yerda buyuk o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiyning ko'p yillik hayoti o'tdi. Temuriylar davrida hashamatli madrasa, masjid va maqbaralar, ajoyib minoralar qad ko'tardi. Park-bog' san'atining ilmiy qonuni yaratildi. Grajdan me'morligi qurilishi avj oldi. O'z otasidan o'mak olgan Shohruh Hirot shahri ko'chalarini qayta qurib chiqish va tartibga solish masalasi bilan shug'ullandi. Shaharda karvonsaroy, hammom va boshqa ijtimoiy binolar qad ko'tardi. Gavharshod maqbarasi shu davr yodgorliklaridan bo'lib, u o'z qurilishi jihatidan Temur maqbarasini eslatadi. O'sha davrda Hirotdan tashqarida ham bir qator yirik me'morlik yodgorligi yaratildi. Shular ichida Balxdagi masjid o'zining originalligi bilan ajralib turadi. Din targ'ibotchisi shayx Abu Nasr Porsga atab qurilgan bu peshtoq-gumbazli masjid ishlanish uslubi va me'morlik hajmlarining ishlatalishi hisobiga o'ziga xos ko'rinish kasb etgan. Binoning baland nayzاسimon arkli peshtoqi, unga yopishgan arkonsimon yarim ustunlari binoning ko'rinishiga salobat kiritgan.

Abu Nasr maqbarasi bilan bir vaqtida qurilgan Balxdagi Mozori Sharif ziyyaratgohi ham o'zining sirli koshin va naqshlari bilan kishi ko'ziga

quvonch baxsh etadi. XVIII asr me'morligi ichida Afg'oniston davlatining asoschisi Ahmad shoh Durraga atab qurilgan maqbara ajralib turadi. An'anaviy sharq musulmon me'morligi uslubida qurilgan peshtoq-gumbazli bu maqbara ham boy bezakka ega.

Afg'oniston san'atida rassomlik va haykaltaroshlik butun feodalizm davrida mavjud bo'ldi. Ilk feodalizm davrida ko'proq, Buddha hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tasviriy san'at asarlari yaratilgan bo'lsa, afg'on yerlariga arablarning kirib kelishi natijasida islom dini bilan bog'liq bo'lgan san'at tarqaldi. Buddizm dini bilan bog'liq bo'lgan ko'plab yodg'orliklar barbod qilindi. Lekin islom dini jonli narsalar rasmini chizish va haykalini ishlashni man etgani bilan, zodagonlar va xonlaming saroy, qasrlari devoriy surat va bo'rtma tasvirlar bilan bezatildi. Albatta, bu hol keng miqyosda yoyilmagan bo'lsa ham, ayrim saroylar goldiqlari shu san'at namunalarining topilishi fikrimizning dalilidir. Bu xususda g'aznaviyilar saroyi devoridagi surat va bo'rtma tasvirlar diqqatga sazovordir. Bu tasvirlarda raqsga tushayotgan raqqosalarning bo'rtma tasviri, sultonlar hayotiga bag'lshlangan mavzuli kompozitsiyalar mavjud. XV asrda Hirot kitob bezash san'atining yetuk markaziga aylandi. Shohruh hukmronlik qilgan bu davrda Hirotda eng yaxshi xattot, miniatURA ustalari ijod qilib, O'rta Sharq madaniyatining shuhratini olamga tarqatdilar. Kamoliddin Behzod ijodiy faoliyatining asosiy qismi shu yerda o'tdi. Uning shogirdi Qosim Ali ham shu yerda ijod qildi. U portretchi sifatida ko'pchilikka tanildi. Navoiy dostonlarini ajoyib miniaturalar bilan bezatdi. U Jomiy asarlariga, jumladan, uning "Xamsa" siga rasmlar ishlagan.

Afg'onistonda o'rta asrlar amaliy-dekorativ san'ati, yog'och o'ymakorligi, gilam to'qish va metallni qayta ishlash san'ati borasida ham katta yutuqlarga erishildi. XII asr amaliy san'atining yodg'orligi bronzadan yasalgan qozon bo'lib, uning tashqi sathi ajoyib bo'rtma naqsh va tasvirlar bilan bezatilgan.

Afg'on amaliy san'ati bevosita xalq hayoti bilan bog'liqdir. Bu san'atda uning o'tmish an'analari davom ettirildi.

## JANUBIY VA SHARQIY OSIYO SAN'ATI.

### Hindiston san'ati

VI asrda Gupta dinastiyasi hokimiyyati ko'chmanchi qabilalar tazyiqida halokatga uchradi. Hindiston feodalizm asriga qadam qo'ydi. Shu davrga kelib, Hindistonga tashqi hujumlar ham kamaydi va Hindiston iqtisodiy rivojlanish, tashqi mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borish imkoniyatiga ega bo'ldi.

VII asr me'morligi, asosan, Madras yaqinidagi Mamallapurama shaharchasida to'plangan. Bu yodgorliklar kompleksi katta qoyalarni yo'nish asosida yaratilgan hamda g'orga ishlangan ibodatxonalar, qoya sathida ishlangan «Gangning pastga tushishi» bo'rtma tasviridan tashkil topgan. Qoyaga yo'nib ishlangan ibodatxona — ratxlar balandligi 14 m dan, g'or ichiga ishlangan ibodatxonalarining eni va uzunligi esa 8 m dan oshmaydi. Ko'p hollarda qoyaga yo'nib ishlangan ibodatxonalarining ichki xonasi yo'q. Ularning tashqi shakllarida o'sha davrda mavjud bo'lgan ibodatxonalar shakli qaytariladi.

VII—VIII asr me'morligida haykaltaroshlik san'ati muhim o'rinni egallaydi. Bu xususiyat Elurdagi Kalaysanatx ibodatxonasida yaqqol sezildi. Yaxlit qoyani yo'nib yaratilgan bu ibodatxonaning uzunligi 60 m, balandligi 70 m bo'lib, ramziy xarakterga ega, go'yo u Shiva yashagan muqaddas tog' ramziy ko'rinishini bildiradi.

Ibodatxona devorlari bo'rtma tasvirlar (barelyef va gorelyef) bilan qoplangan. Unda Shiva va uning yo'ldoshi Parvati hayotiga bagishlangan voqealar, braxmanizm bilan bog'liq epizodlar tasvirlangan. Ibodatxonaning ichki xonalari hajm jihatdan uncha katta bo'lmay, ularni bezashda ham haykaltaroshlik san'ati yetakchi o'rinni egallaydi. Devoriy rassomlik san'ati ikkinchi darajali rol o'ynagan.

VIII asrga kelib, ibodatxonalarining, asosan, ikki tipi odat tusiga kirdi. Bulardan birinchisi, shimoliy Hindiston yerlarida qurilgan bo'lib, bu tipdag'i ibodatxonalarining tepe tomoni uchi biroz qayrilgan baland minorali, ikkinchisi esa, zinali, piramidal shakldagi ibodatxonalar bo'lib, ular ko'proq janubiy Hindiston yerlarida keng tarqaldi. Bxubanesvaredagi Lingarja ibodatxonasi hamda Kxajaraxodagi Kandarea Maxadeva ibodatxonasi shu davr hind me'morligining birlinchi tipiga misoldir.

Bxubanesvaredagi ibodatxona minorasi mayin egilgan vertikal chizqlar bilan bo'lib chiqilgan, shakli nilufar mevasini eslatadi. Ibodatxonaning qolgan qurilmalari shu asosiy minora shaklini kichik hajmlarda qaytaradi va butun kompozitsiya dinamikasini oshiradi. Ibodatxona kompleksi 140x160 m maydon o'tasida joylashgan bo'lib, uning atrofi devor bilan ajratilib chiqilgan. Ibodatxona to'rt bo'limdan iborat bo'lib, ular asosiy o'q bo'yicha sharqdan g'arbga qarab joylashadi. Ibodatxona mi-



*Elurdagi Kaylasanatx  
ibodatxonasi.*



Bhubanesvaredagi Lingaraja ibodatxonasi. X-XI asrlar.

g'or va qoyalarga ibodatxonalar ishlash san'ati bilan chambarchas bog'liqdir. Yaratilgan haykaltaroshlik asarlarida (relyef, dumaloq haykal) umuman, shartlilik yetakchilik qiladi. Hayotiy voqealar afsonaviy voqealar bilan aralashib ketsa ham, aynim obrazlar hayotiy his-tuyg'ulanga boy va to'laqonliligi bilan katta taassurot qoldiradi. Bu o'rinda uch yuzli Shiva haykali (VIII asr) diqqatga sazovor. Katta uchbosli Shiva byusti (balandligi 6 m) o'zining fantastik ko'rinishi bilan kishini hayajonlantiradi.

Unda Shivaning uch karomati – markaziy qismda Shiva – yaratuvchi, o'ng tomonda Shiva – homiy, chap tomonda esa Shiva – borliqni yo'q qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

«Gangning pastga tushishi» bo'rtma tasviri hind san'atining nodir yodgorligidir. Unda monumental shakkarda xalq san'atiga yaqin bo'lgan realistik xislatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Balandligi 9 m, kengligi 27 metr bo'lgan yuzada ishlangan bu bo'rtma tasvirda muqaddas Gang suvining pastga tushishi va unga tomon intilayotgan jonzot tasvirlangan.

Obrazlar ko'p hollarda nihoyatda umumlashma va yaxlit shakkarda

norasining balandligi 40 m dan ortiq bo'lib, kompozitsiyaning badiiy tugal bo'lishiga xizmat qiladi.

Tanjordagi Shivaning katta ibodatxonasi janubiy Hindiston o'rtalasiga o'matilgan me'morlik ansamblı kompozitsiyasining markaziy qismi 63 metrli minora bilan tugal-lanadi. Minora uchta katta hajmdan tashkil topgan bo'lib, pastdag'i hajm kvadrat, undan keyin kesik piramida va dumaloq gumbaz uning kompozitsiyasini tashkil etadi. Bu hajmlar dekorativ bezakka boy, lekin ular minoraning yaxlit va ulug'vor bo'lib ko'rinishiga xalaqit bermaydi.

### Hind haykaltaroshligi

Unda Shivaning uch karomati – markaziy qismda Shiva – yaratuvchi, o'ng tomonda Shiva – homiy, chap tomonda esa Shiva – borliqni yo'q qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

«Gangning pastga tushishi» bo'rtma tasviri hind san'atining nodir yodgorligidir. Unda monumental shakkarda xalq san'atiga yaqin bo'lgan realistik xislatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Balandligi 9 m, kengligi 27 metr bo'lgan yuzada ishlangan bu bo'rtma tasvirda muqaddas Gang suvining pastga tushishi va unga tomon intilayotgan jonzot tasvirlangan.

ishlangan bo'lishiga qaramay, kompozitsiya hayotiy va xatti-harakatga to'la. Ayrim obrazlar yechimining ifodali va to'laqonliligi esa asar ta'sir kuchini yanada oshiradi. Hind haykaltaroshligida realizmning o'ziga xos tomoni ayollarga bag'ishlangan asarlarda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. «Xat yozayotgan ayol», «Kop-tok o'ynayotgan ayol» kabi haykaltaroshlik asarlarda go'zalligi ma'naviy va jismoniy go'zallik bilan qo'shib, ajoyib tugal, katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan san'at namunasi vujudga kelgan.

XIII asrdan boshlab, Hindiston siyosiy va madaniy hayotida muhim davr boshlandi. Mamlakat feodal munosabatlarning yangi davriga qadam qo'ydi. Hind yerlarining turklar tomonidan bosib olinishi, musulmon feodallarining hukmronligi Hindistonda yirik markazlashgan davlatlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Bobur va uning vorislari hukmronlik qilgan Hindiston XVI—XVII asrlarda o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi.

«Musulmonlar» bilan kirib kelgan yangi islom dini davlat diniga aylandi. Uning ta'siri esa me'morlik va tasviriy san'atda o'z ifodasini topdi. Shimoliy Hindistonda O'rta Sharq me'morligi an'analari asosida yaratilgan masjid, minora, maqbaralar yuzaga kela boshladi. Me'morlikda keng ishlatilgan haykaltaroshlik san'ati o'mini o'yma va chizma naqshlar egalladi, jonli narsalar tasvirini ishlash kamaydi. Shunga qaramay, hind san'ati an'analari o'z umrini yangi davrda ham davom ettirdi. XIII asrda Dehlida qurilgan «Quvvatul islom» masjidi minorasi bunga misoldir. Hind ustalari yangi davr me'morligi kompozitsiyasini qadimgi hind san'ati an'analari bilan boyitdilar. Bu xususiyat minoranining ochiq ayvonchalar bilan bir necha qavatga ajratilishida, minora yuzasining bo'rtma qilib bezatilishida va nur-soya o'yinining boyligida seziladi. Bu minora o'z prototiplaridan keskin ajralib turadi. Hind ibodatxonalarini tipi o'miga musulmon masjidlari qurildi. Islom dini bilan bog'liq bo'lgan hind masjidlari ham plan hamda tuzilish jihatidan sodda va ratsionaldir. Uch tomoni ustunli ayvonchalar, to'rtinchisi tomoni ustunli namozgoh bo'lib uning g'arb tomonida mehrob joylashgan. Hindistonda qurilgan dastlabki masjidlar badiiy jihatdan sodda bo'lgan.

Boburiylar hukmronlik qilgan XVI—XVII asrlarda hind san'ati va



Dehlidagi «Qizil Fort» qo'rg'oni. 1685-yil.

madaniyat yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Keyinchalik markazlashgan boburiylar davlatida yangi shaharlar (Agra, Fatexpur-Sikri) vujudga keldi. Mustahkam devorlar bilan o'ralgan masjid, maqbara, saroy va bog'lari bo'lgan katta qal'alar yaratildi. Bu davrda hind o'rta asr me'morligi o'zining so'nngi taraqqiyot bosqichini boshidan kechirdi.

Boburning nabirasi bo'lgan Akbar hukmronlik qilgan davrda (1556–1605) qurilish yanada rivojlandi. U Agra shahri qurilishiga, ayniqsa, katta e'tibor berdi. Zamondoshlarining fikriga ko'ra, bu shahar o'sha davrda dunyodagi eng go'zal shaharlardan biri bo'lgan. XVII asr me'morligida serhashamlilikka intilish kuchaydi, oq marmar quruvchilarining sevimli materiali bo'lib qoldi.

Shohjahoning buyrug'i bilan uning marhuma rafiqasi xotirasiga qurilgan Agradagi Tojmahal masjid-maqbarasi (1632–1650) oq marmardan qurilgan muhim yodgorlik, hind san'atining nodir durdonasi hisoblanadi. Bu binoni qurishda Hindiston, Turkiya, Eron, O'rta Osiyo va Afg'oniston ustalari qatnashgan. Keng va ko'rkam gumbaz uning atrofiga qurilgan to'rt minora Tojmahalga tugallik va ko'rkamlik baxsh etadi. Uni yengil, go'yo yuqoriga fazoga intilayotgandek qilib ko'rsatishga xizmat qiladi. Binodagi ark va ustunlar bu yengillikni yanada oshiradi. Tojmahalning aksi uning qarshisidagi hovuz suvida tovlanib, butun ansambl jozibasini yanada kuchaytiradi. Dehlida Shohjahon davrida qurilgan Jome masjidi ham oq marmardan ishlangan, minoralari esa qizil marmar bilan pardozlangan. Grajdan me'morligi ichida Dehlidagi "Qizil Fort" qo'rg'oni mashhurdir.

G'orga ishlangan ibodatxonalarining kamayishi va to'xtashi monumental devoriy rassomlik san'atining ham unutilishiga sabab bo'ldi. Endilikda o'rta asr hind san'atida rassomlik san'ati kitoblarga miniaturalar ishlashda namoyon bo'ldi. Dastlabki hind miniatura san'ati diniy kitoblarga ishlangan illustratsiyalar shaklida ko'rindi.

Ilk o'rta asr hind miniatyura san'ati namunalari Gujeratada saqlanib qolgan. Gujerata maktabi (XIII–XV asrlar) miniaturalarida voqelikni



Tojmahal masjid-maqbarasi

shartli va yassi, yorqin bo'yoqlarda ishlash tendensiyasi seziladi. Uning o'ziga xos tomoni odam tasvirini ishlashda ham ko'rindi. Gujera ta maktabi rassomlari tomonidan odam tasviri ko'p holda yon tomondan, ko'z esa old tomonga qaratilib ishlanadi.

MiniatURA san'ati taraqqiyotining yangi bosqichi boburiylar davri bilan bog'liq. Ko'pgina O'rta Sharq miniaturachilar Hindistonga keltirildi, taklif qilindi. Bular ichida Samarqand, Tabrizdan kelgan miniaturachilar o'z ijodlari bilan hind miniatURA san'atining ravnaqiga katta ta'sir o'tkazdilar. Boburiylar davri miniatURA san'atining dastlabki davri bevosita O'rta Sharq miniatURA san'ati ta'sirida shakllangan bo'lsa ham, lekin uning o'ziga xos tomonlari mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Bu xususiyat hind miniaturachilarining tasvirida fazoviy kenglikni ko'rsatish, borliqni hajmli qilib tasvirlashga intilishlari seziladi.

Bu davr miniatURA maktabining xarakterli tomonlari, ayniqsa, Akbarshoh hayotini aks ettiruvchi suratlarda yaqqol ko'rindi. Boburiylar davri miniatURA san'atidan asta-sekin portret san'ati keng yoyila boshlagani ham shu davr rassomlik san'ati realistik tendensiyalarining kengayib borayotganligidan, Yevropa realistik san'ati ta'siri kuchayib borayotganligidan dalolat beradi. Bu xususiyat Hind miniatURA san'atining keyingi bosqichi Jahongir podsholik qilgan davrda (1605–1627) yanada rivojlandi, portret san'ati esa yanada kamol topdi. Shu davrdan boshlab, hayotiy-maishiy janrda, ishq-muhabbat mavzusida ko'pgina suratlar ishlandi.

Tabiat, turli qush, hasharot va hayvonlar tasviri rassomlarni o'ziga jaib etdi. O'rta asr amaliy-dekorativ san'atining boyligi zangarlik, yog'och, suyak o'ymakorligi borasidagi ajoyib namunalar hind xalqining yuksak did va boy fantaziyasidan dalolat beradi.

O'rta asr hind san'ati, deyarli ming yildan ortiq vaqt davom etdi. Shu davrda yaratilgan san'at yodgorliklarining nodir namunalari insoniyat tafakkuri va aql-zakovatiga, did-farosatiga o'matilgan haykaldir.

## Xitoy san'ati

O'rta asr san'ati taraqqiyotining dastlabki bosqichi ilk feodalizm davriga to'g'ri keladi. IV–VI asrlarni o'z ichiga olgan bu davrda Xitoyda san'at va madaniyati dastlabki yuksaklikka erishdi. IV asrdan boshlab, buddizmning Xitoya kirib kelishi ham, bevosita me'morlik va haykaltoshlik san'ati turlarining kengayishi yangi janrlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

G'orlarga monastirlar ishlash, yog'ochdan hashamatli ibodatxonalar qurish, buddizm avliyolari va hojilarga atab qurilgan, o'z xarakteri va mazmuni jihatdan hind stupalariga o'xshash pagoda (ibodatxona)lar qurish

keng yoyila boshladi. Ilk feodalizm asrida devoriy rangtasvir va shoyiga rasm ishlash san'ati ham muhim o'rinni egalladi, ayniqsa, dunyoviy rassomlik san'ati boshqa san'atlarga nisbatan o'zining yetuklik davrini boshidan kechirdi. Kulol-chilik san'atida ham katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Turli ko'za va xumlar shakli badiiy bezatilishi jihatidan avvalgi davrlarga nisbatan nafislashib bor-di va asta-sekin chinni (farsor) buyumlar yasashga o'tish jarayoni sezila boshladi.

Xitoy o'rta asr san'ati va madaniyatining eng gullagan davri rivojlangan feodalizm asri (XII–XIII asrlar)ga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib, Xitoyda o'rta asrning eng katta davlatlari Tan (618–907) va Sun impreyasi (960–1279) paydo bo'ldi. Bu davlatlar o'zga mamlakatlar bilan savdo va madaniy aloqani kuchaytirdilar. Shaharlar rivojlanib, savdosotiq, hunarmandchilik va madaniyat markazlariga aylandi. Bu davrga kelib, xitoyliklar jahon ahamiyatiga ega bo'lgan ixtiolar qildilar, ya'n kompas, porox, gazeta kabilarni yaratdilar.

San'atdagi muhim o'zgarishlar bu davarda yangi tur va janrlarning yuzaga kelishidagina emas, balki eng muhimi, inson ma'naviy dunyosiga bo'lgan qiziqishning yuksakligida, uning gumanistik zaminida yaqqol seziladi.

Xitoy san'ati davrning umum taraqqiyoti bosqichli bilan uzviy bog'liq bo'lib, juda katta yuksaklikka erishdi. Bu san'atlar o'z xarakteri jihatidan dunyoviy bo'lib, ular ichida dastgoh rassomlik esa yetakchi o'rinni egalladi.

XII–XIII asrlar xitoy me'morligi taraqqiyoti davrning umumiylig sotsial-



*Ajoyib daraxti. Ma Yuan.*



*Pagoda.*



iqtisodiy shart-sharoiti bilan bog'liqdir. Tan imperiyasi vaqtida yaratilgan me'morlik yodgorliklari o'zining aniq garmoniyasi, tantanavor me'morlik shakllari, klassik soddaligi, vazmin, xotirjam ko'rinishi bilan xarakterlanadi.

Shahar qurilishi ham aniq planirovka-ga ega bo'lib, umumiy ko'rinishi jihatidan tevarak-atrofi zovur va qalin devorlar bilan o'ralgan qo'rgonni eslatadi. Shahar esa, qator kvartal (fani) larga ajratilib, ular devorlar bilan o'ralgan. «Berk shahar» deb nom olgan imperator saroyi ansambli ham minora va darvozasi bo'lgan pishiq devor bilan o'rabi chiqilgan. Tan asrida qurilgan saroylar juda serhasham va go'zal bo'lgan.

Tan asrida pagodalar qurilishi ham keng yoyilib, ular g'isht va toshlardan qurilgan. Shunday pagodalardan mashhuri g'ishtdan qurilgan Davyanta pagodasidir. Bu pagoda 652-yilda qurila boshlagan, 704-yili esa 2 qavati qo'shimcha qurilgan. Pagodaning umumiy balandigi 60 m, tag asosi esa kvadrat shaklida bo'lib, uning tomonlari 25 m dan. U tepaga tomon torayib boradi. Pagoda yetti yarusga ajratilib, uning uch tomoni kichik stupa bilan tugallanadi.

Har bir yarus g'isht karnizlar bilan ajratilib, devor yuzasi plyastrlar bilan bo'lib chiqilgan. Yuqoriga qarab kichrayib boruvchi yetti darcha binoning ko'rinishini yanada monumental, mustahkam va yuqoriga illuvchi qilib ko'rsatadi.

Sun davrida ham qator pagodalar qurildi. Ular endilikda faqat yog'och, g'isht yoki toshdangina emas, balki temirdan ham qurilib, ularning shakllari ham o'zgardi. Endilikda pagodalar ko'proq olti, sakkiz qirrali qilib qurila boshlandi. Bundan tashqari, mayda detallarga e'tibor berish, haykal, naqsh va relyeflar bilan bezatishga e'tibor ortdi. Ular endilikda me'morlik kompozitsiyasidan ko'ra, ko'proq haykaltaroshlik yodgorligiga o'xshab bordi. Tan asri pagodalariga xos vazminlik, soddalik va ulug'verlik yo'qola bordi.

Tan va Sun asri yutuqlari, ayniqsa, rassomlik san'atida kamolotga erishdi. Unda insonnning tabiat go'zalligiga bo'lgan cheksiz muhabbat o'z ifodasini topdi. Bu davrda maishiy janrda shahar hayotiga bag'ishlangan



*Ajdaho rasm  
ishlangan chinni idish.  
XVI asr oxiri – XVII  
asr boshlari. Parij.  
Mishon kolleksiyasi.*

rassomlik asarlari yuzaga keldi. Xitoy san'atida «Gul va qushlar» janri ham muhim o'rinni egallaydi. Parda, yelpig'ich va shunga o'xshash turmushda ishlatiladigan buyumlar yuzasiga qush, o'simliklar, hasharotlarning tasvirlari ishlendi. Tan asrida devoriy rassomlik san'ati ham muhim o'rinni egalladi. Buddha monastirlari saroylar devoriy suratlari bilan bezatildi. Dunxuan yaqinidagi g'orlarga ishlangan suratlar bu davr devoriy rassomligi to'g'risida tasavvur beradi. Bu suratlarda diniy mavzularda ishlangan kompozitsiyalardan tashqari, oddiy hayotni tasvirlovchi maishiy janrdagi kompozitsiyalar ham keng uchraydi.

Tan asri rassomchiligining yutuqlari manzara janrida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Bu

davrda ko'pgina manzarachi rassomlar yashab ijod etgan. Ularning asarlari ko'p hollarda bo'yiga o'ralgan materiallarga ishlangan. Kompozitsiyani bunday bo'yiga ishlash dunyoning cheksiz va ulug'vor ekanini ko'rsatishga imkon bergan. Rassomlar asarlarida baland, serviqor tog cho'qqilarini, sukunat ichiga cho'mgan o'rmon, g'orlarni tasvirlaydilar.

Ularning tantanavor, sirli ko'rinishlari kishilarni tabiat, hayot to'g'risida fikr yuritishga da'vat etadi. Manzara san'atining ravnaqi Sun asrida yangi tendensiyalar bilan boyidi, mazmunan yanada chuqurlashdi.

Sun davri manzarachi rassomlaridan biri Go Si (1020–1090) o'tmisht manzara san'ati yutuqlarini chuqur o'zlashtirib, uning hayotiy mazmunini yanada chuqurlashtirdi. U o'z risolalarida vogelikning tasviri real bo'lishi kerakligini uqtirdi va tabiatni chuqur o'rganish asosida asar yaratishni talab qildi. Tabiat go'zalligi esa uning doimiy yangilanib borishida ekanligini ta'kidladi. Tabiat sirlarini chuqur o'rganish, o'tmisht an'analarini yaxshi bilish asosidagina rassom o'z uslub va san'atini yaratishi mumkinligini ko'rsatdi.

Go Si «Kuz tumani» asarida chiziqlar ritmi va havo perspektivasi imkoniyatlardan foydalanib, tuman ichra cho'kkani cheksiz va ulug'vor tabiat obrazini yaratadi.

Go Si qora bo'yoq – tush imkoniyatlardan o'rinli foydalanadi. Birinchi planining to'q bo'yoqlarda aniq qilib ishlanishi (daraxt va kubalar), orqa planning yengil belgilab chiqilishi tabiat cheksizligi va ulug'vorligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Ijodkor tomonidan his etilgan kuz fasliga xos munglilik va sukunat, tuman paytidagi biroz nam havo tasvirida ifodali aks ettirilgan.

Sun asrining mashhur rassomlardidan biri Ma Yuan (1190–1224) bo'lib, u juda ko'p manzara asarlarining muallifidir. Ma Yuan manzaralari sodda, hayajonli. U o'z asarlarida sanoqli obraz, predmetlardan foydalanadi. Lekin chiziq va shakllariing emotsional imkoniyatidan unumli foydalanish hisobiga, o'z asarlarining tugal va ta'sirchan bo'lishiga erishadi. Asarlari esa mungli va xavotirlanish kayfiyati bilan sug'orilgan. «Qishki ko'ldagi baliqchi» asari Ma Yuan ijodiga xos tomonlarni namoyon qiladi.

Rassom qayiqdagagi tanho baliqchini tasvirlaydi. Ko'lning qirg'oqlari ko'rinxmaydi. Ular yengil tuman ichida yo'qolgan. Faqat baliqchi silueti shu suv to'lqinlarida tebranadi, atrofini o'rab olgan chiziqlar shu harakatni namoyon qiladi va kompozitsiya dinamikasini oshiradi.

Ma Yuan zamondoshi Sya Guy (1190–1225) traditsion manzara san'ati an'analarini davom ettirib, uni yanada chuqurlashtirdi. Inson va tabiat orasidagi bog'liqlikni Ma Yuanga nisbatan aktivroq ko'rsatishga harakat qildi. Insonning tabiat bilan kurashiga bag'ishlangan kompozitsiyalarini ishladi. Sun asrida maishiy janr ham rivojlandi. Shahar hayotiga bag'ishlangan lavhalar – xalq sayllari, zodagonlar hayotidan olingan sujetlarda ko'plab asarlar yaratildi. «Gullar va qushlar» janri ham Sun asrida o'zining gullagan davrini kechirdi.

Mo'gul bosqinchilari Xitoya bostirib kirib, uning madaniy hayotiga qattiq zarba berdi. Lekin mo'g'ullarga qarshi bo'lgan norozilik XIV asrning 40-yillarda monax Gju Yuan Chjan rahbarligidagi xalq qo'zg'olonida o'z aksini topdi va mo'g'ullar uzil-kesil Xitoydan uloqtirib tashlandi. San'at va madaniyat yana o'zining ravnaq yo'liga qadam qo'ydi.

XII–XIII asrlar san'atiga xos yuksaklik davri kishilarning orzusiga aylanib qoldi. Rassomlar ijodida individual xususiyatlari yo'qola boshladi. O'tmish an'analariga taqlid qilish, ko'chirish ijodda passivlikni kelтирib chiqardi. Lekin mo'g'ullar istibdodi tugagach, me'morlikda bir-muncha jonlanish sezildi. Ajoyib saroy va ibodatxonalar yuzaga keldi. Yangi shaharlar barpo bo'ldi. O'tmish xitoy me'morlik an'analarini yangi davr mazmuni bilan boyidi.

Pekindagi «Berk shahar» deb nom olgan imperator saroyi xitoy me'morlik san'atining muhim nodir yodgorligi hisoblanadi. Qator me'morlik komplekslaridan tashkil topgan bu saroy katta maydonni egal-lagan. Zinalar, yo'llar, suhbat qurish uchun mo'ljallab qurilgan shiyonlar maysa va daraxtlarga boy tabiat qo'ynda uning ajralmas qismiga aylangan. Binolar o'yma va rang naqshlari bilan bezatilgan. Pekin ibodatxonalarini ham katta komplekslardan iborat bo'lgan.

Ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan me'morlik kompleksi ichida Min sulolasi (1368–1644) maqbaralari majmuyi alohida o'rinni egalaydi. Ibodatxona, minora, yer osti uy va saroylari ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan me'morlik kompleksini tashkil etadi. Unga boradi-

gan yo'l chekkasini esa hayvon va odamlarning haykallari qatori chegaralaydi.

Me'morilikda jimjimadorlik va serhashamlikka intilishning ortishi avvalgi davr xitoy me'morligiga xos sopolik, soddalik va ulug'vorlikning yo'qolib borishiga olib keldi. Qurilgan binolarda bezakka e'tibor berish uning emotsional kuchini so'ndira boshladi. XIX asrda xitoyda o'rta asr me'morligining so'nggi namunalari yuzaga keldi. O'rta asr Xitoy amaliy san'ati ham mashhurdir. Chinni buyumlar, tosh, yog'och va suyak o'ymakorligi borasidagi bu davr yutuqlari qaytarilmasdir.

Inkrustatsiya uslubida ishlangan mebel, kashtachilik va to'qinachilik san'ati namunalari tashqi bozorlarda yuksak qadrlandi.

Xitoy san'ati Sharqdagi ko'p xalqlar va elatlari san'ati va madaniyati bilan yaqin aloqada bo'ldi, ulardan ta'sirlandi. Shu bilan birga, ularga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Qadimiy boy an'anaga ega bo'lgan xitoy san'ati o'ziga nisbatan yangi shakllanayotgan davlatlar san'atining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Yaponiya, Koreya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamalakatlari san'atkori qadimiy Xitoy san'ati an'analaridan ozuqa oldi.

## YAPONIYA SAN'ATI

Yapon san'ati irmoqlari eramizdan avvalgi 5–4 minginchilarga borib taqaladi. Feodal munosabatlar esa IV asrlardan boshlab, kurtak ota bordi.

Deyarli ming yildan ortiq davr mobaynida hukm surgan o'rta asrlarda yapon xalqi o'zining eng nodir yodgorliklarini yaratib, jahon san'ati xazinasini boyitdi.

Yaponiyada feodal munosabatlar shakllanishining ilk bosqichida, asosan, sin-to dini hukmron edi. Sintoizm qadimgi yapon diniy-mifologik konsepsiysi bo'lib, uning tub mohiyatini tabiat kuchlari va avlodlar shaxsiga sajda qilish tashkil etar edi. Feodalizmning dastlabki bosqichida (IV–VII asrlar) shu din bilan bog'liq bo'lган



Ise ibodatxonasi

yog'ochdan yasalgan sintoizm ibodatxonalarining shakllari yuzaga kelgan. Bu ibodatxonalar, so'zsiz, qadimiy xalq me'morligi asosida yaratilgan edi. Sintoizm ibodatxonalarining xarakteri va tuzilishi to'g'risida keyingi davrlarda qurilgan va rekonstruksiya qilingan Ise ibodatxonasi tasavvur beradi. Odatga ko'ra, Ise ibodatxonasi har 20 yilda qayta qurilgan va har safar uning aynan shakli, o'lchami va xarakteri saqlab qolingga. Ise ansambli bir qator yog'ochdan qurilgan binolardan iborat bo'lib, uning markazida asosiy ibodatxona mavjud. Ibodatxona

to'rtburchak shaklida bo'lib, yerdan ustunlar yordamida ko'tarilgan, badiiy bezatilish jihatidan esa sodda va jiddiy.

Ibodatxona uchun tanlangan sariq rangdag'i yapon kiparis daraxting yog'ochi esa uning ko'r kam bo'lishini ta'minlagan. VI asrdan boshlab, Yaponiyada budda dini tarqala boshladи va tezda keng tarqalib, sintoizm bilan aralashib ketdi. Bu o'zgarishlar bevosita san'at va madaniyatda ham o'z ifodasini topdi. Chekkadan kelgan ta'sir bevosita mahalliy an'analar bilan qo'shilib, yangi original san'atning yaratilishiga sabab bo'ldi. Yaponiyaga buddizmning yoyilishi uning Koreya va ayniqsa, Xitoy bilan yaqin aloqada bo'lishiga olib keldi. Yaponiyaning birinchi poytaxti Nara (VIII asr boshlarida shahar qurilishi tugallangan) shahrida qurilgan dastlabki monastir va buddizm bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina binolar, bevosita Xitoy me'morlik san'atini takrorlaydi. Shunga qaramasdan, bularda yapon san'atiga xos xislatlar ham seziladi. Ilk buddizm ibodatxona ansamblidan dastlabki Xorudzi ibodatxonasiadir. Bino tosh asos ustiga qurilgan bo'lib, devorlari qizil lak bilan bo'yalgan, toming chekka tomonlari biroz qayrilgan. Bu ansambl o'z prototiplaridan dastlab planirov-kasining erkinligi, mashtabining ixchamligi va jiddiyligi bilan xarakterlanadi.

Yapon san'atining dastlabki rivojlangan davri Xeyan feodal davlatining tashkil topishi 794—1192-yillariga to'g'ri keladi. Saroy va ibodatxona



*Quruq bog' ko'rinishi.*

qurilishi bu davrda birmuncha intensiv bo'ldi. Bu qurilgan binolar ulug'vor ko'r kam va shodiyona ko'rinishga ega. Ayniqsa, imperator saroyining sodda, lekin yuksak did bilan bezatilishi, uning tevarak-atrof va tabiat bilan uyg'unligi butun ansamblning nafosatini, go'zalligini oshiradi.

XII asr so'ngidan boshlab, Yaponiya feodal munosabatlarining rivojlangan davriga qadam qo'ydi. Endilikda avvalgi tantanavor binolar o'rniga, sodda, intim xarakterdag'i binolar yuzaga keldi, devorlarda tokchalar paydo bo'ldi, kitob javonlari devor sathi ko'rinishini o'zgartirdi. Shahardan tashqarida saroy, rezidensiya va ibodatxonalar ko'plab qurildi. Yapon san'atining o'ziga xos tomonlardan yana biri park – bog'larni bezash va tashkil etishda ko'rinadi. Yapon park – bog'lari tabiat ko'rinishini qaytaradi. Suniy ravishda sharshara, ariq, ko'l, orol, tepaliklar barpo etilar edi. Shuningdek, muqaddas tabiat burchaklari, kichik hajmdagi bog'lar ham yaratilar edi. «Quruq bog'sular faqat yirik va mayda toshlardan tashkil topgan bo'lib, ular ko'p orollarga ega bo'lgan cheksiz okeanning ramzi vazifasini o'tashi lozim edi.

XVI–XVIII asrlarda saroylarda park-bog' ansamblari yaratildi. Ular erkin, assimetrik planda qurilgan. Shunday saroy park-bog' ansambl ichida eng mashhuri Kiotodagi Kasura ansamblidir.

XVII asr feodal me'morligi rivojining so'nggi bosqichi nihoyatda jumjimador ibodatxonalar qurilishi bilan xarakterlanadi. Bu o'rinda, so'zsiz, Pikkodagi ansambl diqqatga sazovordir.

Yapon plastikasining ravnaqi, bevosita bu yerlarda buddizmning yo-yilishi bilan bogliqidir. Bungacha esa ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan mayda plastika mavjud bo'lgan. Buddizm bilan bog'liq dastlabki haykallar Xorudzi ibodatxonasi uchun yaratilgan edi. Buddanining taxtda o'tingan holda odamlarni tinchlantirayotgan, ularga xotirjamlik baxsh etayotgandek qilib, bronzadan ishlangan tasviri juda jonli chiqqan. Geometrik chiziqlarning sodda va jiddiyligi, kompozitsiyasining frontal holda yechilishi va proporsiyalarning biroz uzaytirib olinishi asarning o'ziga xos tomonini belgilashda muhim o'rinni egallaydi.

VIII asrdan boshlab, obrazning individual xislatlarini ochib ko'rsatishga intilish ortdi. Biroz keyinroq esa (IX–X asrlar) ko'p qirrali va ko'p qiyofali xudolar obrazi yuzaga keldi. Imo-ishora, harakat haykaltarosh uchun muhim ifoda vositasi bo'la bordi. Obrazning individual xislatlarining ochishga intilish esa portret janrining rivojlanishiga hissa qo'shti. Yaponiya feodalizmning rivojlangan davrini boshidan kechirayotgan davrda haykaltaroshlikda yana o'zgarishlar sezila boshladi. Buddizm bilan bog'liq murakkab marosimlarning kamayib borishi, ibodatxonalarda Buddha haykalining kamayishiga sabab bo'la boshladi. Uning o'miga tanqli shaxslarga – monax va avliyolarga, yirik siyosiy arboblarga atab haykallar ishlash keng o'rinni egallay boshladi. Buddizm bilan bog'liq



To 'lqin. K. Xokusay.

bo'lgan dastlabki rassomlik namunalari Xorudzi ibodatxonasi devorlariga ishlangan suratlar bo'lib, ularda Buddha hayoti bilan borliq bo'lgan voqealar tasvirlangan. Bu suratlar birmuncha dekorativ, kompozitsiyasi ritmik, obrazlari umumlashma tarzda yechilgan. Yapon rassomchiligi maktabi «yamatoe» ning shakllanishi X asrlarga to'gri keladi (yamatoe aynan «yapon rassomchiligi» ma'nosini bildiradi). Yamatoe rassomlari yil fasllari manzarasi, hayotiy lavhalar, adabiyotlarga illustratsiyalar chizdilar. Pardalar uchun rasmlar ishladilar, uy devorlarini bezadilar. XIII—XIV asrlarda hayotiy lavhalar tasvirini ishslash, tasvirlanuvchining individual xarakterini ochishga intilish ortdi va portret san'ati rivojlandi. Rassom Fudzivara Takanobu (1142—1205) chizgan «Kamakura hokimi Minamoto Yoritoma portreti» mashhurdir. Minamoto Yoritomaning yasanib, savlat to'kib o'tirgan payti tasvirlangan. Uning qarashlari jiddiy va teran. Yaponiya san'atida manzara janriga qiziqish ham kuchli bo'ldi. Bu xususiyat, ayniqsa, XV asrdan keyin keng yoyildi. Odatda, tush bilan monoxron manzaralar ishslash tendensiyasi ko'pgina rassomlarmi o'ziga tortdi. Manzaralar ko'pincha gorizontal va vertikal shoyilarga ishlangan. Devorlarga, yig'iladigan parda va yelpig'ichlarga ham tabiat ko'rinishini ishslash yapon san'atiga xos xususiyatdir. Devoriy suratlarga ko'p hollarda to'q ko'k yoki oltin fon olinib, ular ustidan yorqin dekorativ bo'yoqlarda surat ishslash yapon interyerlarining o'ziga xos tomonlarini belgilashda muhim o'rinni egalladi. XVII asrda demokratik Ukiyoe maktabi shakllandı (Ukiyoe — «kundalik hayot san'ati» demak). Oddiy xalq

esa, bu san'atning bosh qahramoni bo'lib qoldi. Ko'pgina yetuk yapon rassomlari o'zlarining gravyuralarida (asosan, ksilografiyada) kundalik hayot qahramonlarining mehnati, xatti-harakati, go'zalligini kuyladilar. Inson his-tuyg'ularini yoritishga intildilar. Kitagava Utamaroning (1753–1806) ayollar portreti, feodalizm asrining so'nggi vakillaridan bo'lgan Katsusika Xokusayning (1760–1849) ajoyib manzaralari yapon demokratik san'atini yanada boyitdi, emotsiyal tomonining ortishiga xizmat qildi.

Yaponiya amaliy-dekorativ san'ati taraqqiyoti mamlakatning badiiy madaniyati taraqqiyoti bilan birga rivojlandi. Kulolchilik san'atida yapon ustalari ajoyib namunalar yaratdilar. Metall buyumlar yash san'ati borasida ham katta yutuqlar qo'lga kiritildi. So'nggi feodalizm asrida shahar madaniyatining yuksalishi bilan amaliy san'at yanada rivojlandi. Chinni va shoyiga gul ishlash borasidagi yutuqlar ham yapon san'ati mavqeyining yanada ortishiga xizmat qildi.

## JANUBIY-SHARQIY OSIYO SAN'ATI

Janubi-Sharqiy Osiyoda yashovchi xalq va elatlar ham o'ziga xos san'at yaratib qoldirdi. Bizgacha saqlanib qolgan madaniy-badiiy yodgorliklar shu yerdagagi xalqlarning boy o'tmishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu davlatlar Hindiston, Eron, Uzoq Sharq mamlakatlari bilan yaqin aloqada bo'lib, ular san'atidan ilhom oldilar, shu bilan birga, ularning san'ati va madaniyati xarakteriga ham o'z ta'sirlarini o'tkazdilar.

Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlari san'ati va madaniyatida dastlabki davrlarda Hindistonning ta'siri sezilarli bo'lди. Hind badiiy prinsiplari bu yerda o'zining yangi hayotini boshladi. Bu prinsiplar Janubiy-Markaziy Osiyodagi mamlakatlarning xarakteri, tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog'liq holda rivojlandi, o'ziga xos ko'rinish va mazmun kasb etdi. Ni-hoyat o'z prototipidan butunlay farqlanadigan milliy, o'ziga xos fazilat kashf etgan san'at namunalari yuzaga keldi. Bu xususiyat VI–VIII asrlar Indoneziya, Kampuchiya, Vyetnam, Birma san'atida yaqqol sezila boshladi.

Janubiy-Sharqiy Osiyo sotsial tarixining muhim tomonlaridan biri, quldarlik formatsiyasining bu yerlarda rivojlanmaganligidadir. Feodal munosabatlarning shakllanishi so'nggi ibridoiy tuzumning yemirilishi bilan bir vaqtida sodir bo'lди.

Bu so'zsiz, o'rta asr inadaniyati xarakterida o'z ifodasini topdi, Janubiy-Sharqiy Osiyodagi mamlakatlar san'ati dastlabki bosqichida yog'och me'morchiligi yetakchi o'rinni egalladi. Bu binolarni qurish prinsiplari qadimgi davr an'analariga tayanadi. Toshdan qurilgan dastlabki me'morlik yodgorliklari VI–VII asrlarga to'g'ri keladi va ular yog'och me'morligi

prototipini qaytaradi. Bu binolar o'z xarakteri jihatidan Hindistondagi qoyaga ishiangan ibodatxonalariga yaqinlashib ketadi. Keyinchalik bu mamlakatlarda minorasimon ibodatxonalarining turli variantlari keng o'rinni egallay boshladi. Indoneziyadagi Borobudur, Kambodjadagi Angkor Vat va Bayon me'morlik ansamblisi jahon me'morigining qaytarilmas, tengi yo'q yodgorligi hisoblanadi. Bu ansambilarda katta mashtabda-  
gi me'morlik kompleksining planirovkasi ijobjiy hal etilgan. Janubi-shar-  
qiy Osiyo tasviriy san'ati, ayniqsa, haykaltaroshligi ham o'ziga xos xu-  
susiyatlarga ega. VII–VIII asrlarda Indoneziya va Kambodjada yaratil-  
gan haykaltaroshlik asarlari bevosita hind haykaltaroshligi bilan teng-  
lashadi. Bu yerlarda me'morlik va haykaltaroshlik san'ati sintezi sodda,  
aniq va organik hal etilgan.

XIII–XIV asrlar Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining eng gurkiragan  
davridir. Bu davrda o'ziga xos nodir yodgorliklar yaratildi. Keyinchalik  
bu topilgan uslub va prinsiplar qaytarila boshladi. Ba'zi mamlakatlarda  
esa xitoy san'ati ta'siri katta bo'lgan.

## UCHINCHI BO'LIM.

### XX asr xorijiy sharq san'ati

XIX asrning o'talaridan Sharq mamlakatlarda mustamlakachilikka qarshi kurash kuchaydi, milliy ozodlik harakati boshlandi. Milliy burjuaziya safi kengayib, ziyolilar safi ko'paydi. Ular xorij mamlakatlari bilan yaqindan tanisha boshladilar. Milliy va iqtisodiy jonlanish xalqlar orasidagi aloqalarni kuchaytirdi. Yevropaning Sharqqa Sharq mamlakatlarining G'arba bo'lgan qiziqishining kuchayishi madaniy aloqalar, yangi pog'onaga ko'tardi. Sharq mamlakatlarda ham badiiy maktablar ochila boshladi, muzeylar tashkil topdi, turli ko'rgazmalarga mahalliy san'atkorlarning ishlari namoyish etilishi san'at va madaniyatda yangi jarayonlarga yo'l ochdi. Yangi tashkil topgan badiiy maktab va akademiyalarda dars berish uchun chet eldan, asosan, Yevropadan o'qituvchilar taklif qilindi. Mahalliy yoshlarning bir qismi esa Yevropadagi ko'zga ko'ringan badiiy maktablarga o'qishga jo'nab ketdilar, rassomlar ustaxonasida bo'ldilar. Bu harakatlar natijasida mahalliy rassom, haykaltarosh va me'morlar g'arbiy Yevropa san'ati an'analarini, ishlash uslub va priyomlariga tayanib, mahalliy san'at an'analarini hisobga olgan holda yangi davr san'atining yaratishga intildilar. Ilg'or san'atkorlar jonajon tabiat, xalq hayoti, uning inqilobiy faoliyatiga bag'ishlab asarlar yaratdilar. Sharq mamlakatlari san'ati taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ya boshladi.

#### 1. Misr Arab Respublikasi san'ati

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Misr Arab Respublikasi san'ati rivojlanishida boshqa Sharq mamlakatlarda bo'lgani singari yangi jarayonlar sodir bo'la boshladi. Sharqda G'arb san'ati an'analarini asosida yangi yo'nalishlar shakllandi. Mahmud Muxtor, Gamal as Sagini, Ahmad Usmon kabi haykaltarosh, Taixa Xalim, Muhammad Ovays, Muhammad Nagi, Mahmud Sayid, Ahmad Sabri va boshqa qator rangtasvirchilar jahon realistik an'analarini milliy san'at uslublari bilan uyg'unlashtirishga intilib asarlar yarata boshladilar. 1908-yili Qohirada Nafis san'at maktabi tashkil etildi. Keyinroq esa shu maktab Badiiy institutga aylantirildi. Maktab milliy rassomlar tayyorlashda roli katta bo'ldi. Ko'pgina san'atkorlar shu maktabda yetishib chiqdilar.

Mahmud Muxtor, Misr Arab Respublikasining yangi realistik haykaltaroshligining asoschisi, milliy san'at maktabining taniqli vakili Mahmud Muxtor (1896–1934) monumental va janrlı haykaltaroshlikda samarali mehnat qilgan ijodkorlardan. M. Muxtor Qohirada badiiy institutni tugatdi (1908), so'ng Yevropada, asosan, Fransiya va Italiyada



*Misrning uy'onishi. M. Muxtor.*

malakasini oshirdi, ayniqsa, fransuz realistik san'ati uni o'ziga maftun qildi. Roden ijodi bilan yaqindan tanishdi. Asarlarida Misr xalqi, uning ma'naviy dunyosi, ozodlikka intilishini aks ettirdi. U qadimgi misr san'ati an'analarini yangi davr san'atini ustalik bilan uyg'unlashtira oldi. Qohira universiteti oldidagi o'rnatilgan «Misrning uyg'onishi» haykali (1928) mamlakatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, Misr xalqining ozodlik va ma'rifatga intilishi ramziy obrazda parajisini olib tashlayotgan ayol va sfinks haykali orqali hal etadi.

Mahmud Muxtor asarlari ta'sirchan, nafis, tugallangan, ko'rinish jihatidan monumental va ulug'vordir. Ujanqli haykaltaroshlik borasida ham samarali

mehnat qildi. Uning hajm jihatidan katta bo'lмаган «Qishloq oqsoqlining hayoti», «Suvga», «Qurollar», «Qishloq qorovuli» kabi kompozitsiyalari o'ziga xos va hayotiy. M. Muxtoring «Konstitutsiya», «Adolat» kabi bo'rtma tasvirlari siyosiy arab Saad Zaglulu yodgorligi postametinga ishlangan (1930). Bu bo'rtma tasvirlar qadimgi Misr relyefi san'ati an'analarini davom ettirdi. Yuzni, yon tomonidan, gavdani old tomonidan ishlanishi ham asarga alohida milliy ruh baxsh etadi.

Haykaltaroshning «Ishda», «Nil kelini» (1972) va b. asarlari ham an'analarga sodiq holda ishlangan. M. Muxtor portret san'atidagi asarlari haqqoniy bo'lib, bo'rttirish, bezak berishdan xoli ishlanadi. Har bir tasvirlanuvchi ichki ma'naviy dunyosi to'liq ochilishiga e'tibor beradi. Individual xislatlarini ochib berishga harakat qiladi. Saad Zaglulu portreti (1928, bronza), Shayx portereti (1927) shunday asarlardan.

Haykaltarosh qator realistik janqli kompozitsiyalar ustida ham ishladi, ularda hayotiy voqealar o'z aksini topdi: «Ko'za ko'targan qiz»,



Dugonalar. A. Usmon.

• Ertak bilan uchrashuv» va boshqalar. M. Muxtor yirik haykaltarosh, uning ijodi keyingi Misr san'ati rivojida muhim o'rinni egalladi. Uning asarlari Misrning yirik muzeylaridan o'rin egallagan. Qohirada esa uning memorial muzeyi ham mavjud. Bu muzey 1952-yili tashkil etilgan.

Misr Arab Respublikasi san'atida haykaltaroshlik birmuncha yaxshi rivojlangan. Qator haykaltaroshlar muhum voqeа va shaxslarga atab yetuk asarlar yaratganlar. Gamal as Sagini shunday ijodkorlardan. U bo'rtma tasvir va mahobatli san'atda asarlar yaratib tanilgan. Gamal Abdel Nosir mahobatli haykali, «Cho'pon», «Onalik» kabi asarlar muallifi. Sagini bo'rtma tasvir san'atida samarali mehnat qildi. U mis plastinkalarida yoki yog'ochda asarlar yaratishini xush ko'radi. Uning «Nil» (1951), «Osmon va yer» (1952), «Urush va tinchlik» (1958) kabi asarlari shu yo'sinda ishlagan.

Haykaltaroshning ilk asari hikoyanavis bo'lib, ramziy siymo va detallardan asar g'oyasini yechishda keng soydalandi. Uning «Kun» deb nomlangan kompozitsiyasi chap tomonida yirik planda tasvirlangan reliefsida uyqudan uyg'onib, quchog'ini ochib, yangi kunni qarshilayotgan ramziy siymoni yaratdi. Bu yangi Misrning uyg'onayotgan ramzi sisatida tasvirlanadi. Uning orqa tomonida quyosh gardishi o'z nurlarini taratayotgan, turli yoshdagи odamlar, hayvon, daraxt ko'rinishlari yangi hayot mazmunini yanada to'ldirgandek. Relyefdagi odamlar tasviri, turli ramz va yozuvlar umumkompozitsiya dekorativligini oshirib, naqqosh asariga o'xshab ketadi.

Haykaltarosh Ahmad Usmon o'z asarlarida davming muhim voqealarini aks ettirishga, uyg'onayotgan misr kishilarini, ayniqsa, ayol-larning hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishilarni iloji boricha haqqoniy ifodalashga intiladi. Uning «Sayr», «Qiz boshi» haykali shunday asarlardandir.

**Haykaltarosh Anvar Abdel Masul** asarlari onalik mavzusiga bag'ishlangan. Klassik misr haykaltaroshligining an'analariga tayangan o'z asarlarida plastik go'zallik va ifodalilikka erishgan. XX asr misr haykaltaroshligida portret san'ati ham keng rivoj topdi. Dia as Sakafu, Muhiddin Tohiriy, Abdul Qodir shu janrda samarali mehnat qildilar. Animal janr ham misr haykaltaroshligida o'z o'mini egalladi. Mahmud Muso portretdan tashqari animal janrda ham asarlar yaratdi.

XX asr Misr rassomchiligi o'z rivojida haykaltaroshlik singari jaryonlarni bosib o'tdi. Milliy san'at an'analariga sodiq holda yangi davr san'ati yutuqlaridan bahramand bo'lishga intilish ko'pgina ijodkorlar ijdiga xos faoliyat bo'ldi. Yevropa badiiy maktablarida o'z ma'lumotlarini olgan yoki o'qigan Misr rassomlari akademik san'at va yangi avangard san'ati yo'nalishlarida ijod qildilar. Muhammad Nagi (1888–1956) misr realist rassomlaridan. Aleksandriyada tug'ilib, Florensiya va Parjida badiiy ta'lim oldi (1910-yillar). 1931–1932-yil Efiopiyanida ishlagan. «Atelye» jamiyatining tashkilotchisi, Qohira badiiy instituti direktori (1937-yildan), Zamonaviy san'at muzeyi direktori (1939-yildan) bo'lib ishlagan. Misrda tug'ilib o'sgan bu san'atkor Fransiyada, so'ngra Florensiya-



*Bo'rima tasvir. M. Muxtor.*



*Bo'rtma tasvir. M. Muxtor.*

da tasviriyot asoslarini egallab, realistik rassom sifatida tanildi. Nagi mavzusi keng, xalq hayoti uning kundalik turmushi rassom ijodining bosh yo'nalishini belgilaydi. Rassom portret san'atida rasmiy portretlar muallifi sifatida ham keng jamoat-chilikka tanilgan. Nagi manumental dekorativ rangtasvirda ham asarlar yaratdi. Uning Aleksandriyadagi rasmiy binolarga ishlangan rasmlari o'zining yorqin koloriti, qalamtasvirming o'tkirligi bilan ajralib turadi.

«Uyg'onayotgan Misr» asarida bo'layotgan voqeaneing cheksiz ulug'vorligi chuqur his ettirilganligidan dalolat beradi. 30-yillarda Nagi Aleksandriyadagi kasalxonalardan



*Baliqchilar. Muhammad Ovays.*



Hassib Issa. Sibizg'a sotuvchi.



Muhammad Oveys. Suhbat.

biriga katta devoriy rasm ishlab, Misr, uning o'tmishi va buguni haqida qiziqarli kompozitsiya yaratdi. 1937-yili esa Parijda Misr pavil'oni uchun Aleksandriya maktabi kompozitsiyasini ishlab olqishga sazovar bo'ldi.

Zamonaviy Misr rangtasviri asoschisi Mahmud Sayid ijodi (1897–1964) klassik yevropa san'ati an'analari asosida shakllandi. Posimpresionizm, sovizm ta'sirida bo'lgan bu rassom ranglarining yorqin olinishi bilan ko'zga tashlanadi. U har bir buyum va narsani shartli lokal ranglar bilan ishlab, reflekslar imkoniyatidan foydalandi. Shakllarni silliq va lokal rang bilan ishlaydi. Bular uning ishlariga xos teatr sahnasi asarlarini, aniqrog'i sun'iy teatr maketlarini eslatadi. Shu bilan birga rassomning shunday ishlash uslubi uning asarlariga o'ziga xos shoirona ruh kiritib, asarlarini boshqa san'atkorlarning ishlaridan ajratib olishga ko'maklashadi. Mahmud Sayid ijodiga xos xususiyatlar uning «Mersa Matrux shahri» asarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Rassom mavzusi rang-barang («Kuz» (1929), «Ibdot portreti» va b.).

Ahmad Sabri (1886–1955). Qohirada, so'ng Parijda badiiy ta'limga oldi. U o'z ijodida psixologik portret yaratish yo'lida tinmay mehnat qildi. Yozuvchi Tavfiq al Hokim portretida (1973) ijodiga xos xususiyatlar yaqqol ko'rindi. Asar koloriti yorqin kumushsimon sariqoltin jigar-rang portretning badiiy tomonini ochishda muhum rol o'ynaydi. Rassomning «Bosh kiyimli ayol», «Musiqachi» va b. asarlarda uning dasxatini ko'rish mumkin. 1952-yil qirol hukmdorligiga barham berildi. Ingliz mustamlakachilariga chek qo'yildi. Lekin respublika rivojiga hissa qo'shish, vatanparvarlik ruhi XX asr ikkinchi yarmi san'atining muhim tomoniga aylandi. Shu davrdan realistik san'at, uning publisistik ko'rinishlaridan

grafika va plakat san'ati keng rivoj topdi. Shu yillarda Vatanni himoyaga da'vat etuvchi plakatlar yaratildi. Masalan, Abdel, Nafs, Izzat plakatlari shunday ko'tarinkи ruhda ishlangan. Rassomlar Muhsin Qadroviy, Sohib Amri milliy ozodlik harakatiga atab qator asarlar yaratdilar. Masalan, Muhsin Qadroviyning «Oq kiyimdagи arab jangchilar», Sohib Amrining «Xalq Port Said himoyasiga» bag'ishlangan kompozitsiyalari ayni shu yillarda yaratilgan.

Ovays Muhammad rangtasvir borasida samarali ijod qilgan yirik ijodkorlardan. Qohirada rassomlik institutini tugatgan bu san'atkor mehnatkashlar hayotiga atab asarlar yaratgan. «Temir yo'l qurilishi» (1958), «Ustaxona» (1958), «Nay chaluvchilar», «Dehqon oilasi» (1950-yillar) va boshqa asarlar umumlashma shakllarda talqin etilgan.

XX asr misr san'atida amaliy bezak san'ati ham rivojlandi. Kanda-korlik, miskarlik, zargarlik, ayniqsa kulolchilik borasida ijodkorlar katta yutuqlarga erishdilar. Mashhur kulollar o'z asarlari bilan mamlakat tashqarisida ham tanila boshladilar. Shu o'rinda usta kulol Sayd as Sadr asarlari diqqatga loyiq. An'anviy kulolchilik san'atida mehnat qilib, unga yangi zamon ruhi bera olgan bu san'atkor asarlari o'zining ixcham shakl yechimi, faktura go'zalligi va texnologik yechimining nozikligi bilan yaxshi taassurot qoldirdi.

## 2. Mag'rib san'ati (Tunis, Marokko, Jazoir).

XX asrga kelib Tunis, Marokko, Jazoir yerlарida butun sharq mamlakatlarida bo'lgani singari badiiy ijodning yangi shakl va yo'nalishlari rivojlandi. Mag'rib me'morligi mahalliy va jahon me'morligi an'analari va ularning uyg'unlashivi jarayonlarini boshidan kechirib, yangi davr ruhini ifodalovchi zamonaviy binolami dunyoga keltirdi. Bu binolar qurilishida mahalliy me'morlar bilan bir qatorda Yevropa me'morlari ishtirok etdilar.

Tasviriy san'at rivojlanishi boshqa Sharq davlatlaridagidek, realistik yevropa san'ati an'analalarida shakllandı. Rassomlar o'z asarlarda xalq turmush tarzi, odatlari, manzarasini aks ettirganlar. Jumladan, Tunis rangtasvir va grafika san'atida ijod qilgan rassomlar shu mavzuda qator asarlar yaratdilar. Rangtasvirchilar 3. Turki, D. Abdulaziz, grafik rassom A. Gurji ijodi Tunis san'ati jarayonlarini ko'rsatadi. Ular o'z asarlarda xalq hayatini aks ettirish bilan birga jamiyatdagi ziddiyatlarni ham ochib berishga harakat qiladi. Jumladan, A. Gurji asarlari kinoyali tarzda biroz hajviy kompozitsiya shakllarda jamiyatdagi notenglikni aks ettiradi. Uning «Uysiz va nonsiz oila» asari shunday asardan. 1950-yillardan boshlab Marokashda ham tasviriy san'at rivojlana boshladi. Mahalliy rassomlar xalq hayatiga bag'ishlangan asarlar yaratdilar. Ahmad Drissi, Hasan al Glaki va b. ijodi shu o'rinda diqqatga sazovor. Bu yillarda Jazoir tasviriy



Ozodlik yodgorligi. Javad Salim.



Qalamtasvir. Javad Salim.

san'ati ham tez rivojlana boshladi. Muhammad va Umar kabi rassomlar milliy mavzuda asarlar yaratdilar. Jazoir san'atkorlari safi Ikkinchiji jahon urishidan keyin yanada kengaydi. Buzid, Benater, Kesus, Xadda kabi rassomlar shu davrdan badiiy hayotda faol ishtirot etdilar. Muhammad Issaxem birmuncha publisistik qalamsuratlari bilan matbuot sahifalarida ishtirot etib, xalqni ma'rifat va taraqqiyotga da'vat etishga intildi. Uning «Bizning onalarimiz va bolalarimiz bundan keyin och qolmasligi kerak», «Bu jippi kichkintoylarni yorqin erta kutadi» asarlari shular jumlasidanadir. U kitoblarga ham illustratsiyalar ishlagan.

### 3. Suriya Arab Respublikasi san'ati

Suriyada 1930–40-yillarda milliy ozodlik harakatining ko'tarilishi bilan birga san'ati ham rivojlanib boradi. Avval Usmoniyalar Turkiyasi, 1920–43-yillarda Fransiyaga qaram bo'lgan va nihoyat 1946-yildan boshlab mustaqillikka erishgan bu respublika san'ati XX asr sharq xalqlari hayotida sodir bo'layotgan jarayonlardan ortda qolmadidi. Chet ellarda ta'llim olgan G'arbiy Yevropa san'atidan ta'sirlangan suriyalik haykal-tarosh va rassomlar o'z ijodlarida G'arb san'atidagi deyarli hamma oqim va yo'nalishlarda ijod qildilar, impressionizm, surrealizm, simvolizm ko'pgina ijodkorlar uchun asosiy yo'nalish bo'ldi. Milliy san'at an'analarini, xalq san'ati va Sharq dekorativ san'ati ham suriyalik rassomlar asarlariga zamonaviy rassomlik rivojida muhim o'rinni egalladi. Ular xalq hayoti, uning ijodkorlik mehnati va ozodlik uchun olib borgan kurashini aks

ettirishda ko'proq realistik uslubga murojaat qiladilar. Taufik Tarik, Mishel Kyurshe, Mahmud Jalol va boshqa san'atkorlar shu yangi mustaqil Suriya davlati san'ati taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shdilar. Mahmud Jalol (1911–1976) Suriyaning taniqli rassomi, hozirgi zamон Suriya san'ati asoschilaridan biri, 1935–39-yillarda Rim Badiiy Akademiyasida tahsil ko'rib, Karrachi, Karavajollar ta'sirida asarlar yaratdi. O'z ijodida akademik yo'nalish tarafidori. Mahmud Jalol Suriyada tashkil etilgan «Andaluziya klubи» tashkilotchilaridan, Suriya rassomlari uyushmasi asoschisi. Ijodi xalq hayoti kundalik turmushini aks ettirishga qaratilgan. «Cho'pon» (1950), «Ko'zali ayol» (1953) va b. Mahmud Jalol haykaltaroshlikda dastgoh va mahobatli san'at asarlari muallifi: Ibn Rushdi haykali, «Partizanlar» va b. Suriya rassomlaridan yana biri Taufik Tarik (1875–1940) birinchilardan bo'lib moybo'yoq rangtasvirda ijod qila boshlagan. Ijodiy rang-barang, hayotiy va tarixiy mavzularda asarlar yaratgan. «Al ma'mun kengashi», «Xattidagi jang» va b. Damashqda uning me'morial muzeyi mavjud.

Mishel Kyurshe (1900–1973) suriya rangtasviri rassomchiliginning asoschisi. Mishel Kyurshe Damashqda Badiiy Akademiyada dars berган, shogirdlar tayyorlagan. Mavzusi xalq hayoti, uning ruhiy kechinmalarini ifodalashga qaratilgan «Qayg'u», «Arab chodirlari» kabi asarlari mavjud. Suriya badiiy hayotida Damashq muhim o'rinni egallaydi. Shu yerda dastlabki muzey 1919-yili tashkil topgan. 1936-yili u yangi binoga ko'chirilgan va kengaytirilgan, 1961-yili Damashq Davlat muzeyiga aylantirilgan. 1960-yili Badiiy rassomlik universiteti qoshida tashkil etilgan, keyinchalik u Badiiy Akademiya nomini olgan. Suriya san'atida manzara rassomchiligi keng rivojlangan ko'pgina rassomlar shu janrda salmoqli asarlar yaratdi. Shular ichida Nazim Jafariy (1918) alohida o'rinni egallaydi. U Qohirada rassomlik asoslarini egallab qaytgan. Sharif Orifali ham Qohirada san'at asoslarini egallagan. U o'z asarlarida tabiat manzaralarini aks ettiradi.

#### 4. Iroq san'ati

XX asr boshlarida Iroq me'morchnligi yangilandi va g'oyalar rivojlandi. Bag'dod, Masula Basra kabi shaharlar taraqqiy topa bordi. Qurilishda jahon me'morlik san'ati an'analari yangi davr san'atida o'z ifodasini topdi. 1939-yildan Bag'dodda tashkil etilgan nafis san'at instituti rassomlar tayyorladi. 1940–50-yillarda rassomlar ustaxonalar tashkil eta boshladi. Ular 1959-yili rassomlar assotsiatsiyasiga birlashdi. Haykaltaroshlik va grafika 1958-yil bo'lib o'tgan inqilobdan so'ng alohida o'rinni egallab milliy ozodlik g'oyalarini o'zida ifoda etdi. Javad Salim (1919–1961) yirik rassom va haykaltarosh. Uning rassomlikka oid asarlarida formalistik san'at ta'siri kuchli, aksincha haykaltaroshlikda milliy san'at



*Ozodlik yodgorligi parchasi.*

an'analariga sodiq va realistik san'at an'analariga murojaat qiladi. Salimning 1958-yil 14-iyul inqilobiga bag'ishlangan kompozitsiyasi Bag'dod maydonida o'rnatilgan. Kompozitsiya katta bo'shma tarzda yechilgan. Uzunligi 50 m, eni 4 m bo'lgan bu asarda qadimiy Iroq, Mesopotamiya umumshartli shakllar talqinida ko'rindi. Rassomlar ijodida maishiy mavzu yetakchi o'rinni egallaydi. Xalq turmush tarzi, urf-odatlari ular nazari dan chekkada qolmagan. Janri portret keng o'rinni egallaydi. XX asr san'ati uslubiy rang-barangligi ham Iroq san'atidan xoli emas. Iroq xalq amaliy bezak san'ati keng rivojlangan. Bu san'atda an'anaviy uslub zamon ruhi bilan boyitilgan. Zamonaviy Iroq san'ati XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan shakllana boshladidi. Shu rivojda milliy rassomlar Abdel Qodir va Muhammad Solih Zaki xizmati katta. Ular zamonaviy Iroq san'atiga asos soldilar. Bu rassomlar Yevropa rassomlik san'ati an'analariga tay-anib ijod qildilar. Abdel Qodir turli mavzularda ijod qilgan bo'lsa ham portret san'atida ruhiy kechinmalarini ochib bera olgan asarlar yarata oldi. Zaki janri kompozitsiya va natyurmortlarda samarali ijod qildi. U yirik rassom va haykaltarosh.

### 5. Livan san'ati

Livan zamonaviy san'at rivojida Yevropa muhim o'rinni egalladi. Livan rassomlari Xobib Sur, Qaysar Jumayyol, Mustafa Farux va boshqa shu san'at rivojida yo'l boshladilar. Ular Yevropa realizimini milliy san'at uyg'unligida badiiy madaniyatni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shdilar. Badiiy maktab va muzeylar tashkil etishda ishtirok etdilar. Jumladan, Qaysar Jumayyol Livan Badiiy Akademiyasi tashkilotchilaridan bo'lib, realistik san'at rivojiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Mustafa Farux (1906–1957) rangtasvirning portret va manzara janrida ijod qiladi. Rashid Vaxbi (1917) manzara va portret san'atining yirik vakili o'z obrazlari ruhiyatiga katta e'tibor beradi. Livan san'atida manzara janri ham ko'pagina rassomlarning sevimli yo'nalishi. Qaysar Jumayyol (1898–1958) yorqin, espesiya his hayotiga boy asarlar muallifi sifatida tanilgan. Umar Onsi (1901) akvarelchi rassom sifatida uslubiy jihatidan boy va rang-barang. Bu san'atda realistik yo'nalish bilan bir qatorda avangard realistik uslub yetakchi o'rinni egallaydi. Haykaltarosh Yusuf al Xoayek (1883) va uning shogirdi, portretchi va mahobatli haykallar ustasi Xalim al Xojimni alohida ta'kidlash mumkin. Xoayek marmarda ayollarning ajoyib haykallarini yaratdi. Unda Gogen ta'siri bilinadi. Haykaltarosh va grafik rassom Yozim Eroniy (1930) ham livan san'atida sezilarli o'mini egallaydi. U o'z asarlarida tinchlikka da'vat etuvchi publisistik g'oyalarni ilgari suradi.

## 6. Turkiya san'ati

XX asr oxirlaridan boshlab turkiya tasviriy san'atida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lib, san'atkorlar safi kengaya bordi. 1881-yili Davlat muzeysi, 1889-yil esa nafis san'at maktabining tashkil etilishi bu jara-yonda muhim bo'ldi. Turk arxeologgi, rassom va adabiyotchisi Hamid-bey tomonidan tashkil etilgan bu san'at dargohlari turk milliy san'ati rivojida, uslub rang-barangligini belgilashda sezilarli ta'sir o'tkazdi. Usmon Hamdi (1842–1910) odam tasviri ishlagan birinchi rassomlardan. Uning «Kotib oldida», «Quroloz», «Ayollar masjidi hovlisida», «Haramdagi ayollar» kabi asarlari muzeylardan o'rinn olgan. Rassom realistik akademik uslubini miniatura uslubi bilan qo'shib yaratishga, yorqin rang va gamma ishlatishga intiladi. U yirik portretchi. Uning «Arab libosida avtoportret» realistik uslubda mayda unsurlarni aniq tasvirlab ishlangan. Rang tuslanishida esa miniaturaga xos xususiyatlar seziladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi turk san'atida akademik yo'nalish yetakchilik qildi. 20-yillarning oxiridan boshlab esa ekspressionizm, kubizm, konstruktivizm uslublari ham turk san'atida o'z ifodasini topdi. Bir qator rassomlar, masalan, rassom va grafikachi J. Tollu, haykaltarosh X. Gezer, rangtasvirchilar N. Berk, I. Bolabon, Alisher va boshqa milliy uslub uyg'unligida asarlar yaratishga intilsalar, aksincha boshqa guruh rassomlar turk miniatura va xalq amaliy bezak san'ati an'analarini saqlab, asarlar yaratishga tuyassar bo'ldilar. 1910–20-yillarda turk rassomlarining impressionizmga qiziqlishi ortdi. Bu yo'nalishga Nazmi Ziyo (1881–1937) rahbarlik qildi. Turk tabiatni koloriti va havosi bu rassomlar ijodida o'ziga xos milliy ruh baxsh etadi. Lekin asta-sekin bu qiziqlish so'nib yana realistik san'atga qiziqlish orta bordi. Ibrohim Challa (1884), Namik Ismoil (1890–1935) va boshqalar ijodida ham shu xususiyat ko'rindi. 20–30-yillarda turk san'atida turli uslub va yo'nalishlar mavjud bo'ldi. Milliy ong ortishi, qadriyatlarini tiklash san'at rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Turk rassomlarining 20–30-yillar ijodida milliy ozodlik harakati g'oyalari ham o'rinn egalladi. Ibrohim Challaning «Partizanlar» asari realistik uslubda bajarilgan. Xalil Ibrohim, Namik Ismoilning asarları ijtimoniy hayot bilan bog'liq. Ismoil Namik maishiy mavzuda ham ko'plab asarlar yaratdi. «O'rим» Anqara qo'rg'oni asarları hayotiyligi bilan ajralib turadi. Xalil Dikmen manzarani, Hasan Faxri va Sheraf turk ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni, tabiatni tasvirlaydi.

Milliy va jahon san'ati an'analarini uyg'unligida yangi davr me'morlik san'atining yaratilishi turk san'atiga ham xos. Jumladan, me'morlar Emin Onata, Orxon Ardi hamkorligida yaratilgan Ota turk maqbarasi shularga misoldir.

## 7. Eron san'ati

Eron san'ati taraqqiyotining yangi bosqichi XX asrga to'g'ri keladi. Me'morlik, tasviriy va amaliy bezak san'atida bu asrga kelib, haqiqiy jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Me'morlikka yangi texnologiyalar kirib keldi, binolarning yangi tip va ko'rinishlari yaratildi. Tasviriy san'atda yevropacha rasm ishlash, uning realistik va avangard uslubida asarlar yaratishga ishtiyoq ortdi. Bu davr me'morlik san'atida yangi qurilish materiallarini keng ko'lama hayotga tatbiq etilishi shahar va qishloqlar qiyofasini o'zgartirib yubordi. Temir-beton, oyna, murakkab temir konsentratsiyalar shu davrda qurilgan ma'muriy-madaniy, me'moriy majmualarda yaqqol seziladi. Eron XX asr me'morligining dastlabki rivoji 30-yillarga to'g'ri keldi. Shu yillarda qurilgan binolarda ahamoniylar davri me'morlik an'analari, xususan Persepol saroyi me'moriy tizimi asos qilinib olindi. Tehrondagi Arxeologiya binosi shu an'anada ishlangan. Bu an'ana keyingi yillarda qurilgan binolarda ham o'z aksini topgan, masalan, senat binosida ham shu ta'siri ko'rish mumkin. 50-yillarga kelib eron me'morligi yanada jadallahdi va uning me'moriy qurilishi tarixidagi eng samarali yillar bo'ldi. Tehrondagi Senat binosi, Xilton mehmonxonasi shu yangi jarayonlar mahsuli hisoblanadi. Bularidan tashqari Mashhaddagi Rizo shoh gospitali, Hamadonda Ibn Sino, Nishapurda Umar Xayyom va Mashhadda Nodir shoh maqbaralari qad ko'tardi. Yangi, keng yo'llar, ko'pri va sanoat korxonalari ham shu me'moriy manzaraga o'z hissasini qo'shdi. Zamonaviy eron tasviriy san'ati ravnaqni realistik san'atni chuqur o'zlashtirish asosida rivoj topdi. Bu badiiy maktabning yirik vakili va asoschisi Kamal al Mulk 1920-yili Tehronda rassomlik va me'morlik maktabini tashkil etib, hozirgi zamon eron san'ati rivojiga o'z hissasini qo'shdi. Uning shogird va o'quvchilari Yevropa realistik uslubini o'zgartirib, unga milliy ruh berishga intildilar. Xasan Ali Vaziriy, Muhsin Muqaddam, Abdulla Amiriy, Abulqosim Sodig'i kabi rassom va haykaltaroshlar realistik san'at uslubida asarlar yaratib eron san'atining yangi yo'nalish va uslubdagi asarlar bilan boyitdilar. Shu bilan birga Eron san'atida an'anaviy san'at, uning miniatura uslubi XX asr Eron san'atida muhim o'rinn egallagan. Qator rassomlar, jumladan, Xusain Behzod, Og'a Islomiy shu uslubda asarlar yaratdilar. Husayin Behzodning Firdavsiy, Nizomiy, Umar Xayyom asarlariiga ishlangan rasmlari, kundalik turmushga bag'ishlangan kompozitsiyalari «Qora oltin xo'jayinlari», «Xo'rangan ishchilar» shu uslubda bajarilgan. Shuningdek, bugungi eron san'atida XX asrning eng so'nggi yo'nalishlari ham mavjud. Rassomlar Bexyat Sadr, Ashot Minasyan, Ahmad Isfandiyoriy va boshqalar shu yo'nalishda ijod bilan shug'ullanadilar.

Eron haykaltaroshligidagi izlanishlar Abduqosim Sodig'i ijodida o'z ifodasini topgan. 1959-yili Tehronda bezak san'ati oliy maktabi tashkil

etildi. Shu maktab o'z atrofida amaliy bezak uslublari, miniaturachilik to'play boshladi. Kandakorlik san'ati keng rivojlangan. Bu maktabga kirgan san'atkorlar guruhi o'z ijodlari bilan an'anaviy miniatURA va amaliy san'at an'analarini rivojlantirishga qaratilgan. Yog'ochga inkrustatsiya qilish san'ati, kandakorlik Isfahon va Sherozda rivojlangan.

## 8. Afg'oniston san'ati

Boshqa musulmon mamlakatlari singari Afg'oniston ham XX asrga kelib madaniy hayotning o'zgarishlari shohidi bo'ldi. Me'morlik san'ati jahon san'ati jarayonlari yangiliklaridan bahramand bo'ldi. Qurilishda yangi texnologiyalar shaharlar ko'rinishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Ayniqsa, XX asrning 70-yillarida bu yerda katta qurilish ishlari olib borildi. Madaniy-ma'muriy, ma'rifiy binolar qad ko'tardi. Maktab, bog'chalar barpo etildi. Gidrotexnik qurilmalar yaratildi. Bu ishlarda mahalliy me'morlar bilan birga xorijdan kelgan mutaxassislar faoliyat ko'rsatishdi. Afg'oniston poytaxti Kobul bosh rejasি ishlandi, turar joy binolari barpo etildi. Afg'on dunyoviy san'at rivojlanishi ham XX asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. 1921-yili Kobulda tashkil etilgan tasviriy, amaliy san'at va hunarmandchilik maktabi shu rivojlanishda muhim o'rinni egalladi. 1978-yilda plakat, gazeta-jurnal grafikasi va havaskorlik san'ati jadal rivojlandi. Tasviriy san'atda realistik san'at an'analarini demokratik harakat kuchayishi bilan boshlandi. Chet elda ta'lim olgan afg'on rassomlari Yevropa realistik san'ati an'analarini qabul qildilar. Shunday rassomlardan G'ulom Muhammad bo'lib, u Fransiya va Germaniyada ta'lim oldi. 1920-yili Kobulda birinchi badiiy san'at maktabini tashkil etgan. Zamonaviy afg'on san'ati asoschisi Abdug'affor Bereshna Berlin va Myunxenda tasviriyot asoslarini egallagan, realistik san'at tarafidori. Uning ijodi keng va rang-barang. U portret, manzara, tarixiy va maishiy janrlarda asarlari o'zining nurga boyligi bilan ajralib turadi. XX asr afg'on san'atida G'iyosiddin, Abdulazaz Tarzi, Simona Shukur, Vali Xayr, Muhammad Xumoyun, Ittmodilar faol ijod qiladilar. 1978-yili Afg'onistonda bo'lib o'tgan milliy demokratik inqilobdan keyin bu yerda plakat, gazeta-jurnallar grafikasi va havaskorlik rivoj topdi.

## JANUBIY, JANUBI-SHARQIY OSIYO SAN'ATI

### 1. Hindiston Respublikasi

Hindiston san'atining yangi bosqichi XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlandi. Milliy ozodlik harakatining ziyorilari safining kengayishi hind san'ati yangi yo'naliishing boshlanishida muhim o'rinni egal-



ladi. San'atning deyarli hamma turlarida yangilanish boshlandi. Sharq va g'arb san'ati an'analari o'zaro uyg'unlashuvi jarayoni ni XX asr yangi hind san'ati va san'atkorlari dunyoga keltirdi. Kalkutta, Bombey, Madras kabi port shaharlar tez rivojiana boshladı. Yangi shaharlar paydo bo'ldi. Ularga esa Yevropa uslubida Xristian cherkovlari, ma'muriy binolar, vokzal, sanoat korxonalarini binolari jadal qurila boshladı. Qurilishda ko'proq ingliz klassisizmi yetakchi o'r'in egalladi. Nyu Dehli (1912–1930) shahri davr ziddiyatlarini

o'zida namoyon etadi. Bir tomondan, zamonaviy binolar, ikkinchi tomondan esa qashshoq xalq yashaydigan ko'rmsiz kulbalarda shu xususiyatlarni ko'rish mumkin. Neogotik uslubida ham qurilishlar olib borildi. Tasviriy san'atda an'anaviy hind san'ati o'z mavqeyini yo'qota bordi, aksincha, yevropacha uslub keng kirib kela boshladı. Qator badiiy maktablar, badiiy birlashmalar tashkil etildi. Bu yangi jarayolarni chet ellik o'qituvchidan ta'lif olgan ijodkorlar hind san'atiga olib kirdilar. Shunday rassomlardan bombeylik Roji Ravi Varma (1848–1906) edi. U G'arbiy Yevropa akademiyasida hind xalqining hayotiga bag'ishlangan asarlar yaratdi. Yevropa maishiy janriga murojaat qildi va oddiy xalq hayotiga bag'ishlangan asarlar yaratdi. «Tilanchi» deb nomlangan kompozitsiyasi Varma ijodida tanqidiy yo'naliish borligidan dalolat beradi. XIX asr

oxirlaridan milliy merosni o'rganish va uni yevropa san'ati yutuqlari bilan uyg'unlashtirishga intilish hissi kuchayib boradi. Shunday vazifani amalga oshirishda Rabindranat Tagor (1861–1941) muhim rol o'ynadi. Shoir, filosof, rassom R. Tagor butun umrini milliy san'at taraqqiyotiga bag'ishladi. Uning rassomlik faoliyati hind san'atida muhim o'rinni egalaydi. U o'z portret va tematik kompozitsiyalarida, inson tuyg'u va kechinmalariga murojaat qiladi, uning orzu-istik va intilishlarini kuylaydi. Uning mavzusi hayotning bitmas-tuganmas go'zalligini, tinch hayot nashidasi tarannum etishdir. Tagor 1901-yili o'z uyida Shantinketon maktabini ochdi, 1921-yili esa universitetga aylantirildi. R. Tagorming jiyani Abanindranat Tagor (1871–1951) ham Hindistonning ko'zga ko'ringan rassomi bo'lgan. U «Bengal uyg'onishi» nomli badiiy oqimning asoschisi. Bu oqimga kirgan A. Tagor va boshqalar milliy rassomlik maktabini qayta tiklashni o'z maqsadlari deb bildilar. Ular qadimgi o'rta asar hind san'ati an'analarini, Ajanta rassomligi o'rta asr miniatura san'ati an'analarini Yevropa rassomlarining moybo'yoq va pastel texnikasini qo'shib, yangi san'at yaratishga harakat qildilar. «Bengal uyg'onishi» vakillari qadimgi hind afsonalari «Mahabharata» va «Ramayana»ga, tarixiy voqealarga murojaat qildilar. N. Boshu, Sh. Gunto, Sh. Ukila, Bireshvar Singx (1897–1960) va b. rassomlar asarlarida chiziqlar nozikligi, tuyg'ular boyligiga e'tibor qaratdilar. Bireshvar Singx (1897–1960) A. Glorda o'qigan. Lakxnaudagi san'at va hunarmandchilik davlat kollejida o'qidi. Ilk asarları portret, hayotiy lavhalar ishlashga qaratilgan: «Sut sotuvchi ayol». Rassomning dastlabki asarları koloriti bilan o'ziga jalb etadi. U ko'proq manzara janrida ijod qila boshladi. Himolay tog'iga bag'ishlangan asarlarida («Oltin tog'lar») N. Rerix tasvirini ko'rish mumkin. Asar koloriti yorqin. Bireshvar Singx «Bengal uyg'onishi»da realistik tomonning rivojlanishida muhim o'rinni egalladi. «Bengal uyg'onishi» yo'nalishi bilan birga hind san'atida realistik yo'nalish mavjud bo'ldi. Bu oqim vakillari oddiy xalq hayotiga bag'ishlangan asarlar yaratdilar, manzara, natyurmort, portretlar ishladilar. Atlu Bos (1898) realistik yo'nalishning vakili. U Kalkutta va Londonda ta'lím oldi. Uning diapazoni keng. U maishiy janr va portretda, manzara rassomligida qator asarlar yaratdi. Uning «Bengaliyadagi ocharchilik» (1943) grafik asarlar turkumi o'zining sotsial yo'nalishi bilan xarakterlanadi. U ko'proq g'arb san'ati an'analarida ijod qiladi. Uning ishlariga xos xususiyat bu zamon ruhini cheksiz his qilishda ko'rindi. U katta gumanistik ideallar uchun kurashdi.

XX asr hind san'ati taraqqiyotida Amrita Shergul (1913–1941) alohida o'rinni egallaydi. U hozirgi zamon hind milliy rangtasviri asoschilaridan. Hindistonning birinchi ayol rassomlaridan A. Shergul Parijda ta'lím oldi. Fransuzlar, ayniqsa, Gogen ijodining ta'siri sezilarli bo'ldi. U Parijda bo'lgan kezlaridayoq «Onam va singlim» portreti uchun oltin medal olishga tuyassar bo'ldi. Shergul 23 yoshida Hindistonga ko'chib

keladi. Uning dastlabki asarlarida Gogen ta'siri seziladi. Shergul Hindis-tonga kelgandan boshlab milliy san'atga e'tibor bera boshladi. Mamlakat bo'ylab sayohat qildi. Ajanta g'orlari, Elur ibodatxonalarini, Panjob manzillarini borib ko'rdi. Hind qishloqlarida rasmlar ishladi. Shergul hind dehqonlarining ichki dunyosini ask ettiruvchi asarlar yaratdi. Yaratgan har bar asarida voqeanning sotsial mohiyatini ochishga tuyassar bo'ladi.

Hindiston Respublikasi mustaqillikka (1947-y) erishgandan keyin qurilish ishlari avj oldi, industriyashtirish, yangi sanoat korxonalarini qurish ishlari rivojlandi, yangi sanoat korxonalarini paydo bo'ldi. Bombey, Madras, Dehli, Kalkutta kabi shaharlar tez o'sdi. Me'morlikda yangi me'moriy uslub keng yoyildi. Milliy san'at akademiyasi roli ham muhim. Akademiya jamoatchilikka tanilgan rassom va haykaltaroshni D. P. Chaudxuriga topshirildi. Hind milliy san'atida targ'ibot san'ati keng rivoj topdi, grafik, haykaltaroshlik, xalq san'ati keng rivojlandi. Shu yillarda haykaltarosh S. Klastgir, V. P. Karmakar, grafik Xar Das va boshqalar yangi hayotga bag'ishlangan asarlari bilan tanildilar.

## 2. Shri Lanka san'ati (SEYYLON)

Osiyo qit'asining janubiy tomonidagi Seylon orolida joylashgan Shri Lanka davlati (avvalgi nomi Seylon) XVIII asming birinchi yarmidan XX asming birinchi yarmiga qadar Angliya qaramligida, uning tasarrufida bo'ldi. Shu davr san'atida ingliz san'ati an'analarini san'atning hamma turlarida o'zini namoyon etdi. Me'morlikda ingliz klassisizmi ustunlik qildi. Tasviriy san'atda ingliz akademizmi yetakchilik qildi. Shunga qaramay milliy istiqlol g'oyalariga ergashgan mahalliy ziyyolilar shu sharoitda o'z milliy san'atining rivojlanishiga harakat qilib badiiy hayotda faol ishtirok etdilar. 1888-yili Seylon san'at jamiyatini tashkil etildi. Shu jamiyatga a'zo bo'lgan ko'pgina san'atkorlar realistik uslubda zamonaviy mavzularni ko'tarib chiqishga harakat qildilar. Shunday rassomlardan biri Amarasekaradir. U portret, manzara va maiyshiy janrlarda asarlar yaratadi. Shri Lanka rassomlaridan Georg Keyt qalam surat ustasi sifatida 30-yillardan milliy uslubda ishqiy liro-epik temada rasm chizdi va primitivizm ta'sirida bo'ldi. 40-yillarda siyosiy kurash mavzularida asarlar yaratdi. Shuni ta'kidlash lozimki Shri Lanka san'ati taraqqiyotida Yevropa hamda Hindiston san'atining ta'siri sezilarli bo'ldi. Bu ta'sir uning san'atining o'ziga xos tomonini belgilashda muhim bo'ldi. Bu yillarda Seylonda qator badiiy birlashmalar mavjud edi. Milliy badiiy front birmuncha yetakchi o'rinni egallaydi. Uning maqsadi milliy shaklni rivojlantirish, klassik san'at an'analarini asosida rasm chizishga intilish edi. Bu birlashma a'zolari ko'proq dekorativ uslubda guash bilan rasm ishlaydilar. Dehqonlar hayotiga bag'ishlab ishlangan asarlar bu birlash-

ma rassomlari ijodida tarmuncha yetakchi o'rinni egallaydi. Ularning asarlarida afsonaviy voqealar bilan birga zamonaviy, xalqning tinchlik uchun olib borayotgan kurashlari ham o'z ifodasini topdi. Milliy badiiy front birlashmasining yirik vakili seylon manzara janrining asoschisi B.L. Mendis hisoblanadi. U hozirgi zamon seylon san'ati yo'nalishini yaratgan san'atkordir. Rassom o'z asarlarida sotsial problemlarga murojaat qiladi. Uning asralari o'zining poetik talqini, ishlatilgan chiziqlarining ritmik nafisligi bilan ajralib turadi. Obrazlari esa chuqur psixologizm bilan sug'orilgan.

Milliy badiiy front birlashmasi rassomlari karikatura va plakat san'atiga ham murojaat qiladilar. Bu san'at ham Seylon badiiy tarixida yangi shakllanayotgan turlaridandir. Bu davrga kelib amaliy bezak san'atining qadimiy turlari yana jonlandi. To'qimachilik, yog'och va suyak o'ymakorligi, metnalni qayta ishlash — kandakorlik san'ati, turli niqoblar yaratish texniasi, lok miniaturasi borasida seylon ustalari ijodiy yutuqlarga erishdilar.

### 3. Xitoy Xalq Respublikasi

XIX asr ikkinchi yarmida Xitoy mustamlaka tarzida mavjud bo'lib iqtisodiy, siyosiy va madaniy tushkunlikni boshidan kechirdi. An'anaviy xitoy me'morligi saroy va ibodatxonalar qurilishida aks etdi. Kapitalistik munosabatlar rivoji san'at xususiyati, ko'rinishlarida ham o'z aksini topardi. Me'morlikni eklektika egalladi. Syanszi, Nankin, Guanchjou kabi yirik shaharlarni eklektik binolar egalladi. Yevropa me'morlik usullari bilan qo'shib kengashga harakat qilish shunday binolarni yuzaga keltirdi. Hatto xitoy klassik san'atini qayta tiklash harakatida ham eklektika ta'siridan xoli bo'lmadi. Pekindagi Ixeyuan parkida kema shaklidagi Sinyanfan saroyi pavilyoni binosi, kutubxona binosida Yevropa me'morligi shakllari xitoy me'morlik shakllari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan.

**Tasviri san'at.** Xitoy tasviriy san'atida an'anaviy milliy san'at zamonaviy mazmunlar, shakllar bilan boyib bordi. Rassomlik bu davr san'atida yetakchi o'rinni egalladi. Manzara, gul va qushlar janni keng yoyildi. Moybo'yoq texnikasida asarlar yaratildi. Haykaltaroshlikda, asosan, ibodatxonalar uchun ishlangan bir qolipdagi avliyolar haykallari bo'lib, ular ham dag'al bo'yoqlarda bo'yalgan. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida birmuncha mustaqil rivojlana boshladi. XX asr boshlarida milliy badiiy maktablar ochilishi mahali yoshlarining xorijga o'qishga borishi xitoy san'atining rivojlanishiga samarali ta'sir o'tkazdi. 1912-yil Shanxayda rassomlik maktabi tashkil etilishi esa xitoy san'atida yevropa tasviry san'ati ta'sirini kuchaytirdi. Bu davrda xitoy milliy rangtasviri goxua ham davr izlanishlaridan chekkada qolmadidi. Asosan suvbo'yoqda shoyi yoki o'rama qog'ozga ishlanadigan bu san'atda yevropa usullari

ham ishlatala boshlandi. Si Bayshi, Pan Tyanshou ijodi shu o'rinda e'tiborga loyiq. Perspektiva, nur-soya, buyumlarning hajmini ko'rsatishga harakat hilish shu davrda ishlagan rassomlar Syuy Bey Xun, Szyan Chjao Xe ijodida bilinadi.

Si Bayshi (1860–1957) yirik xitoy rassomi, turli janrlarda ijod qildi, lekin gul va qushlar ishlashda uning iste'dodi to'liq namoyon bo'ldi. Xitoy milliy san'ati Goxua vakili sifatida tanildi. "Shoxchadagi chumchuq", "Krab va kamrlar" asarlarida shu san'atga xos xususiyatlar yaqqol ko'rindi. Si Bayshi ustoz sifatida ko'pgina shogirdlarga ta'lrim berdi.

Syuy Bey Xun ijodi. Moybo'yoq texnikasiga rangtasvir san'atini hayotga tatbiq etishga harakat qilgan san'atkordardan. U jahon rassomlik san'ati an'analarini milliy san'atga tatbiq etishga harakat qildi. Portret, manzara janri va tarixiy mavzuda asarlar yaratdi. "Rabindranat Tagor" (1942), «Litsey darsida yomg'ir», «Emeytan tog'i», animal janridagi «Otlar» asarlari ijodiga xos tomonlarni namoyon etadi. Szyan Chjao Xe Xitoyning yirik realistik rassomi shoyiga gul solish san'atining mohir ustasi sifatida tanilgan. Rassom asarlarida psixologik yechim masalalariqa e'tibor bergenligi bilan mashhur.

XX asrda milliy inqilobiy harakat bilan bog'liq siyosiy-hajviy rasm, plakat, karikatura keng yoyila bordi, gravyura texnikasi keng ko'lamda hayotga kirib keldi. XX asrning 20–30-yillarida xitoy badiiy hayoti bir-muncha jonlandi. Qator ijodiy guruhlar tashkil etildi: «Chan rassomlar ligasi», «Zamonaviy gravyura» va b. Shu yillarda gravyuraga qiziqish ortdi. Xitoy san'ati rivojida 1938-yili tashkil topgan Li Sin nomidagi San'at Akademiyasi shu san'at ravnaqida muhim bo'ldi. Bu xitoy gravyura maktabini shakllantirdi. Gu Yuan, Li Xua gravyuralari shu davrda shakllandi.

Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topishi (1949) keyingi davr xitoy san'atini yangi bosqichga ko'tardi. Me'morlikda uslubiy rang-baranglik va jahon ilg'or me'morlik an'analarining keng ko'lamda hayotga tatbiq etish jarayoni kengaydi. Yangi texnika va texnologiya, zamonaviy me'morlik san'ati ilg'or mamlakatlar darajasida rivojlanishga yo'l ochdi. Shaharsozlik tezkorlik bilan rivojlandi, keng ko'chalar, ma'muriy va ja-moat binolari, turarjoylar Xitoy shahar va qishloqlar ko'rinishini o'zgartira bordi. Milliy shakl va Yevropa qurish bazasi uslublari uyg'unligida yangi, o'ziga xos me'morlik ko'rinishini yuzaga keltira boshladi. Shu fazilatlarni 50–60-yillardan qurilgan mehmonxonalar, masalan, Pekindagi mehmonxonalar, Umumxitoy qurultoyi majlislar binosi, millatlar madaniyat saroyi, tarixiy muzey va boshqalarda ko'rish mumkin. 70–80-yillarda esa umumxitoy me'morlik uslublari shakllanib bordi. Bu davrdan tasviri san'atning turlari, ishslash texnikasi, mavzusi kengaydi. Milliy hayot, tarixiy voqealar, tabiat go'zalligi, insoniy munosabatlar masalalari xitoy



*Abatayxon. Noma lum rassom. Mo'g'uliston san'ati. VIII asr.*

tasviriy san'atida keng o'rin egalladi. Goxua va moybo'yoq texnikasida ko'plab ijodkorlar mehnat qila boshladilar. Haykaltaroshlikda asarlar yaratildi. Amaliy bezak, xalq san'ati o'z rivojining yangi davrini boshladi.

#### **4. Mo'g'uliston san'ati**

XIX asr oxiridan Mo'g'ulistonda milliy ozodlik harakati avj oldi va nihoyat 1921-yili u o'zini mustaqil respublika deb e'lon qildi. Shu harakat mo'g'ul san'ati va madaniyati rivojida muhim o'rinni egalladi. Mamlakatda dunyoviy san'at va madaniyatga e'tibor kuchaydi, ro'znama va oynomalar nashri xalqning faoliyatini oshirdi. Baldugiyen Sharav (ta-



N. Sultem. Karvon.

xallusi — Marzan hazilkash, 1869—1939) mo'g'ul rassomchiligining is-lohotchisi, u o'z asarlariga zamnaviy mazmun va ishlashda nur-soyadan va chiziq perspektivasidan foydalanishni kiritgan san'atkor. U turli janarda ijod qildi. Rasmlari yengil humor bilan sug'orilgan. Shuning uchun ham unga Marzan, ya'ni hazilkash taxallusi berilgan. Uning «Hosil bayrami» asari hayotni hayajon va yengil tabassum bilan aks ettiradi. Uning shogirdi Manibadar ham o'z ustozi yo'llini davom et-tilib hayotiy mavzuda asarlar yaratadi. Mo'g'ul san'ati rivojining yangi bosqichi 50-yillarga to'g'ri keladi. Ko'pgina san'atkorlar Yadamsuren, Sengetsovio, Damdinsuren, N. Sandagsuren realistik san'at asarlarini yutug'i asosida milliy san'at yaratishga harakat qildilar. Moybo'yodda dastlabki asarlar yaratila boshlandi. Rassomlar Sandagsuren, Sultem, Don, Choydog tabiat manzaralari, uning qo'ynida mehnat qilayotgan kishilarni tasvirlaydilar. Jumladan, N. Sultemning «Karvon», «Oltoylik ovchilar», N. Sandagsurenning «Bug'uboqarlar» asarları, grafik va rang-tasvirchi Amgalanning manzaralari XX asr mo'g'ul rangtasvirining o'ziga xos tomonlarini namoyon etadi. Rassom ko'proq guashda ishlaydi. Kundalik turmush, odamlarning o'zaro munosabatlari uning asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu davr rangtasviri, umumantasviri san'atida



N. Sandagsuren. *Bug'uboqarlar*.

realistik san'at an'analarini yetakchi o'rinni egallaganini ko'rsatadi. Hay-kaltaraoshlik san'atida ham realistik yo'nalish yetakchi o'rinni egallaydi va yevropa san'ati an'analarini milliy uslubga yaqinlashtirishga intilish borligini ko'rsatadi. Choymbol, Yadamsuren Urjingiyin ijodida Yevropa uslubi va milliy san'at uslublarini uyg'unlashtirishga intilishni ko'rish mumkin. XX asr mo'g'uliston san'atida o'tmishning boy an'analarini o'z rivojini topdi.

## 5. Birma san'ati

Birma san'atini ham mustamlaka davri (1886—1947) va mustaqillikka erishilgan keyingi davrga ajratib o'rganish mumkin. Ingliz koloniysi bo'lgan davr Birma san'ati, xususan, me'morligida ingliz me'morligi tip va ko'rinishlari yetakchi o'rinni egalladi. Masalan, Rangun va boshqa shaharlar loyihasi va qurilgan binolarida shu holni ko'rish mumkin. Shu bilan birga XIX asming oxirlaridan mahalliy ziyolilarning safi ortasib bilan san'at va madaniyatda jiddiy siljishlar ro'y bera boshladi. Realistik san'at uslubida asarlar paydo bo'la boshladi. Rangtasvirda, portret janrida U. Choun realistik xarakterdagi asarlarni yaratib, ko'pchilikni o'ziga jalg etdi. Shu davrda akvarel texnikasi keng yoyildi. Asta professional rassomlar safi kengaydi. Moybo'yoq texnikasi yoyila boshladi. Shu borada U Ba Nyan va U Ba Zo dastlabki muallif sifatida tarixga kirdilar.

U Ba Nyan (1945-yilda vafot etgan). Birmada moybo'yoq texnikasida ijod qila boshlagan va shu texnika asoschilaridan hisoblanadi. U Ba Nyan Angliyada ta'lim olgan, ingliz san'ati an'analariga yaqin ko'rinishda asarlar yaratgan («Poda dam olish payti»). U Ba Zo (1943-y. vafot etgan) ham Angliyada o'qib qaytgan va U Ba Nyan bilan bir qatorda Birmada moybo'yoq texnikasi asoschilaridan hisoblanadi. Rassom ko'proq manzara janrida ijod qilib, eski ingiliz usta rassomlari ruhida asarlar ishlagan. XX asrning 30-yillardan mahalliy me'morlar yetishib chiqdi. U Tin birmalik birinchi mashhur me'morlardan edi. U o'z ijodida Yevropa san'ati bilan milliy san'at an'analarini uyg'unlashtirishga harakat qilgan.

Ratuma (1930—36). Rangulidagi Shuedagoun pagodasining g'arbiy kirish qismi uning mashhur asarlaridan. Mustaqillikka erishgandan keyin (1948) birma tasviriy va amaliy san'at rivojiga e'tibor ortdi. Turli uyushma va birlashmalar, oddiy va maxsus o'quv yurtlari tashkil topdi. Davlat badiiy maktabi (1952—1953) Birma me'morlik instituti (1948), shuningdek, san'at kengashi Rangchun (1950), Ilg'or yoshlar ligasi Rassomlar uyushmasi va b. shu davr badiiy hayotida faol ishtirok etdilar. Mustaqillikdan keyingi yillarda yuzaga kelgan tashkilot va birlashmalar ham san'atdagi raqobatni kuchaytirib uning rivojlanishini tezlashtirdi. Bu yillarda me'morlik san'atida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ma'muriy madaniy binolar, turar joylar qurilishiga katta e'tibor berildi. Kasalxona, maktablar qurildi. Mahalliy an'analarida yog'ochdan binolar qurish kengaydi. Bu ishlarga mahalliy rassomlardan tashqari xorijiy rassomlar ham qatnashdi.

Birma san'atining yangi bosqichi uning mustaqillikka erishgandan keyin (1948) boshlandi. 1952-yili milliy madaniyat markazi tashkil etildi. Har yili umumbirma rassomlari asarlari ko'rgazmasini tashkil etish an'anaga aylanishi san'at rivojida ijobiyl rol uynay boshladi. Rassomlar



Dzhanabadzar. Ma'buda haykali. Mo'g'ul san'ati. XVII asr.

o'z asarlariida milliy mavzu va obrazlarga murojaat qildilar. Ular o'z ijodiy yo'llarini Yevropa realizmiga tayangan holda amalga oshirdilar. Ular turli janr va mavzularda, moybo'yoq va akvarellarda ijod qildilar. Saya Saun XX asr birma dastgoh akvarel rassomligining asoschisi, ko'pgina birmalik rassomlar ustozi sifatida tanilgan. Uning Mandalayga bag'ishlangan asarlari keng jamoatchilikka tanish. U San Vin (1908) bir qator badiiy maktablarda ta'lim olgan. Rangun so'ng London va Nyu Yorkda san'at asarlарини о'qigan. Turli janrda asarlar yaratgan, mahobatli rassomlikda mozaika texnikasida ishlagan. Maun Tin Ey (1924) rangtasvirchi va grafik. Saya Saun qo'lida o'qigan, janqli va manzara asarlar

muallifi: «Quduq oldida tong» (akov. 1950). U Oun Luin (1908) Rangchunda o'qigan, mozaika, moybo'yoq, akvarel texnikalarida asarlar yaratgan. U Kin Maun (1919), Saya Saun o'g'li dastlab otasining qo'lida, so'ng Angliyada o'qigan. Turli janrlarda ijod qiladi. Davlat badiiy maktab direktori. U akvarel va moybo'yoqda ijod qilgan mozaika bilan shug'ullangan. Birma haykaltaroshlik san'ati ham asosan Yevropa realistik tasvirda rivojlangan. U Luin (1925), U San Pe (1918), U Xan Tin (1926) kabi haykaltaroshlar ijodida birma haykaltaroshlik san'ati xususiyatlari ko'rindi. U Luin dastgoh va mahobatli haykaltaroshlik asarlar muallifi. U Xan Tin haykaltarosh, «Keksa ayol» haykali muallifi. Amaliy bezak va xalq san'ati turli taqinchoqlar va bezaklarni ishlagan. Birma amaliy bezak san'ati boy va qadimiy yog'och o'ymakorligi, suyak o'ymakorligi, to'qimachilik juda rivojlangan. O'ziga xos chizmali lok san'ati, kumush yuzasiga badiiy ishlov berish kabi san'atda birmaliklar dong chiqargan.

## 6. Vyetnam san'ati

Moybo'yoqda rasm ishlash san'ati Vyetnamda ham kech boshlandi va deyarli XX asrning 20—30-yillariga to'g'ri keladi. 1925-yili Xanoyda ochilgan nafis san'at maktabi Vyetnam badiiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Dastlab Vyetnamda yashovchi fransuzlar uchun mo'ljallab ochilgan bu mактабда mahalliy yoshlар ham ta'lim ola boshladilar. To Ngok Van, Chon Van Kap shunday talabalardandir. To Ngok Van maishiy, manzara va portret janrlarida ijod qildi. Uning ishlari nafis va birmuncha lirik mungli planda yechladi. Uning "Nilufar ushlagan qiz" asarida chiroyli topilgan shakllar tizimi, rang tuslanishidagi nafislik va asar fakturasi uyg'unliga butun asarga emotsiyonal kuch kiritadi. Rassom 1950-yillar badiiy mактаб tashkil etib, yoshlар tarbiyasi bilan shug'ullandi. Chan Van Kan ham Vyetnamning ko'zga ko'ringan rassomi, u ko'proq portret san'atida ijod qildi. Bu har ikki rassom moybo'yoqda rasm ishlashdan tashqari lak texnikasida ham ijod qilishdi. Ular mavzusi kengaydi. Xalqning milliy ozodlik kurashi, tinch mehnat damlarida o'z ifodasini topdi. Umuman xalq hayoti uning jasorati, hozirgi Vyetnam tasviriy san'atining bosh mavzusini tashkil etadi. Rassomlarning hayotga yaqin bo'lishlari, uni o'rganishlari asarlarining realistik tomonining ortishiga xizmat qiladi. Bu hol an'anaviy lak san'atining zamонавиј руҳ bilan sug'orilishini ta'minlaydi. Vyetnam rassomlari moybo'yoq texnikasini rivojlantirish bilan bir qatorda keyingi yillarda haykaltaroshlik, grafika taraqqiyotiga ham ahamiyat berdilar. Shoyiga gul ishlash san'ati Vyetnam san'atida rivoj topgan. Rassomlar Chan Dong Liong, Nguen Fan Tyan va boshqa shu san'atda asarlar yaratib e'tiborga tushdilar. Chan Dong Liong shoyiga gul ishlash borasida ko'zga ko'ringan. Uning "Yosh



*Yosh qiz portreti. Chan Dong Liang.*

"qiz portreti" shu san'atning nozik tomonlarini namoyon etadi. Musiqiy mayin chiziqlar nafis rang tuslanishiga hamohang. Ular uyg'unlikda yagona kompozitsiyani tashkil etadi. Rassom akademik realizmni sharq dekorativ plastikasi bilan uyg'unlashtirib, milliy o'ziga xos asar yaratishga erishgan. Nguen Txi Kxang, Nguen Txu, Min Mi, Ngo Min Kau asarlari ham shu san'at namunalaridandir. Vyetnam haykaltaroshligi kech

rivojlandi. XX asming o'rtalari va ikkinchi yarmidan shu san'atda asarlar paydo bo'lган. Bu san'atning rivojida Xanoy san'at maktabining roli katta bo'ldi. Shu yerda tarbiyalangan san'atkorlar uning dastlabki namunalarini yaratdilar. Bu asarlar naturalistik yo'nalishga yaqin bo'lib ijodkor o'z asarida tasvirlanuvchining ichki holatini ochishga intilganligini ko'rish mumkin. Asarlar ko'proq janrli yechimi bilan ajralib, unda ko'tarinki ruh kuchli. Haykaltaroshlar Z'ep Min Tyau, Chan Van Lam, Dao Van Kan ijodida shu xususiyatlarni ko'rish mumkin.

## 7. Koreya san'ati

Koreya san'atida moybo'yoq rasm ishlash texnikasi XX asirning 30-yillariga to'g'ri keladi, haykaltaroshlik, siyosiy karikatura, plakat san'atida ham shu davrda asarlar yaratilgan. Milliy ozodlik harakatining kuchayishi badiiy ziyolilar orasida milliy madaniyatga qiziqishni ortirib yubordi. Chosonxva deb nomlangan qadimgi koreys an'anaviy san'atida suratlar ishlandi. Bu san'at ham yangi mavzu va sujetlar bilan boyidi, dehqonlar hyotiga bag'ishlangan asarlar yaratildi. Bu an'anaviy uslubda ijod qilgan rassomlar naturadan manzara ko'rinishlarini ishlashga o'tishlari ham shu san'atdagi realistik tomonning ortib borishini ko'rsatdi. XX asr birinchi yarmida (1910–1945) Koreya Yaponiya istilosи ostida bo'ldi. Shu sababli san'at tushkunligi sezilarli bo'ldi. Buni me'morlik, tasviriy va amaliy san'at ahvolida ko'rish mumkin. Jumladan, me'morlik san'atida yapon va Yevropa an'analari bilan bog'liq holda qurilishlar olib borildi. Turli temir yo'l vokzallari, mehmonxonalar, sanoat va ma'muriy binolar shu davr mafkurasi bilan bog'liq holda yaratildi. 1948-yilga kelib milliy ozodlik harakati natijasida Koreya yarim oroli shimolida Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR) va Janubiy Koreya Respublikasiga ajraldi. Koreyaning shimoliy va janubiy qismida o'ziga xos bir millatning ikki davlat san'ati rivoj topdi. Shimoliy Koreyada me'morlik san'ati rivojlandi. Poytaxt Pxenyan shahari bosh loyihasi asosida qayta qurildi. Hamxim Vansan, Sarivon va boshqa shaharlarida katta qurilishlar olib borildi. Kasalxona, muktab, saroylar qurildi. Bu ishlarda milliy me'morlar Kim Jonxi, Li Xyon, Pak Ikkuvan, Sin So'ngyon va b. bilan birga chet ellik ijodkorlar ham ishtirok etdilar. 1950–60-yillar me'morligda milliy o'rta asr koreys me'morlik an'analari va shakillaridan foydalanish kuchliligi seziladi. Massalan, Pxenyandagi katta teatr binosi 1960-yillarning ikkinchi yarmida yangi texnologiya va qurilish uslublari qo'llanila boshlanganligi qurilgan binolar tashqi va ichki qiyofasida o'z aksini topdi. Davlat universitet binosi 70–80-yillar me'morligida keng ko'lamda turarjoylar yaratildi.

XX asr ikkinchi yarmidan koreys san'atidagi o'zgarishlar tasviriy va amaliy san'atda ham o'z ifodasini topdi. Milliy an'analari, jumladan tush bilan rasm ishlash, suvbo'yoqdan foydalanib kompozitsiyalar ishlashga

qiziqish ortdi. Shu texnikada Kim Yonjun, Li Chxom, Chxve Gyongin, Li Sokxo kabi rassomlar samarali mehnat qildilar. Shu yillardan moybo'yoq texnikasida ham asarlar yaratish keng yoyildi. Kim Jonnam, Pak Myonxum, Pxyo Sedjo, Mun Xaksi va boshqalar shu texnikada xalq hayoti, tarixiga bag'ishlangan asarlar yaratdilar. Grafika san'atida Kim Chonjum, Pe Unsom, Pak Sinxi samarali mehnat qildilar. Koreys haykaltaroshligi ham o'ziga xos rivojda bo'ldi. Realistik haykaltaroshlik an'analari Mun Sogo, Xam Yonsik, Cho Gyubon ijodi milliy san'at an'analari uyg'unligida rivoj topdi. Amaliy bezak san'ati kulolchilik, chinnisozlik, o'ymakorlik san'atida betakror asarlar yaratdi.

XX asr ikkinchi yarmida Janubiy Koreya ham o'z rivojining yangi bosqichini boshladi. Ko'proq Yevropa san'ati an'analari ta'sirida zamonaviy me'morlik binolari barpo etildi. Funksionalizm uslubi esa yetakchi o'rın egallab ko'rilgan binolar xarakterida o'z aksini topdi. Masalan, Seuldagi «Korea er layns» aviakompaniyasi binosi (1969) milliy me'morlik uslubi usullaridan foydalaniib binolar qurishga intilish harakati sezildi. Masalan, Seul yaqindagi Uo Kker Xil markazi binosi o'ymakorlik uslubida bo'lib, past tomonlarini egri shakllar bilan bezatishga harakaq qilin-gan va h. k.

Shimoliy Koreyaga nisbatan Janubiy Koreya tasviriy san'ati uslub jihatidan birmuncha rang-barang. Bu yerda realistik san'at uslublari bilan bir qatorda Yevropa yangi san'atining turli oqim va yo'nalishlarida asarlar yaratishga intilish sezildi. Yevropa realistik san'ati uslublari rassomlaridan Kim Insin, Li Junsop ijodi yetakchilik qilsa, rassomlar Kim Xvangi, Nam Gvan, haykaltaroshlar Kim Yon Xak, Chon Sanbom ijodida moderistik san'at an'analari kuchli, shu bilan birga ko'pgina san'atkorlar rassom Xo Ben Tyon, haykaltarosh Kim Chyon Sim ijodida milliy san'at an'analari, Kim Chixam Pak Xyon ijodida Yevropa va milliy san'at an'analari uyg'unlashadi. XX asr Janubiy Korea san'atida amaliy bezak san'ati ham o'z an'anlariga sodiq holda ravnaq topdi. Davr texnologiyasi bilan boyib bordi.

## 8. Indoneziya san'ati

Indoneziya chet elga — gollandlarga qaram davridan boshlab, bu yerlarda ham yevropa tipidagi binolar qurila boshladi. Jakarta, Bandung, Surabayda galereyali, panjarali lojalari bilan yirik binolar qad ko'tardi, qurilishda temir-beton qo'llanila boshlandi, lekin diniy bino va mahalliy zodagonlarning binolari mahalliy an'ana — islom me'morligi ta'sirida bo'ldi. Masjidlar shu uslubda qurildi. XX asrdan yangi shaharlar: Sumatrada Sumberjaya, Jakartada Kebayoran yo'ldosh shahar paydo bo'ldi. Jakarta, Jokyakarta, Bandungda ma'muriy-madaniy va ma'risiy binolar, sanoat korxonalari chet ellik mutaxassislar bilan hamkorlikda

qurildi.

Amaliy bezak san'atida yangi ashyo va tovarlarning kirib kelishi bilan mahalliy amaliy san'atning ayrim turlariga talab kamaya bordi. Chetdan kelgan sanoat mollari arzon va qulayligi tufayli ularga talab ortib bordi. Ayni XIX asr o'rtalaridan boshlab Indoneziya tasviriy san'atida ham yangi jarayonlar sezilarli darajada o'zgardi. XIX asr o'rtalaridan boshlab vatanparvarlik ruhidagi realistik rangtasvir paydo bo'ldi. Shunday mavzuda Raden Salex samarali ishlagan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida milliy romantik manzara janri rivojlandi. Rassom S.S. Abdulla shu san'atda keng jamoatchilikka tanildi. Indoneziya san'ati rivojida 1937–38-yillarda rassomlar S. Sudjoyono, A. Djaya, K. Afandi va boshqalar tashkil etgan Rassomlar uyushmasi muhim o'rinni egalladi.

Indoneziyaning mustaqillikka erishgandan keyin (1945), san'at rivoji yanada jadallahdi. Mahalliy me'morlar chet elliq hamkasblari bilan hamkorlikda qurilish ishlarini olib bordilar. Yirik me'moriy majmualar yaratildi. Ma'muriy-madaniy, me'moriy majmualar so'nggi texnologiya va san'at sintezi asosida yaratildi. Tasviriy san'atda realistik san'at avangard bilan raqobatda rivoj topdi. Dastlabki yillarda realistik san'at yo'nalishi biroz romantik kaysiyatda, milliy vatanparvarlik ruhida ishlandi. Realistik haykaltaroshlik rivojlandi. Haykaltarosh G. Xendra shu san'atda tanilgan. U. Effendi, Suromo kabi rassomlar shu davrda realistik grafika san'atida ijod qildilar. Indoneziya san'atining o'ziga xos sisatlari A. G. Sobrat, I. B. Made ijodida ko'zga tashlanadi. Ularning yorqin rangdagi quvnoq, naqsh sifat kompozitsiyalari optimistik ruhda ishlangan. Indoneziyaning XX asming 60-yillaridan keyingi tasviriy san'atida avangard yo'nalishi oldinga chi boshladi va bugungi kunda yetakchi o'rinni egallaydi.

## 9. Yaponiya san'ati

XIX asr oxirlarida Yaponiya G'arb san'atiga qiziqishi ortdi va tasviriy san'at sezilarli bo'ldi. Milliy va Yevropa me'morlikda asosiy o'rinni egalladi. Me'morlikda XIX asr oxiri – XX asr boshlari me'morligida eklektika kuchli. Milliy san'at unsurlari yangi kirib kelayotgan yevropacha uslub bilan chatisha boshladi, keyinroq esa ratsionalizm g'oyalari me'morlami o'ziga jaib etdi.

Me'morlar Sakakura Dzyundzo va Maekva Kunio ijodida shu xususiyatlar namoyon bo'lgan, lekin 1930-yillardan milliy me'morchilik an'analariga qiziqish kuchayib "imperator toji" nomli uslubda binoldar barpo etildi. Rassomlikda an'anaviy «Nixonga» va yevropacha «yoga» uslubi mavjud bo'ldi. An'anaviy uslubda o'rta asr dekorativ manzara janrida ijod qildilar. Chet ellarda, asosan Yevropa davlatlarida tasviriy san'at asoslarini egallab qaytgan rassomlar esa, moybo'yoqda ijod qilib



*Tange Kendzo. Tokiodagi Olimpiada sport majmuasi.*

akademizm, imperissionizm, postimpressionizm va fovizm ta'sirida bo'ldilar. Asan Tyu, Yasun Sotaro, Umexara Ryudzaburo va b. ijodi shu o'rinda eslashga loyiq, shu jarayonlarning faol vakillaridir. XX asr boshlarida yapon tasviriy san'atiga Yevropadagi avangard san'atning turli ko'rinishlari dadaizm, kubizm, abstroksizm kirib kela boshladi. Bu yo'nalishlar yapon san'atining keyingi davrida muhim o'rinni egalladi. 1928-yili Proletar san'ati birlashmasi tashkil topdi. Bu birlashma a'zolari o'zlarining asosiy maqsadlari qilib xalqning hayoti va kurashini tasvirlashni oldilar. Ish tashlashlar, namoyishchilar, otish va shunga o'xshash siyosiy mavzularda surat va agitplakatlar ishladilar. Ishchilar harakati bilan bo'lgan bu birlashma 30-yillar rangtasvirida muhim rol o'ynadi. Nixonga an'anaviy yapon san'ati bu davrga kelib, yangi ko'rinish kashf etadi. Yokoyama Taykan (1868–1959) va Uemuro Syoen (1875–1949) kabi rassomlar Yevropa realistik san'atini o'zlashtirgan holda uni nixonga an'analari bilan uyg'unlashtirishga intildilar.

30-yillarga kelib mavjud badiiy uyushma va uning faoliyati ta'qib ostiga olindi. Asosan modernistik yo'nalish va an'anaviy yapon milliy san'ati an'analarida asarlar yaratildi. Ayniqsa, syurrealizm shu yillari yetakchi o'ringa chiqib oldi. San'atda shovinistik qarashlar targ'ib etila boshladi. Ikkinchи jahon urushida yaponianing mag'lubiyatga uchrashi militar tartibga ham chek qo'ydi. Yaponiya yangi davrga qadam qo'ya boshladi. Me'morlik, grafika va milliy-bezak san'ati rivojlanishi davrini boshidan kechira boshladi. Milliy san'at an'analariga qiziqish ortdi. Bu me'morlikda yengil, sinchli binolar qurilishida, me'morlik shakllarining ixchamligi va mutanosibligida va yangi texnologiyadan unumli qurilish ishlarida foydalanishdan seziladi. Ayniqsa, qurilgan binolarning tevarak-atrofi, tabiat bilan uyg'unlikda bunyod etilishi, an'anaviy yapon me'morligi uslublari bilan XX asr G'arbiy Yevropa yuzaga kelgan uslublarni organik



*Xirosima suvlari. Ono Tadasige.*

uyg'unlashtirishi yapon me'morligining o'ziga xos jozibasini yaratdi.

50-yillardan boshlab san'at sintezi yapon me'morligining muhim tomonini belgilay boshladi. Nafaqat me'morlik shakllari, amaliy-tasviriysan'at asarlari, balki ishlataladigan qurilish materiallarining emotsiyonal-estetik imkoniyatlari ham shu san'at sintezida o'z o'mini egalladi. Mazaika, devoriy rasmlar, haykaltaroshlikdan va amaliy san'at namunalaridan ijodiy foydalanildi. Me'morlikdagi bu davr yo'nalishi ham keng va rang-barang. Bir tomondan an'anaviy yapon me'morlik uslublari asosida binolar yaratilsa, ikkinchi tomondan G'arbiy Yevropa va Amerika me'morligi shakllanayotgan yangi an'ana va yo'nalishlar uslubida inshootlar qurildi.



*Dengiz qushi. Ono Tadasige.*

Tange Kendzo birinchi bo'lib shunday uyg'unlashtirishni boshlagan me'morlardan hisoblanadi. Tange Kendzo Tokio universitetida o'qigan (1935–38), me'mor Maekava Kunio ustaxonasida ishlagan. U o'z ijodida Le Korbyuze izlanishlardan hamda ingliz brutal uslubidan foy-dalanishga harakat qildi. Uning Xirosimadagi Tinchlik bog'i me'moriy majmuasi (1951–52), Takamatsu shahridagi Kagava prefektura kengash binosi (1955–58), Kurasikidagi munisipalitet (1958–60), Tokiodagi Olimpiada sport majmuasi (1961–64) va boshqalarda (bu me'moriy majmular yechimida boshqa me'morlar ham ishtirot etgan, ular hammual-liflikda yechilgan) ijodiga xos tomonlari namoyon bo'lgan. Shuningdek, Tange Tokioni qayta tuzish loyihasi muallifi hisoblanadi.

Me'morlik kabi tasviriylar san'at ham uslub va yo'naliishlarga boy. Sharq va g'arb san'at an'analarini asosida asar yaratishga intilish bir qancha rassomlar ijodida esa sezilarli o'rinni egalladi. Shu yo'naliishda ijod qilgan rassomlar xalq hayoti, uning tarixi urush va urushdan keyingi yillardagi og'ir ahvoli haqida asarlar yaratdilar. Marukiy Iriy va Marukiy Tosikalarning «Xirosima» (1950–1955) pannosi shunday asarlardandir. Atom bombasining yapon shaharlari ustida potrlashi xalq boshiga qancha azob kel-tirilginligini ask ettiruvchi bu panno o'zining realizmi bilan xarakterlanadi. Grafika Yaponiya san'atining eng ommaviy va xalqchil turlaridan bo'lib, asr boshlarida an'anaviy san'atdan farqli mustaqil san'at darajasida bo'lib asta milliy an'analar ta'sirida yapon milliy san'at shakllanishiga olib keldi. Ijodkorlar bu san'atda xalq hayoti, uning fojialari bilan bog'liq ranglar tuslanishida o'z aksini topdi, yapon tabiatining o'ziga xos

ko'rinishlari tasvirlandi. Ono Tadasige gravyuralarida ko'proq shahar manzaralari, uning atrofidagi kanal va sanoat ko'rinishlari aks ettiriladi. Rassom manzaralari o'zining ko'rinishi bilan emas, balki ko'ngilga mung-lilik tuyg'ulari baxsh etuvchi hissiyotlarni qo'zg'aydi. Achinish, hadiksirash kabi holatlar kishining qalbini egallaydi. Jumladan, uning 1959-yili yaratgan "Xirosima suvlari" asari yapon xalqining o'tmishi va uning qalbidagi chuqur iztirobi vayrona bo'lgan bino ko'rinishi-yu suv sathidagi bag'irini tilingan izlarini eslatuvchi chiziqlarda namoyon bo'lsa, atom bombasi vayronasining ramzi bo'lgan bino haykal singari bo'lib o'tgan fojiani eslatib turadi. «Dengiz qushi» asaridagi yolg'iz qushning besaranjom atrofga boqishida cho'chish, hadiksirash va yolg'izlik tuyg'ulari kishi qalbini qamrab oladi. Rassom shakllarni yaxlit ishlaydi. Mayda unsurlariga e'tibor bermaydi. Asarning rang gammasi ham e'tiborga lo-yiq. U borliq rangi emas balki kishi hissiyotlarini yorqinroq ifodalash uchun tanlangan. Fumio Kitaoka turkum gravyura asarlari urush mavzusiga bag'ishlangan. "Vayron etilgan uy", «Yo'ldagi halokat», «Qaytish» kabi kompozitsiyalari shu mavzu mohiyatini yoritishga qaratilgan. Gravyura texnikasining yirik shakllarda ohang yaratish imkoniyatlari shu mavzu mohiyatining yanada ta'sirchan bo'lishiga xizmat qilgan. 1960-yillardan rassom ijodida manzara xalq hayotiga oid kompozitsiya keng o'rinni oldi. XX asr yapon amaliy bezak san'ati ham o'z rivojida san'atning boshqa turlari kabi yangi davr ruhiga mos ravishda rivoj topdi, lekin boy yapon amaliy bezak san'ati asoslari birmuncha yetakchiligi seziladi. Yapon san'atida qo'g'irchoq san'ati ham keng rivojlangan.

# MUNDARIJA

Kirish ..... 3

## BIRINCHI BO'LIM. QADIMGI SHARQ SAN'ATI

Qadimgi Misr podsholigi .....	5
Old Osiyo san'ati .....	18
Qadimgi eron san'ati .....	29
Grek-Baqtriya .....	34
Parsiya san'ati .....	35
Kushon san'ati .....	37
Qadimgi hind san'ati .....	39
Qadimgi xitoy san'ati .....	45

## IKKINCHI BO'LIM. O'RTA ASRLAR SAN'ATI

Arab xalifalik davri san'ati .....	54
Turkiya san'ati .....	62
Kavkazorti xalqlari san'ati .....	63
Ozarboyjon san'ati .....	63
Eron san'ati .....	65
Afg'oniston san'ati .....	68
Janubiy va sharqiy osiyo san'ati. Hindiston san'ati .....	70
Xitoy san'ati .....	75
Yaponiya san'ati .....	80
Janubiy-Sharqiy Osiyo san'ati .....	84

## UCHINCHI BO'LIM. XX ASR XORIJUY SHARQ SAN'ATI

1. Misr Arab Respublikasi san'ati .....	86
2. Mag'rib san'ati (Tunis, Marokko, Jazoir) .....	92
3. Suriya Arab Respublikasi san'ati .....	93
4. Iraq Respublikasi .....	94
5. Livan san'ati .....	96
6. Turkiya san'ati .....	97
7. Eron san'ati .....	98
8. Afg'oniston san'ati .....	99

## JANUBIY, JANUBI-SHARQIY OSIYO SAN'ATI

1. Hindiston Respublikasi .....	99
2. Shri Lanka san'ati (Seylon) .....	102
3. Xitoy Xalq Respublikasi .....	103
4. Mo'g'uliston san'ati .....	105
5. Birma san'ati .....	108
6. Vyetnam san'ati .....	110
7. Koreya san'ati .....	112
8. Indoneziya san'ati .....	113
9. Yaponiya san'ati .....	114

NE'MAT ABDULLAYEV

## SHARQ XALQLARI SAN'ATI TARIXI

Kashb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv  
qo'llanma

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti  
100083, Toshkent, Buyuk Turon ko'chasi, 41.  
Tel: 136-55-79; faks: 139-88-61

Muharrir: *O. Bozorova*  
Musahhih: *H. Zokirova*  
Dizayner: *N. Mamanov*

Bosishga ruxsat etildi 28.08.2007-y. Bichimi 60 x 90  $\frac{1}{16}$ . Ofset qog'oz.  
Shartli bosma tabog'i 8,0. Nashriyot-hisob tabog'i 7,5. Adadi 1000 nusxa.  
Buyurtma № 30.

«AVTO-NASHR» SHK bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.



ISBN 978-9943-319-37-0

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-319-37-0.